

Jabborova Onaxon Mannapovna

TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI



Jabborova Onaxon Mannapovna

TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

JABBOROVA ONAXON MANNAPOVNA

TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI

Boshlang'ich ta'lism yo'nalishi talabalari uchun

O'quv qo'llanma

«BOOK TRADE 2022»
TOSHKENT – 2022

UO‘K: 91:31(075.10)

KBK: 65.04ya75

Jabborova Onaxon Mannapovna

Tarbiyaviy ishlар metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent. 2022.
– 104 b.

Mazkur o‘quv qo‘llanma boshlang‘ich ta’limda Tarbiyaviy ishlар metodikasi fani bo‘yicha ilk bor tayyorlangan bo‘lib, unda tarbiyaviy ishlар metodikasining nazariy masalalari, metodologiyasi va amaliyoti omillari tahlil etilgan. O‘quv qo‘llanmani tayyorlashda milliy pedagogik tajriba va xorijiy pedagogik an‘analar uyg‘un hisobga olingan. Mazkur o‘quv qo‘llanmaning asosini o‘qitishning kredit-modul tizimi qoidalari va talablari tashkil etadi. Undan boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari, magistrantlar, ilmiy izlanuvchilar va amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari foydalanishi tavsiya etiladi.

Mas’ul muharrir:

Shukurullo Qo‘ldoshevich Mardonov – pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Fotima Uralovna Jumanova – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Nurali Xolboyevich Irbutayev – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

O‘quv qo‘llanma Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-8821-6-4

MUNDARIJA

1-MODUL. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASINING NAZARIY MASALALARI

1-mavzu: “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining maqsad va vazifalari	4
2-mavzu: Tarbiyaviy ishlarning milliy manbalari	13
3-mavzu: Tarbiyaviy ishlarning umuminsoniy omillari	22
4-mavzu: Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning nazariy asoslari	29

2-MODUL. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TARBIYAVIY ISHLAR METODOLOGIYASI

5-mavzu: Tarbiyaviy ishlar metodlari	38
6-mavzu: Tarbiyaviy ishlar shakllari.....	47
7-mavzu: Tarbiyaviy ishlar vositalari	53
8-mavzu: Tarbiyaviy ishlar texnologiyalari	60
9-mavzu: Tarbiyaviy ishlarning xorijiy tajribalari.....	66

3-MODUL. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TARBIYAVIY ISHLAR AMALIYOTI

10-mavzu: Tarbiyaviy ishlar monitoringi	73
11-mavzu: Tarbiyaviy ishlar amaliyotini o‘rganib borish xususiyatlari	79
12-mavzu: Tarbiyaviy ishlar amaliyotida jamoatchilikning ishtiroki	85
13-mavzu: Tarbiyaviy ishlar amaliyoti samaradorligi	91
Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar.....	98
Glossary	100
Tavsiya etiladigan umumiylar adabiyotlar	103

1-MODUL. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASINING NAZARIY MASALALARI

1-MAVZU: “TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI” FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Reja:

1. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” tushunchasi va uning mazmuni
2. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining asosiy maqsadlari
3. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining vazifalari

Tayanch tushunchalar: boshlang‘ich ta’lim, tarbiya, metodika, maqsad, vazifa, bilim, ko‘nikma, malaka.

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” tushunchasi va uning mazmuni.

Mamlakatimiz ta’lim tizimida *tarbiyaviy ishlar* ta’lim jarayonining uzviy qismini tashkil etadi. Unga ko‘ra, ta’lim vositasida amalga oshiriladigan shaxsga bilim, ko‘nikma va malaka berish ta’lim, tarbiya hamda o‘qitish jarayonlariga tayaniladi. Shu jihatdan tarbiyaviy ishlar metodikasi bo‘yicha bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi zaruriyat hisoblanadi.

Pedagog olimlarning nazariy qarashlari va Pedagogika fani tajribasiga ko‘ra, tarbiya – bu avlodlararo ijtimoiy-tarixiy va hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiladigan hamda turli muassasalar faoliyati vositasida amalga oshiriladigan jarayondir.¹ Shu jihatdan tarbiya jarayoni tarbiyaviy ishlar vositasida amalga oshiriladi. Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar *tushunchasining* mazmuni shundan iboratki, bu 7-11 yoshli o‘quvchilarni har tomonlama tarbiyalashga yo‘naltirilgan *tadbirlar* vositasida amalga oshiriladigan faoliyatdir. Bunday tarbiyaviy tadbirlarning asosiy turlarini quyidagilar tashkil etadi:

- 1) o‘quvchilar bilan tarbiyaviy xususiyatga ega o‘yinlar, bayramlar, turli tadbirlar va harakatlarni amalga oshirish;
- 2) suhbat, o‘quvchi shaxsini o‘rganib borish, o‘quvchi muammolarini

¹ Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – Toshkent, 2010. 526-bet.

hal etish bilan unga tarbiyaviy yordam berish;

3) teatrlashtirilgan sahna asarlari qo'yish, muzeylar, qadimiy shaharlar va diqqatga sazovor madaniyat maskanlariga o'quvchilar bilan birgalikda sayohatlar uyuştirish;

4) o'quvchi shaxsining tarbiyalanganlik darajasidan manfaatdorlar – ota-onalar, ularning o'rmini bosuvchi shaxslar, mahalla faollari, jamoatchilik vakillari va tashkilotlarning belgilangan mutaxassislari ishtirokida o'quvchilarni tarbiyalashga yo'naltirilgan anjumanlar, simpoziumlar, kitobxonlik kunlari, ijodiy tanlovlар va sport musobaqalari o'tkazish.

Boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlар metodikasining o'ziga xos mazmuni amalga oshiriladigan *tarbiya zaruriyati* bilan ham belgilanadi. Chunki boshlang'ich ta'limda o'quvchilar tarbiya olamiga olib kiriladi va ularning oilada olgan tarbiya ko'nikmalari korreksiyalanadi hamda rivojlantiriladi. Shu sababli ta'limning mazkur bosqichida amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarga tarbiya zaruriyati nuqtai nazaridan yondashish taqozo etiladi. Bunday tarbiya zaruriyatining eng muhimlari quyidagilardan iborat:

1. *Pedagogik zaruriyat*. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilar pedagogik talablar, metodlar, qonuniyatlar va texnologiyalarga asoslangan tadbirlar vositasida tarbiyalanishi kerak. Bunda pedagogik zaruriyatning mazmuni shundan iboratki, boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiya jarayoni pedagogik asoslarga tayanishi shart. Shu sababli pedagogik zaruriyat asoslarini quyidagilarga tayanish tashkil etadi:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyasini davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va o'quv rejaliри asosida amalga oshirish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda pedagogik tadqiqotlarda bayon qilingan nazariy, metodologik va amaliy tavsiyalarga asoslanish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda zamonaviy xalqaro pedagogik tajribalarga tayanish.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashga yo'naltirilgan tadbirlarni pedagogik zaruriyat asosida belgilab olish imkonini beradi.

2. *Psixologik zaruriyat*. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda psixologik qonuniyatlar, metodlar va texnologiyalarga

asoslanish taqozo etiladi hamda tarbiyaviy tadbirlar ana shu asosida belgilanishi kerak bo‘ladi. Buning uchun quyidagilarga e’tibor berish tavsiya etiladi:

- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ruhiy holati, darajasi va vaziyatlari;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ruhiy kechinmalari, idroklari va munosabatlari;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘ziga ishonchi, mustaqil xatti-harakati va rivojlanib borish xususiyatlariga egaligi.

Mazkur jihatlarga e’tibor berish va amal qilish boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasida psixologik zaruriyatlarga tayanish imkoniyatini keltirib chiqaradi. Shuni ta’kidlash joizki, psixologik zaruriyatlar aynan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

3. *Ijtimoiy zaruriyat*. Unga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilar tarbiyasida ijtimoiy zaruriyatlar majmuiga asoslanish kerak bo‘ladi. Chunki ijtimoiy zaruriyatlar tarbiyaviy tadbirlarning fundamenti sifatida mazkur jarayonda muhim ahamiyatga ega. Bunday ijtimoiy zaruriyatlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiylashtirish, ularning ijtimoiy ongi, axloqi va dunyoqarashini dastlabki bosqichda shakllantirish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy faoliyat va ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy ko‘nikma va malakalarini tadrijiy rivojlantirib borish.

Bularga amal qilish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan tadbirlarni aniq belgilab olish imkonini beradi.

Boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlar va tarbiyaviy ishlar metodikasi tushunchasida pedagogik, psixologik va ijtimoiy zaruriyatlarni hisobga olish birlamchi vazifalardan hisoblanadi. Shu sababli mazkur masalalar pedagogik ilmiy tadqiqotlar xulosalari hamda pedagogik amaliy tajribalar asosida idrok etilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning turlari ko‘p. Ayni paytda mazkur tarbiyaviy tadbirlar turlaridan yagona mantiqlik, uzviylik va uzuksizlik tamoyillari asosida foydalanish asosiy vazifa hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang‘ich

ta’limda tarbiyaviy ishlar tushunchasi deganda ana shunday tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish va ular vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalash tushuniladi.

Boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiya jarayonida quyidagi ikki tushuncha farqlanishi kerak:

1) tarbiyaviy ishlar – bu boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan amalga oshiriladigan tarbiyaviy jarayonning umumiyligi majmui;

2) tarbiyaviy tadbirlar – bu boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan amalga oshiriladigan tarbiya jarayonidagi usullar, yondashuvlar va tajribalar majmui.

Shu jihatdan tarbiyaviy ishlar umumiyligi xususiyatga ega bo‘ladi, tarbiyaviy tadbirlar esa aniq xususiyatlarga egaligi bilan farqlanib turadi. Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar metodikasi tushunchasida mazkur tushunchalarning farqli tomonlari idrok etilishi tavsiya etiladi.

Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar *mazmunini* tarbiyaga oid turli tadbirlarning imkoniyatlariiga tayangan holda o‘quvchilarni jamiyat ehtiyojlari va hozirgi zamon rivojlanish jarayoni talablari asosida tarbiyalash samaradorligiga erishish tashkil qiladi. Bunda quyidagilarga e’tibor berish bilan tarbiyaviy ishlar mazmunini idrok etish mumkin:

1) boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish nazariyasi, metodologiyasi va amaliyotini bilish;

2) boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni o‘z vaqtida, talab darajasida va tarbiyaviy qoidalar asosida tashkil etish hamda amalga oshirish metodlari, vositalari, texnologiyalari va mexanizmlarini bilish;

3) boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni o‘quvchilarning imkoniyatlari va xususiyatlariiga mos ravishda amalga oshirish, ular vositasida qo‘yilgan maqsad va vazifaga erishishni bilish;

4) boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning samaradorligini baholashni bilish.

Bulardan xabardorlik boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar mazmunini anglab olishga olib keladi.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar mazmunini to‘liq o‘zlashtirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun oliy pedagogik ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan Tyutorlar bilan hamkorlik qilish kutilgan samarani

beradi. Chunki tyutorlar turli tarbiyaviy tadbirlar vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tarbiyalanganlik ko‘nikmasini rivojlantiradi va ularning tarbiya ishi bilan shug‘ullanish malakasini tarkib toptiradi. Shu sababli tyutorlar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tarbiyaviy tadbirlar bo‘yicha tarbiyaviy tadbirlar mazmunini to‘liq o‘zlashtirishiga erishish imkoniyatlari mavjud.

Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning bir necha o‘ziga xos *xususiyatlari* ham mavjud. Bunday xususiyatlarning asosiyatlari quyidagilardan iborat:

- 1) boshlang‘ich ta’lim davlat standartlari va malaka talablariga qat’iy amal qilish;
- 2) boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlari va tarbiyaviy jarayonlarining mazmunidan kelib chiqib, tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish;
- 3) boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilishda o‘quvchilarining yosh va boshqa xususiyatlarini hisobga olish;
- 4) boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda sanitariya-gigiyena qoidalari, talablar va yondashuvlarga qat’iy amal qilish, bunday tadbirlarning o‘quvchi shaxsiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan xolilagini ta’minalash.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich ta’limda tashkil etiladigan tarbiyaviy ishlar o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan boshqa ta’lim bosqichlarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlardan *farqlanib* turadi. Bunday farqlilik tarbiyaviy tadbirlar va tarbiyaviy ishlarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aqliy, ruhiy, estetik va ijtimoiy xususiyatlariga mos ravishda amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Bunday yondashuv boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar metodikasi tushunchasi va uning mazmunini kutilgan darajada idrok etish imkonini beradi. Shuningdek, mazkur xususiyatlarning eng muhim boshlang‘ich ta’limda tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirlar ta’limning keyingi bosqichlarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarning poydevori ekanligidan iboratdir. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlar ta’limning keyingi bosqichdagi tarbiyaviy tadbirlar uchun muhim asoslarni yaratadi. Natijada boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlar va tarbiyaviy ishlarning amaliy samaradorlik ko‘lami oshadi.

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining asosiy maqsadlari.

Boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning asosiy maqsadlari mavjud. Bunda *birinchi maqsad* – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashdir. Bunday tarbiya quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

- 1) darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish vositasida;
- 2) tarbiyaviy tadbirlarning amaliy samara berishi, qiziqarliligi va muayyan muddat rejimiga amal qilishi vositasida;
- 3) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda har bir tarbiyaviy xatti-harakat, yondashuvlar va tajribalardan oqilona foydalanish;
- 4) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiya olish jarayonini tarbiyaviy tadbirlar vositasida kuchaytirishga erishish.

Boshlang‘ich ta’limda darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar o‘quvchilarning pedagogik, psixologik va ijtimoiy imkoniyatlariiga mos ravishda tanlanadi. Mazkur ta’lim bosqichida tarbiyaviy tadbirlarning amaliy samara berishi tarbiyaviy ishlarni amalga oshiruvchi tomonidan nazorat qilinadi, ularning qiziqarliligi ta’minlanadi va tarbiyaviy tadbirlarning aniq muddatli rejimga asoslanishi amalga oshiriladi. Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda o‘quvchilarning xatti-harakatlari, yondashuvlari va dastlabki bosqichdagagi tajribalarining kuzatilishi, hisobga olinishi hamda ular asosida amaliy tadbirlar amalga oshirilishi taqozo etiladi. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning tarbiya olish jarayonini tarbiyaviy tadbirlar vositasida kuchaytirish uchun tarbiyaviy ishlarning rejali amalga oshirilishi kerak bo‘ladi. Bularning barchasi o‘quv fanlari o‘qituvchilari va sinf rahbarlari tomonidan idrok etilishi lozim.

Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishning *ikkinci maqsadi* – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiya olish, tarbiyalanish va tarbiyaga ko‘niktirishdir. Bular quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

- 1) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini turli tarbiyaviy tadbirlar vositasida tarbiya olishga ko‘niktirish;
- 2) mazkur toifa o‘quvchilarini tarbiyaviy tadbirlar asosida tarbiyalanishini tashkil etish;
- 3) bu toifa o‘quvchilarni tarbiyaviy tadbirlarga asosan tarbiyalash;
- 4) tarbiyaviy tadbirlarning amaliy samaradorligini tashxislab borish.

Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy tadbirlar vositasida o‘quvchilarning tarbiya olishga ko‘niktirilishi muhim omillardan hisoblanadi. Bu jarayonda tarbiyaviy tadbirlarning mazmundor bo‘lishi taqozo etiladi. Shu sababli tanlangan tarbiyaviy tadbirlar ilmiy, nazariy va metodik jihatdan talablarga javob berishi kerak. Boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarning amaliy samaradorligi sinfrahbarlari tomonidan tashxislab boriladi. Bularning barchasi boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishning maqsadini to‘liq idrok etish imkonini beradi.

Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishning *uchinchi maqsadi* – bu boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini butun faoliyat davomida tarbiya olishga yo‘naltirishdir. Mazkur yo‘naltirilganlik quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

- 1) mактаб та’лими жароянда тарбиyавиy тадbirlar аsosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalash;
- 2) o‘qituvchilar va ota-onalar hamkorligida тарбиyавиy тадbirlar tashkil qilib, ushbu тоifa o‘quvchilarini tarbiyalash;
- 3) oila, mahalla va jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikda тарбиyавиy тадbirlar аsosida bu тоifa o‘quvchilarini tarbiyalash;
- 4) tajribali pedagoglar, mutaxassislar va mактаб jamoasi hamkorligida tashkil etiladigan klaster vositasida тарбиyавиy тадbirlar bilan ushbu тоifa o‘quvchilarini tarbiyalash.

Boshlang‘ich ta’limda turli тарбиyавиy тадbirlar qo‘llanishi тарбиyавиy ishlар uchun zaruriyat hisobланади. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan тарбиyавиy тадbirlar o‘quv fanлari ta’lim jarayoni bilan uyg‘un olib boriladi. Unda o‘qituvchilar va ota-onalar hamkorligiga qat’iy amal qilish taqozo etiladi. Shuningdek, boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan тарбиyавиy тадbirlarda mahalla va jamoatchilik vakillari bilan hamkorlik ham bu boradagi eng muhim zaruriatlardan hisobланади. Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan тарбиyавиy тадbirlarda ota-onalar va jamoatchilik vakillari tavsiyaviy xarakterga ega bo‘lgan faoliyat bilan ishtiirok etadi. Bunda sinf rahbarlari, o‘quv fanлari o‘qituvchilar, mutaxassislar va mактаб jamoasi hamkorligi shaklidan ham foydalanish o‘ziga xos klaster vositasining oqilona foydalanish imkonini beradi. Chunki pedagogik ta’limning klaster vositasi boshlang‘ich ta’limda тарбиyавиy тадbirlarni belgilash, ularni

qo'llash va ular asosida amaliy samaraga erishish uchun muhim hamkorlik mexanizmi hisoblanadi.

Aslida, boshlang'ich ta'limda tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirlar muhim maqsadlarni mo'ljallaydi va bu maqsadlar o'ziga xos asoslar asosida amalga oshiriladi. Shu sababli bu maqsadlarning mazmun-mohiyati bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan oliy pedagogik ta'lim jarayonida chuqur o'zlashtirilishi kerak.

"Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanining vazifalari. Boshlang'ich ta'limda tashkil etiladigan va amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlar o'zining muhim vazifalariga ega. Bunday vazifalarning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

- 1) boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda mazkur masalaning nazariy asoslariga tayanish;
- 2) boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda bu jarayonning metodologiyasiga qat'iy amal qilish;
- 3) boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda uning amaliy samaradorligini tashxislash va unga erishish yo'naliishlarini belgilab olish;
- 4) boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy tadbirlarni mакtab jamoasi, ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar hamda jamoatchilik vakillarini xabardor qilgan holda tashkil etish va amalga oshirish.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish muhim vazifalarga asoslanadi. Shu sababli bunday vazifalarning mohiyatini anglashda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- 1) boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlarda ishtirot etadigan har bir kishining o'z vazifasi mayjudligi;
- 2) boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda shaxs omilining va o'quvchi huquqining ustuvorligi;
- 3) boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlarni soddadan murakkablikka tamoyiliga asosan tashkil etish kerakligi;
- 4) boshlang'ich ta'limda har bir tarbiyaviy ishlarni oshkoraliq, ochiqlik va tomonlarning manfaatdorligi asosida tashkil etish lozimligi.

Bularga amal qilish boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlarning vazifalarini to'g'ri idrok etish va unda amaliy samaraga erishish imkoniyatlariiga ega bo'linadi.

"Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanining maqsad va vazifalari boshlang'ich ta'limda mazkur ta'lim bosqichining xususiyatlariga mos

ravishda belgilanishiga e'tibor bering. Boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning nazariy asoslari pedagogik, psixologik va ijtimoiy-gumanitar fanlar o'quv materiallarida o'z ifodasini topgan. Mazkur jarayonning metodologiyasi oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'qitiladigan mutaxassislik (pedagogik) majburiy fanlar vositasida o'zlashtiriladi. Unda boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning amaliy samaradorligi bo'yicha tashxislash jarayoni belgilanadi va unga erishishning maqbul hamda samarali yo'nalishlari tanlab olinadi. Shuningdek, boshlang'ich ta'limda har bir tarbiyaviy tadbirlar oshkorlik, shaffoflik va demokratlik tamoyillari asosida amalga oshiriladi. Negaki, bu jarayonda ta'lim oluvchi, ta'lim beruvchi va undan manfaatdorlarning teng foyda ko'rishi birlamchi assolardan hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning asosiy vazifalarini o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini oliy pedagogik ta'lim jarayonida quyidagilarga amal qilishi taqozo etiladi:

- pedagogik fanlarni o'qish jarayonida o'zlashtirish;
- "Tarbiyaviy ishlar metodikasi", "Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi" va "Boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari ishlar" o'quv fanlarini o'qish jarayonida o'zlashtirish;
- oliy pedagogik ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlar vositasida o'zlashtirish.

Bularning barchasi boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar vazifalarining mazmunini o'zlashtirish, ularni idrok etish va kelgusi faoliyatda ulardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishga olib keladi.

"Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanining mazmuni, maqsad va vazifalari boshlang'ich ta'limda mazkur ta'lim bosqichining *xususiyatlari* mos ravishda belgilanishiga e'tibor berish lozim. Shu sababli bu masalalar oliy *pedagogik ta'lim jarayonida pedagogik turkumdag'i fanlar*, "*Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi*" hamda "*Tarbiyaviy ishlar metodikasi*" o'quv fanlarini o'rganish jarayonida o'zlashtiriladi. Bunda pedagogik fanlar tarbiyaviy ishlar jarayonini pedagogik qonuniyatlar bilan qurollantiradi va ta'kidlangan uch o'quv fani esa tarbiyaviy ishlarning asoslari bilan tanishtiradi hamda buning natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha kasbiy kompetensiyalar tarkib

topadi.

Shunday qilib, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining maqsad va vazifalari boshlang‘ich ta’lim xususiyatlari, mazmuni va vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi. Aynan bu hol boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan ushbu fanning mazmuni, maqsadi va vazifalarini oliv pedagogik ta’lim jarayonida to‘liq idrok eta olishni taqozo etadi.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar

1. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” tushunchasi va uning mazmunini o‘rganing.
2. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining asosiy maqsadlarini konspekt qiling.
3. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining vazifalarini o‘zlashtiring.

2-MAVZU: TARBIYAVIY ISHLARNING MILLIY MANBALARI

Reja:

1. Milliy g‘oya va uning tarbiyaviy ishlarda tutgan ahamiyati.
2. Milliy g‘oyaning asosiy tamoyillari.
3. Milliy g‘oya asosida shaxsni tarbiyalash omillari.

Tayanch tushunchalar: tarbiya, g‘oya, milliylik, tamoyil, omil, shaxs, bilim, ko‘nikma, malaka, yondashuv.

Milliy g‘oya va uning tarbiyaviy ishlarda tutgan ahamiyati. Mamlakatimiz boshlang‘ich ta’limida o‘quvchilarni innovatsion rivojlanish jarayoniga mos ravishda tarbiyalash, bunda ularni tarbiyaviy jihatdan hayot va faoliyatga tayyorlash ishlariga alohida e’tibor berilmoqda. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarda yangi milliy g‘oyamizga asoslanish eng muhim omillardan biri hisoblanadi.¹ Bu borada muayyan masalalarni idrok etish lozim bo‘ladi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning asosiy poydevoridir. – Toshkent, 2021.

Gap shundaki, 1999-yili O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan davlatchiligidan va ta’lim-tarbiyamiz tarixida ilk bor *milliy istiqlol g‘oyasi* taklif etilgan edi. Bu milliy istiqlol g‘oyasining asosiy maqsadi sifatida mamlakat mustaqilligini mustahkamlash va odamlarning ongini yangilash, ularda mustaqillik tafakkurini shakllantirish belgilanib, asosiy tamoyillar sifatida quyidagilar asos qilib olingan edi:

- 1) komil inson;
- 2) dinlararo bag‘rikenglik;
- 3) ijtimoiy hamkorlik.

Natijada mamlakatimiz ta’lim tizimiga “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” yangi o‘quv fani kiritilib, u asosda mamlakatimiz aholisini, ayniqsa, yoshlarni milliy istiqlol g‘oyasi ruhida tarbiyalash ishlari amalga oshirildi. Bu borada o‘quv qo‘llanmalar, o‘quv-uslubiy materiallar va darsliklar yaratilib, ta’limning har bir bosqichida ijtimoiy-gumanitar fanlar turkumining asosiy negizi sifatida o‘qitildi.¹ Milliy istiqlol g‘oyasi asosida mustaqillikka sadoqatli, Vatanga muhabbatli va ijtimoiy faol avlod tarbiyalanib voyaga yetkazildi. Shu sababli keyinchalik “milliy istiqlol g‘oyasi” tushunchasining asosi va poydevori bo‘lgan *milliy g‘oya* o‘tish harakatlari boshlandi. Chunki “milliy g‘oya – bu muayyan millat hayotiga mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmui bo‘lib, u millatning o‘tmishi, buguni va istiqbolini o‘zida mujassam etadi, jamiyatning tub manfaatlarini va maqsadlarini ifodalaydi”.² Shu jihatdan milliy g‘oya inson, jamiyat va davlat hayoti hamda taqdirida muhim o‘rin tutib, o‘zida ideal g‘oyalar, orzu-umidlar hamda yo‘nalishlarni mujassam etadi. Uning “milliy istiqlol g‘oyasi” tushunchasidan farqi shundaki, milliy g‘oya muddatli emas, balki butun taraqqiyotning bardavomligi asoslanadigan hodisa hisoblanadi.

Bularning barchasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan idrok etilib, 2021-yilda jamiyatimiz yangi milliy g‘oyasining asosiy tamoyillari belgilab berildi va ular quyidagilardan iborat:

¹ Qarang: Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Mas’ul muharrir Q.Nazarov. – Toshkent, 2005.

² O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 5-jild. – Toshkent, 2005. 666-b.

- 1) insonparvarlik;
- 2) ezgulik;
- 3) buniyodkorlik.¹

Mazkur milliy g‘oyamizning *yangiligi* uning ilk bor belgilanganligi va eng asosiy ideal tamoyillarga asoslanganligi bilan belgilanadi. Shu sababli bugungi mazkur milliy g‘oyamizni mustaqillik yillarda amal qilib kelgan *milliy istiqlol g‘oyasining* mantiqiy davomi sifatida qabul qilish kerak. O‘zbekistonning yangi taraqqiyoti davrida ana shu ideal tamoyillarga asoslangan milliy g‘oyaga amal qilinadi va bu g‘oyalar ta’lim tizimida tarbiyaviy ishlarning negizini tashkil etadi.

Boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarda *milliy g‘oya* negiz sifatida qabul qilinishi zaruriyatdir. Chunki mazkur zaruriyat quydagilar bilan belgilanishini ta’kidlab o‘tish joiz:

- birinchidan, milliy g‘oya tarbiyaviy ishlarning poydevori sifatida uni yo‘naltiruvchi va boshqaruvchi asos hisoblanadi;
- ikkinchidan, milliy g‘oya asosida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar inson, jamiyat va davlat manfaatlarining uyg‘unligiga asoslanadi;
- uchinchidan, milliy g‘oya asosida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning samaradorligi aynan bu g‘oyaning negizi bo‘lgan milliylik, xalqparvarlik, adolatparvarlik kabi ko‘rsatkichlarning tarkib topishi bilan belgilanadi;
- to‘rtinchidan, milliy g‘oyaga asoslanmagan tarbiyaviy ishlar jarayonida tartibsizlik, maqsadsizlik va turli g‘oyalar targ‘ibotiga asoslanish kabi kamchiliklar mavjud bo‘ladi;
- beshinchidan, har bir milliy g‘oyaning, jumladan, jamiyatimiz yangi milliy g‘oyasining negizida umuminsoniylik mavjud bo‘ladi va aynan mana shu hol tarbiyaviy ishlarning strategik yo‘nalishlariga asos solinadi.

Shu jihatdan *milliy g‘oya deganda* quydagilar tushunilishiga e’tibor berish lozim:

- 1) milliy g‘oya – millatning o‘tmishi, bugungi va istiqbolini o‘zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalab taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g‘oya shaklidir;
- 2) milliy g‘oya – bu millatning, xalqning, jamiyatning va davlatning

¹ Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va buniyodkorlik – milliy g‘oyamizning asosiy poydevoridir. – Toshkent, 2021.

ideal madsad-muddaolarini o‘zida mujassam etgan g‘oyadir;

3) milliy g‘oya – bu shaxsda milliy ong, milliy o‘zlik va milliy ruhni tarkib toptiruvchi g‘oyadir;

4) milliy g‘oya – bu asrlar davomida avlodlardan ajdodlarga o‘tib kelayotgan xalqning eng yaxshi odatlari, an’analari va rasm-rusmlari ifodalangan g‘oyadir.¹

E’tibor berilsa, milliy g‘oyaning bunday ma’no-mazmunini o‘zlash-tirish va kelgusida unga asosan boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirish taqozo etiladi. Shu jihatdan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bu masalaga alohida e’tibor berishlari lozim. Bularning barchasi boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning eng muhim asoslari hisoblanadi. Bunday yondashuv tarbiyaviy ishlarda milliy g‘oyaning tutgan ahamiyatini to‘g‘ri idrok etish imkonini beradi.

Boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarda milliy g‘oyaga tayanish *zaruriyati* ham mavjud. Bunday zaruriyatlarining asosiyлари quyidagilardan iborat:

1) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ongi, ruhi va axloqi tarbiyaviy tadbirlar vositasida milliy asosda shakllantiriladi;

2) mazkur toifa o‘quvchilarida o‘z millati va xalqining ideal odatlari, go‘zal turmush-tarzi hamda an’analari bilan g‘ururlanish ko‘nikmasini tarbiyaviy tadbirlar vositasida tarkib toptirish;

3) bu toifa o‘quvchilarida o‘zga xalqlar qadriyatlarini hurmat qilish tuyg‘usini tarbiyaviy tadbirlar vositasida rivojlantirish;

4) ushbu toifa o‘quvchilarida milliy o‘zlik, shaxsiy yetuklik va faoliy ko‘nikmalarini tarbiyaviy tadbirlar vositasida rivojlantirish.

Aslida, bu zaruriyatlar aynan boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirishning metodologik asoslaridan birini tashkil qiladi.

Boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarda milliy g‘oyaga tayanishning *ahamiyati* idrok etilishi kerak. Bu ahamiyatning eng muhim jihatlari quyidagilardir:

1) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini millatimiz va xalqimiz milliy ruhiyatiga olib kirish;

2) mazkur toifa o‘quvchilarini milliy turmush tarzimiz va odatlarimiz

¹ Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – Toshkent, 2010. 410-bet.

asosida tarbiyalash;

3) ushbu toifa o'quvchilarni mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 132 millat va xalqning milliy tabiat bilan tanishtirish;

4) bu toifa o'quvchilarni milliylik vositasida shaxs sifatida voyaga yetish ishlarini nazariy jihatdan boshlash.

E'tibor beriladigan bo'lsa, boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarning milliy g'oyaga tayanishi ahamiyati nazariy, metodologik va amaliy jihatlar bilan belgilanadi. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, tarbiyaviy tadbirlarda milliy g'oyaga asoslanish zaruriyat va ahamiyati bu yo'nalishdagi faoliyatning samarador bo'lishiga asos bo'ladi.

Milliy g'oyaning asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2021-yil fevral oyida yangi milliy g'oyamiz asoslari va tamoyillari e'lon qilindi.¹ Mazkur kitobda, avvalo, yangi milliy g'oyamiz Yangi O'zbekistonning va xalqining bugungi ehtiyojlari, ideal maqsad-muddaołari va intilishlarining hosilasi ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, milliy g'oyaning bugungi jamiyatimiz uchun ma'naviy, ijtimoiy, pedagogik, psixologik, sotsiologik, politologik va iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Shu sababli boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda mazkur yangi milliy g'oyamizga asoslanish kerak bo'ladi. Bu g'oyamizning bosh g'oyasi "*Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari*"dir. Unga ko'ra, bugungi kunda jamiyatimiz ijtimoiy, iqtisodiy va innovatsion rivojlanish jihatidan tiklangani, shu sababli kelgusi besh yilda har jihatdan milliy yuksalishga erishish idrok etilishi kerak. Bu bosh g'oya asosida boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish zaruriyat hisoblanadi.

Ayni paytda, yangi milliy g'oyamizning *muhim g'oyalari* sifatida quyidagilar belgilanganligini eslatib o'tish joiz:

1) insonparvarlik;

2) ezgulik;

3) bunyodkorlik.

Insonparvarlik – insonni qadrlash, uning huquqlarini ro'yobga chiqarish va insoniyat olamida munosib yashashni qamrab oladi. *Ezgulik*

¹ Qarang: Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning asosiy poydevoridir. –Toshkent, 2021.

– shaxs va jamiyatning ezgu niyat, ezgu fikr hamda ezgu faoliyatga amal qilishidir. *Bunyodkorlik* bu – shaxs va jamiyatning halol mehnat, adolatli xatti-harakat hamda kasblar majmuasiga tayangan holda har tomonlama farovon yashash, Vatan va jamiyatni taraqqiy ettirishdir. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda mazkur milliy g‘oyaga quyidagicha tayanish tavsiya etiladi:

1) tarbiyaviy tadbirlarda o‘quvchilarining haq-huquqlari va manfaatlari ustuvor qo‘yilishi;

2) tarbiyaviy tadbirlar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ezgu niyat, ezgu fikr va ezgu faoliyat ruhida tarbiyalanishi;

3) tarbiyaviy tadbirlar asosida mazkur toifa o‘quvchilarda halol mehnat, kashfiyotga intilish va o‘z ijodidan zavqlanish ko‘nikmalarini tarkib toptirish;

4) tarbiyaviy tadbirlar vositasida ushbu toifa o‘quvchilarning milliy tabiatini kuchaytirish va bu mintalitetda insonparvarlik, ezgulik hamda bunyodkorlik fazilatlarining tarkib topishiga erishish.

Boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarda jamiyatimizda qabul qilingan yangi milliy g‘oyaning ana shu asosiy tamoyillariga tayaniladi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning asosiy *maqsadi* o‘quvchilar ongiga insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik g‘oyalarini singdirish, uning asosiy *vazifalari* o‘quvchilarning axloqi va ijtimoiy ko‘nikmalarida insonparvarlik, ezgulik hamda bunyodkorlik talablariga rioya qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat bo‘ladi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar aynan mana shu maqsad-vazifalarning ijrosini ta’minlashi bilan muhim pedagogik jarayon hisoblanishini ta’kidlab o‘tish joiz. Bularning barchasi oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan chuqur o‘zlashtirilishi va kasbiy kompetensiyaning negizlaridan biri sifatida qabul qilinishi kerak.

Diqqat qilinsa, jamiyatimiz milliy g‘oyasi boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarning tayanchi hisoblanadi. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonida bu masalalar chuqur o‘zlashtirilishi taqozo etiladi.

Milliy g‘oya asosida shaxsni tarbiyalash omillari. Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirishda o‘quvchilarning shaxsini tarbiyalashga e’tibor berish muhim ahamiyatga

ega. Shu jihatdan bu borada milliy g‘oyamizda belgilangan quyidagi *tamoyillarga* asoslanish kutilgan samarani beradi:

- 1) tarbiyaviy tadbirlarni milliy qadriyatlarga asoslangan holda rejalashtirish;
- 2) tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda umuminsoniy qadriyat-larning imkoniyatlaridan foydalanish;
- 3) tarbiyaviy tadbirlarda ijtimoiy qadriyatlarga tayangan holda ularning natijaviylik omillarini belgilash;
- 4) tarbiyaviy tadbirlarda milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar va ijtimoiy qadriyatlarning uyg‘unligiga tayangan holda amaliy sa-maradorlikka erishish.

Aslida, bu tamoyillar tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda milliy g‘oyaga to‘liq tayanish uchun asos vazifasini bajaradi.

Milliy g‘oya asosida tarbiyaviy ishlар vositasida shaxsni tarbiyalash omillari va ularning turlari ko‘p bo‘lib, faoliyat davomida ulardan oqilona foydalanish taqozo etiladi. Shu jihatdan quyidagilarga e’tibor bering:

- milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish bilan yosh avlodni jamiyat ehtiyojlari va talablariga mos ravishda tarbiyalash;
- tarbiyaviy ishlар jarayonida umuminsoniy qadriyatlarning yo‘nal-tiruvchi, baholovchi va samaradorlikni ta’minlovchi asoslariga tayangan holda bu boradagi faoliyat samaradorligiga erishish;
- tarbiyaviy ishlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligiga tayangan holda ijtimoiy qadriyatlarga, ya’ni bugungi kun talablari va ehtiyojlariga asosan faoliyat yuritish;
- tarbiyaviy ishlarda eng avvalo milliy, umuminsoniy va ijtimoiy qadriyatlarning uyg‘unligiga tayangan holda strategik maqsadlarga erishish.

Shu jihatdan quyidagilarni idrok etib olish taqozo etiladi: *milliy qadriyatlar* bu – ijtimoiy-ruhiy hodisa bo‘lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an’analari, moddiy va ma’naviy boyliklarini mujassam etgan eng muhim qatlamdir.¹ *Umuminsoniy qadriyatlar* bu – ilmiy texnikaviy va imkoniyatlar majmui bo‘lib, u butun insoniyatga daxldor bo‘lgan noyob urf-odatlar va orzu-

¹ J.Hasanboyev va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – Toshkent, 2009, 323-bet.

intilishlarni ifodalovchi qatlam hisoblanadi.¹ *Ijtimoiy qadriyatlar* esa bu – bir jamiyatda yashovchi odamlarning umumiy manfaatlariga mos keluvchi ehtiyojlar, ideallar va intilishlar majmuidir.² Bularni anglab olish tarbiyaviy ishlarda milliy g‘oya asosida shaxsni tarbiyalash omillarini to‘liq idrok etishga olib keladi. Bugungi kunda butun dunyoda aynan milliy g‘oyaga asoslangan tarbiyaviy ishlar vositasida shaxsni tarbiyalash ishlariga alohida e’tibor berilayotganligini ta’kidlab o‘tish lozim.

Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, 3700 yillik *milliy davlatchiligidiz* har bir davrda o‘zining milliy g‘oyasiga ega bo‘lgan va shaxsni ana shu milliy g‘oya asosida tarbiyalagan. Amalga oshiriladigan har bir tarbiyaviy tadbirlar negizida shu davrning milliy g‘oyasi turgan. Shu jihatdan, misol uchun, Qoraxoniylar milliy davlatchiligidizda (VII-VIII asrlar) ulusparvarlik (xalqparvarlik) va vatanparvarlik asosiy milliy g‘oya hisoblangan. Shu jihatdan shahzoda Bilga xoqon o‘zining qabrtoshiga quyidagicha yozdirgan: “Men bu ulusni ochlikdan to‘qlikka olib chiqdim, bolalarini vatanparvarlar sifatida tarbiyaladim va bu xalq hamda davlatning qudratini ta’minladim”.³ Yoki, Temuriylar davlatida (XIV-XV asrlar) xalqparvarlik, qudratli davlatchilik va iqtisodiy farovonlik milliy g‘oya sifatida amalda bo‘lgan. Mazkur davlatchiligidizda tarbiya jarayoni va tadbirlari aynan ana shu g‘oyalar asosida amalga oshirilgan.⁴ Ushbu keltirilgan misollardan ma’lum bo‘ladiki, tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirishda milliy g‘oyaga asoslanish tarixiy, pedagogik va ijtimoiy tajribalarga egadir. Shu jihatdan bugungi jahon mamlakatlari ham o‘zlarining milliy g‘oyasi asosida tarbiya jarayonini amalga oshirayotganini eslatib o‘tish kerak.

Tarbiyaviy ishlarning boshlang‘ich ta’limda olib boriladigan shaklida milliy g‘oya negiz sifatida qabul qilinishi bu boradigi asosiy masalalardan biridir. Chunki har bir jamiyat va davlat, eng avvalo, o‘zining manfaatlarini ifodalovchi milliy g‘oyaga asoslangan tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi. Misol uchun, Germaniya Federativ Respublikasi ta’lim tizimida “Olmon xalqi – dunyodagi eng madaniyatli

¹ Shu manba. 523-bet.

² Shu manba. 153-bet.

³ Qarang: Abduraxmonov G., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. Matnlar qismi. – Toshkent, 1982.

⁴ Qarang: Amir Temur. Tuzuklar. – Toshkent, 2003.

xalq” milliy g‘oyasiga asoslanishi ma’lum.¹ Bu hol Germaniya ta’lim tizimini asrlar davomida aniq g‘oyaga asoslanishini, tarbiyaviy ishlarda aynan ana shu tayanchga suyanilishini va natijada fidoiy, faol hamda o‘z xalqini sevuvchi olmon shaxslarining voyaga yetishini ta’minlab kelmoqda. Bunday tajribalar Buyuk Britaniya ta’lim tizimida “Birlik – g‘oliblik”, Fransiya ta’lim tizimida “Madaniyatilik – yetuklik”, Italiya ta’lim tizimida “Bilimdonlik – insoniylik” va Amerika Qo’shma Shtatlari ta’lim tizimida esa “Ko‘plikda – birlik” milliy g‘oyalari asosida tarbiyaviy ishlar olib borilayotganligi shaklida uchrashini eslatib o‘tish joiz. Ta’kidlangan mamlakatlarning amal qilayotgan milliy g‘oyalari negizida, eng avvalo, millatsevar shaxsni voyaga yetkazish va bunday shaxs faoliyatidan umuminsoniyat taraqqiyotida foydalanish yondashuvlari mavjud. Shu sababli milliy g‘oyaga asoslanmagan tarbiyaviy ishlarning samarasiz bo‘lishligi pedagogik ilmiy-tadqiqotlarda asoslab kelinmoqda.²

Shunday qilib boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarning milliy asoslar o‘ziga xos bo‘lib, ularni o‘zlashtirish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini kuchaytiradi.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Milliy g‘oya va uning tarbiyaviy ishlarda tutgan ahamiyatini o‘rganing.
2. Milliy g‘oyaning asosiy tamoyillarini va ular asosida boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirish asoslarini konspekt qiling.
3. Milliy g‘oya asosida shaxsni tarbiyalash omillarini o‘zlashtiring.

¹ Qarang: Ushinskiy K.D. Tanlangan pedagogik asarlar. – Toshkent, 1959.

² Qarang: Quronov M. Milliy tarbiya. – Toshkent, 2007.

3-MAVZU: TARBIYAVIY ISHLARNING UMUMINSONIY OMILLARI

Reja:

1. Umuminsoniy qadriyatlar va tarbiyaviy ishlarda ularning o‘rni.
2. Umuminsoniy qadriyatlarning asosiy ko‘rinishlari.
3. Umuminsoniy qadriyatlar asosida shaxsni tarbiyalash xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: tarbiya, qadriyat, umuminsoniy, shaxs, o‘quvchi, tadbir, bilim, ko‘nikma, malaka, omil.

Umuminsoniy qadriyatlar va tarbiyaviy ishlarda ularning o‘rni. Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirishda umuminsoniy omillarga tayanish muhim hisoblanadi. Bunday omillarning negizini umuminsoniy qadriyatlar tashkil etishi ma’lum.

Bu o‘rinda avvalo umuminsoniy qadriyatlar tushunchasining *ta’rifini* anglab olish zarur. Unga ko‘ra, umuminsoniy qadriyatlar bu – jahondagi barcha odamlar, xalqlar va davlatlar uchun umumiyligini qadrlash mezoni hisoblangan va umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar tizimi (ozodlik, erkinlik, tinchlik, baxt kabilalar)dir.¹ Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda quyidagilarga e’tibor berish kutilgan samarani beradi:

- 1) tarbiyaviy tadbirlar g‘oyalarida barcha uchun teng hisoblangan qadriyatlarning mayjud bo‘lishi;
- 2) tarbiyaviy tadbirlarning mohiyatida muayyan millatning yoki elatning qadriyatlari ustuvor ifodalanmasligi;
- 3) tarbiyaviy tadbirlarda o‘quvchilar millati va elatidan qat’iy nazar faol ishtirok etishi hamda undan manfaatdor bo‘lishi;
- 4) tarbiyaviy tadbirlarning negizida muayyan shaxslar yoki xalqlarga nisbatan yomonlik tuyg‘usini uyg‘otuvchi omillarning bo‘lmamasligi.

Mazkur ta’rif mohiyati boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Tarbiyaviy ishlarning boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan

¹ Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – Toshkent, 2010. 572-bet.

tadbirlarida barcha uchun teng hisoblangan qadriyatlarning mavjud bo‘lishi muhim hisoblanadi. Misol uchun, har bir kishining haq-huquqini ta’minlash ana shunday qadriyatlardan birdir. Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar biror millatning yoki elatning qadriyatlari ustuvorligiga asoslanmaydi. Misol uchun, bugungi kunda O‘zbekistonda 132 millat va elat vakillari yashaydi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar ana shu millat va elatlarning qadriyatlariiga tayangan holda tashkil etiladi hamda amalga oshiriladi. Tarbiyaviy ishlar jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining millati va elatidan qat’iy nazar, ularning faol ishtirok etishiga asosiy e’tibor qaratiladi. Misol uchun, bunda har bir bolaning o‘z ona tilisida so‘zlashi ta’minlanadi va ayni paytda, Davlat tili tarbiyaviy tadbirlarning umummuloqot tili sifatida qabul qilinadi. Boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlar negizida biror shaxs yoki xalqqa nisbatan yomonlik tuyg‘usini uyg‘otuvchi omillarga asoslanilmaydi. Misol uchun, millati, dini, irqi va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar har bir shaxs inson sifatida teng qabul qilinadi, har bir xalqning o‘ziga xos xususiyatlari ta’kidlangan holda tarbiyaviy tadbirlarda ifodalab beriladi.

Bularning barchasi boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda umuminsoniy qadriyatlarning naqadar muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Shu sababli mazkur masalalar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan aniq va to‘liq o‘zlashtirib olinishi taqozo etiladi.

Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda umuminsoniy qadriyatlarga asoslanishning o‘ziga xos *zaruriyati* ham mavjud. Jamiyatimizda mazkur zaruriyatning eng muhimlarini quydigilar tashkil etadi:

1) tarbiyaviy tadbirlarda mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 132 millat va elatning qadriyatlari ifodalanishi hamda ularning rivojlanishi uchun o‘quvchilarni tayyorlash;

2) jamiyatimizda mavjud umuminsoniy qadriyatlар ko‘rinishlarini avaylab asrash g‘oyalarining tarbiyaviy tadbirlar negizida mavjud bo‘lishi;

3) tarbiyaviy tadbirlarda har bir bolada o‘zga xalqlarning qadriyatlarni hurmat qilishi va tushunishi ko‘nikmasini shakllantirish maqsadlarining bo‘lishi;

4) tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda insoniyatning yagonaligi

va hamkorlikda yashashi ko‘nikmalarini o‘quvchilarda shakllantirishning mo‘ljallanishi.

Diqqat qilinsa, bu zaruriyatlar boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirish uchun nihoyatda muhim imkoniyatlarni beradi. Shu sababli mazkur zaruriyatlar o‘zlashtirilishi taqozo etiladi.

Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda umuminsoniy qadriyatlarga tayanishning muhim *amaliy ahamiyatlari* mavjud. Bu amaliy ahamiyatlar quyidagilar bilan belgilanadi:

1) tarbiyaviy tadbirlarni adolat qonuniyatiga qat’iy asoslangan holda o‘tkazish;

2) tarbiyaviy tadbirlar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hamkorlik madaniyatini tarkib toptirish;

3) tarbiyaviy tadbirlar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘zga xalqlar hayoti va madaniyatini o‘rganishga yo‘naltirish;

4) tarbiyaviy tadbirlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining har bir shaxs bilan ijtimoiy munosabatga kirisha olish ko‘nikmasini tarkib toptirish.

Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar jarayonida mamlakatimizda istiqomat qilayotgan millat va elatlarning farzandlarini ijtimoiy tarbiyalash, ularning urf-odatlarga nisbatan munosabatlarini to‘g‘ri shakllantirish, har bir bolada o‘z xalqining qadriyatlarini hurmat qilish ruhini tarkib toptirish va bu boradagi ishlarni oshkora amalga oshirish muhim hisoblanadi. Mazkur jarayonda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari milliy o‘zaniga tayangan umuminsoniylik qiyofasiga ega bo‘lgan holda tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi.

Ayni paytda, pedagogik ilmiy-tadqiqotlarimizda hali ilmiy yechimini topishi lozim bo‘lgan muammolar ham mavjud. Misol uchun, ana shunday muammolardan biri tarbiyaviy tadbirlar vositasida ta’lim oluvchini umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash bilan unda milliylikni qanday tarkib toptirish mumkin, degan masala dolzarb bo‘lib turibdi. Bu muammoning yechimi jahon pedagogik ilmiy-tadqiqotchiligidagi ham o‘z millatining qadriyatlarini ustuvor qo‘yish ko‘rinishida hal etilgan. Shu sababli men ingliz, men olmon, men fransuz kabi tushunchalarga ega shaxslar voyaga yetmoqda. Bizningcha, mazkur muammoning yechimi uchun quyidagilarga amal qilish kutilgan samarani beradi:

a) tarbiyaviy tadbirlar vositasida har bir boshlang‘ich sinf

o‘quvchisining o‘zi mansub millat va elat qadriyatlari ruhida rivojlanishini ta’minlash;

b) tarbiyaviy tadbirlar vositasida har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisini jamiyatimiz milliy g‘oyasi asosida milliylik ruhida tarbiyalash;

v) har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisining Davlat tilini milliy ruh sifatida qabul qilishiga tarbiyaviy tadbirlar vositasida erishish;

g) har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisining milliy qadriyatlarga asoslangan ongi, dunyoqarashi, axloqi va munosabatlariiga tayangan holda ularni umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida voyaga yetkazish.

Umuminsoniy qadriyatlar boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarning milliy hamda umumbashariy negizlarini tashkil etadi. Pedagogik tajribadan ma’lumki, umuminsoniy qadriyatlarni ustuvor qo‘yib va milliy qadriyatlarni ikkinchi darajali bilib tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish shaxsda kosmopolitizm g‘oyasini tarkib toptiradi, ya’ni unda Millatparvarlik ruhi bo‘lmaydi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarda milliy qadriyatlarga tayangan umuminsoniylik ruhi tamoyiliga asoslanish birlamchi va asosiy hisoblanadi. Bu borada mustaqillik yillari ta’lim-tarbiya jarayonimizda o‘ziga xos tajriba to‘planganligini eslatib o‘tish joiz.

Aslida, boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarda umuminsoniy qadriyatlarga tayanish muhim amaliy mexanizmlarni beradi.

Umuminsoniy qadriyatlarning asosiy ko‘rinishlari. Bugungi kunda insoniyat muayyan qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar sifatida baholaydi. Shu jihatdan bu o‘rinda umuminsoniy qadriyatlarning eng asosiy ko‘rinishlariga e’tibor bering:

- 1) har bir shaxs va xalqning ozod va erkin yashashi;
- 2) har bir shaxs va xalqda bag‘rikenglik va tinchliksevarlik fazilatlarining tarkib topishi;
- 3) har bir shaxs va xalq baxtli va farovon yashashi;
- 4) har bir shaxs o‘zga xalqlarning qadriyatlarini hurmat qilishi.

Diqqat qilinsa, umuminsoniy qadriyatlarning bu asosiy ko‘rinishlari boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarning yo‘nalishlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Bu borada boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarda har bir o‘quvchi ongida ozodlik va erkinlik ruhini tarkib toptirish, ularning

axloqida bag‘rikenglik va tinchliksevarlik fazilatlarini shakllantirish, o‘quvchilarning baxt va farovonlik tushunchalarini anglab yetishi, shuningdek, ularning o‘zi mansub bo‘lgan xalqlarning qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish ko‘nikmasini tarkib toptirish asosiy maqsad sifatida belgilanadi. Bunday yondashuv tarbiyaviy ishlarda umuminsoniy qadriyatlarning asosiy ko‘rinishlariga kutilgan darajada amal qilish imkonini beradi.

Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, oliv pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan umuminsoniy qadriyatlar va ularning shaxs tarbiyasida tutgan o‘rni bo‘yicha kasbiy kompetensiyasini o‘zlashtirilishi taqozo etiladi. Bu hol hozirgi jamiyatimizning ehtiyojlaridan biridir. Misol uchun, mamlakatimizda ko‘p dinlikka amal qilinadi. Bu hodisa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliylik, umuminsoniylik va yakdillikning tarkib topishiga mone’lik qilmasligi kerak. Chunki diniy e’tiqod o‘quvchida ma’rifatlilikni kuchaytirsa, umuminsoniy qadriyatlar esa ularning insoniylik sifatlarini tarkib toptiradi. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ozod va erkin ruhda tarbiyalanib, bag‘rikenglik va tinchliksevarlik fazilatlari bilan qurollanib ularning baxt va farovonlikni tushunishi boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning asosini tashkil etadi. Ayni paytda, har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisi o‘zi mansub bo‘lgan millat va elatning qadriyatlarini o‘zlashtirishi bilan ularda umuminsoniylik tuyg‘ulari tarkib topadi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarni umuminsoniy qadriyatlarning asosiy ko‘rinishlariga tayanish muhim masalalardan hisoblanadi. Bunda quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- 1) tarbiyaviy tadbirlar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ozod va erkin yashash ruhida tarbiyalash;
- 2) tarbiyaviy tadbirlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bag‘rikenglik va tinchliksevarlik ko‘nikmalarini tarkib toptirishni mo‘ljallah;
- 3) tarbiyaviy tadbirlarga asosan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini baxtli va farovon yashash asoslari bilan tanishtirish;
- 4) tarbiyaviy tadbirlarga tayangan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘zga xalqlarni hurmat qilish, qadriyatlarini asrab-avaylash va o‘rganish ruhida voyaga yetkazish.

Bunday yondashuv boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan

tarbiyaviy ishlarning o‘ziga xos yo‘nalishlarini belgilab olishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli bu masalalar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan oliy pedagogik ta’lim jaryonida nazariy va amaliy jihatdan o‘zlashtirilishi taqozo etiladi. Mazkur masalalar oliy pedagogik ta’lim jarayonining ilk bosqichlaridan boshlab o‘zlashtirilishi va o‘zlashtirganlarini talabalarning haftalik amaliyoti davrida tajriba-sinovdan o‘tkazilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun har bir oliy pedagogik ta’lim muassasasining o‘ziga xos imkoniyatlari mavjudligini eslatib o‘tish joiz.

Umuminsoniy qadriyatlar asosida shaxsni tarbiyalash xususiyatlari. Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy tadbirlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini shaxs sifatida voyaga yetkazishga asoslanadi. Shaxs bu – o‘z davrining ehtiyojlariga mos bilimlarga, ko‘nikmalarga, malakalarga va kasbiy kompetensiyalarga ega kishidir. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini shaxs sifatida voyaga yetkazishda umuminsoniy qadriyatlarga asoslanish quyidagi *xususiyatlarga* ega bo‘ladi:

1) tarbiyaviy tadbirlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tarbiya olishning tajribaviy asoslariga tayanishi va unda dunyo xalqlari tajribasidan o‘tgan qadriyatlarga asoslanishi;

2) tarbiyaviy tadbir asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini dunyo xalqlari ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan tengdoshlari hayoti bilan tanishtirib borish;

3) tarbiyaviy tadbirlar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini “Ko‘plikda-birlik” g‘oyasi, ya’ni ko‘pchilik shaxslarning birgalikda va hamkorlikda yashashi g‘oyasi asosida tarbiyalash;

4) tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligiga erishishda umuminsoniy qadriyatlarning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlar uchun umuminsoniy qadriyatlar muhim g‘oyaviy yo‘nalishlarni beradi va amaliy xususiyatlarga ega bo‘ladi. Boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning asosiy vazifasi o‘quvchilarni munosib tarbiyalashdan iboratdir. Bunda umuminsoniy qadriyatlarga asoslanish kutilgan samarani beradi. Misol uchun, umuminsoniy qadriyatlar asosida o‘quvchilarni tarbiyalashning milliy tajribamiz va Yevropa xalqlari tajribalarini uyg‘un qabul qilish kutilgan samarani beradi. Bu boradagi bizning milliy tajribamizda millati va elatidan qat’iy nazar har bir boshlang‘ich sinf o‘uchisida milliylik

ruhini tarkib toptirish mavjud bo'lsa, Yevropa xalqlari ta'lim tizimida ana shunday milliy ruhga ega o'quvchilarni umumbashariylik ruhida tarbiyalash tajribasi mavjud. Shu sababli boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar jarayonida o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ana shu ikki tajribaning uyg'unligiga asoslanishini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich ta'lim tarbiyaviy ishlarida o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda har bir o'quvchini dunyodagi tengdoshlari hayoti bilan tanishtirib borish muhim o'rinn tutadi. Bunda mazkur masalalar bo'yicha ma'lumot beruvchi sahna ko'rinishlari, badiiy chiqishlar va tadbirlar shakllaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim tarbiyaviy ishlarida o'quvchilarni "Ko'plikda-birlik" umuminsoniy qadriyati, ya'ni millati va elatidan qat'iy nazar bir jamiyatda yashayotgan odamlarning birligi muhimdir, g'oyasini singdirib borish katta ahamiyatga ega. Bu hol ko'p millatli va elatli bo'lgan jamiyatimiz uchun muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligini eslatib o'tish joiz. Boshlang'ich ta'lim tarbiyaviy ishlarida umuminsoniy qadriyatlarning bunday imkoniyatlaridan oqilona foydalanish bilan o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi ruhida tarbiyalashga erishiladi.

Boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning umuminsoniy omillari ana shunday xususiyatlarga egaligi bilan muhim ahamiyatga ega. Mazkur masalalar oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" o'quv fani vositasida chuqur o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va amalga oshirishning umuminsoniy omillari g'oyatda amaliy yondashuvlar, imkoniyatlar va yo'nalishlar berishini unutmaslik lozim. Mazkur masalada boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirilishi tavsiya etiladi. Bunda auditoriyada o'quv fanlari vositasida o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyot davrida (malakaviy amaliyotda) tajribalardan o'tkazib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Umuminsoniy qadriyatlar va tarbiyaviy ishlarda ularning o‘rni masalalarini o‘rganing.
2. Umuminsoniy qadriyatlarning asosiy ko‘rinishlarini konspekt qiling.
3. Umuminsoniy qadriyatlar asosida shaxsni tarbiyalash xususiyatlarini o‘zlashtiring.

4-MAVZU: TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Reja:

1. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning ilmiy asoslari.
2. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga doir nazariy yondashuvlar.
3. Tarbiyaviy ishlar metodikasida individual yondashuvlarning o‘rni.

Tayanch tushunchalar: tarbiya, tadbir, nazariy, asoslar, tashkilot-chilik, ilmiylik, yondashuv, bilim, ko‘nikma, malaka.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning ilmiy asoslari. Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarning amaliyoti ularning *ilmiy* asoslariga tayanganligi bilan belgilanadi. Ko‘p hollarda o‘qituvchilar tomonidan ilmiylik masalasida ikkilanishlar bo‘ladi. Aslida muayyan jarayonning ilmiyligi uning asosligini belgilovchi poydevordan iborat.¹ Shu sababli boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish jarayonida ilmiy asoslarga tayanish kutilgan samarani beradi. Buning uchun quyidagilarga *amal qilish* taqozo etiladi:

- 1) tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda ilmiy tadqiqotlar xulosalariga asoslanish va tarbiya masalalari bo‘yicha amalga oshirilgan fundamental ishlarning xulosalariga tayanish;
- 2) tarbiyaviy tadbirlarni milliy tajribalar asosida kuchaytirish va bunda keyingi yillarda sinovdan o‘tgan pedagogik tajribalarga asoslanish;

¹ Qarang. Бордовская Н., Реан А. Педагогика. Санкт-Петербург. 2001 – С. 62.

3) tarbiyaviy tadbirlarda xorij tajribalarini o'rganib borish asosida innovatsion yondashuvlarni tadbiq etish;

4) tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish bo'yicha to'plangan tajribalarni ommalashtirib borish.

Bunday yondashuv boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning nazariy asosligini belgilaydi. Boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning bunday ilmiy asoslarga ega bo'lishi muhim amaliy ahamiyatga ega. Shu sababli tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda pedagogik ilmiy tadqiqotlar xulosasiga asoslanish muhimdir. Misol uchun, pedagogik ilmiy tadqiqotlarda boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy tadbirlarning qisqa, tu-shunarli va taassurot qoldiradigan darajada bo'lishi tavsiya etiladi. Shuningdek, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish jarayonida pedagogik tajribalarga asoslanish ham taqozo etiladi. Misol uchun, bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarimizda tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyat yuritmoqda va ularning tarbiyaviy ishlar bo'yicha tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan tarbiyaviy tadbirlarning tushuntirish, anglatish va yo'naltirish xususiyatlari ega bo'lishi kutilgan samarani beradi. Bunday pedagogik tajribalardan foydalanishda shu tajriba egalarining ishtirokini ta'minlash muhimdir. Bundan tashqari, boshlang'ich ta'lim tarbiyaviy ishlarda xorij tajribalidan foydalanish ham bu jarayonning ilmiy asosga ega bo'lishini ta'minlaydi. Misol uchun, Yevropa mamlakatlari boshlang'ich ta'lim bosqichida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarda ko'proq o'quvchilarining faolligiga tayanish tajribasi mavjud. Shu ma'noda amalga oshiriladigan tadbirlarni tayyorlash va o'tkazishda bevosita o'quvchilarining tashabbuslari hamda ishtirokiga ustuvor darajada tayanish kutilgan samarani beradi. Boshlang'ich ta'lim tarbiyaviy ishlari jarayonida tarkib topgan tajribalarni ommalashtirib borish ham bu boradagi ilmiy asoslardan biridir. Unga ko'ra, muayyan tarbiyaviy ishlarning tajribalari o'zga umumiy o'rta ta'lim muassasalariga taqdim etib borilishi va u asosda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yagonalashgan tarbiya jarayonini amalga oshirishga erishish imkonini beradi. Bularning barchasi boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlar jarayonining ilmiy asoslariga amal qilish negizlarini tashkil etadi.

Ayni paytda, har bir tadbirning amaliy samaradorligiga erishish

uchun tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshiruvchi o‘qituvchilar va jamoaning tayanadigan o‘z nazariy asoslari bo‘lishi kerak. Misol uchun, poytaxt Toshkent shahri maktablarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarda pedagogik nazariy asoslarga to‘liq tayanish imkoniyati mavjud, biroq joylarda bunday imkoniyatlar cheklangan. Shu sababli tarbiyaviy ishlarning ilmiy asoslarini tanlashda mavjud imkoniyatlardan kelib chiqish tavsiya etiladi.

Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich ta’lim oluvchilar uchun tashkil etiladigan tarbiyaviy ishlar mamlakatimiz sharoitida ikki xususiyatga ega:

1) shaharlarda joylashgan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarbiyaviy tadbirlar kuchaytirilgan tarzda olib borilishi taqozo etiladi, chunki shahar muhiti boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyasiga salbiy ta’sir etishi ma’lum;

2) tumanlarda joylashgan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarbiyaviy tadbirlar hozirgi talab darajasida olib borilishi kutilgan samarani bermoqda, negaki tumanlar hududlaridagi muhit bevosita oila va mahalla bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyasi muntazam jamoatchilik nazoratida bo‘lishi ma’lum.

Mazkur xususiyatlardan kelib chiqib, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirlar ilmiy asoslarga tayanishi bilan kutilgan samarani beradi. Shu sababli mazkur masalada tajribali o‘qituvchilar va mutaxassislarning yordamiga tayanish tavsiya etiladi.

Jamiyatimiz rivojining hozirgi bosqichida qishloq va shahar hududlarining o‘rtasidagi tafovutlar yo‘qolib bormoqda. Shu sababli shaharlarda joylashgan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida tarbiyaviy ishlarni chuqurlashtirilgan tarzda tashkil etish va qishloq hududlarida joylashgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini boshlang‘ich ta’lim bosqichlarida mavjud muhitni rivojlantirishga asoslangan tarzda o‘tkazish kutilgan samarani beradi. Shahar va qishloq hududlarida joylashgan umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloq, dunyoqarash va munosabatlarda yagona ekanligini hisobga olgan holda tarbiyaviy ishlar tashkil etiladi. Shuningdek, bu borada quyidagilarni hisobga olish ham taqozo etiladi:

1) qishloq hududlaridagi birlashuvchanlik va bag‘rikenglik muhitini rivojlantirish asosida o‘quvchilarni tarbiyalash;

2) shahar hududlaridagi yangilikka intilish va texnologik imkoniyatlardan foydalanish muhitiga tayangan holda o‘quvchilarni tarbiyalash;

3) qishloq va shahar muhitining bu o‘ziga xos ikki imkoniyatlarini tarbiyaviy tadbirlarda uyg‘unlashtirishga erishish;

4) buning natijasida tarbiyaviy ishlarda “mintaqaviylikdan – umumiylıkka” tamoyiliga asoslanish bilan tarbiyaviy ishlarning umummilliy samaradorligiga erishish.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar mamlakatimizda mavjud mikro (kichik), mezo (o‘rtalik) va makro (katta) muhitlarni hisobga olishni taqozo etadi. Bunda mikro muhit oilaning tarbiyadagi o‘rnini va ta’siriga, mezo muhit mahallaning tarbiyadagi ko‘magiga, makro muhit esa hududlarning tarbiya borasidagi harakatlariga asoslanishini eslatib o‘tish joiz. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarda bu muhitlarning imkoniyatlari, xususiyatlari va amaliy jihatlaridan foydalanish taqozo etiladi. Aks holda, boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar umumiyligini xususiyatlariga ega bo‘lib qoladi. Eslatib o‘tish joizki, muhit omiliga tayangan tarbiyaviy ishlarni birlashtirib turuvchi tayanch – milliy g‘oya hisoblanadi. Shu sababli mikro, mezo va makro muhitlarning imkoniyatlaridan oqilona foydalangan holda boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bu jarayonning ilmiy asosli bo‘lishini ta’minlaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda o‘ziga xos bir jarayon amalga oshirilmoqda. Unga ko‘ra, umumiy o‘rtalik maktablari hududlardagi oliy ta’lim muassasalariga biriktirilmoqda. Bunday imkoniyatdan foydalangan holda boshlang‘ich ta’limda tashkil etiladigan va amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar oliy ta’lim muassasasi vakili bilan birgalikda olib borilishi bunday tadbirlarning ilmiy asoslarini kuchaytiradi.

Muayyan tadbirlarning ilmiy asosga ega bo‘lishi tarbiya kabi murakkab masalada to‘g‘ri yo‘nalishlarni belgilash, vazifalarni amalga oshirish va istiqbolli mo‘ljallash uchun tayanch bo‘ladi. Misol uchun, ilmiy asoslarga ega bo‘lmagan muayyan tarbiyaviy tadbir o‘quvchi shaxsida ikkilanish, o‘ziga ishonchni yo‘qotish, o‘qitishga bo‘lgan qiziqishning kamayishi kabi xususiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, biror bayram tadbirida ishtirot etmagan o‘quvchi tarbiyaviy

tadbirning yakunida, albatta, sahnaga taklif etilishi kerak. Bu bilan ishtirok etmagan o‘quvchining ruhiyati, ongi va xatti-harakatida muayyan ijobjiy o‘zgarishlarga erishiladi. Shu sababli tarbiyaviy tadbirlarda ilmiylikka tayanish asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga doir nazariy yondashuvlar. Boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarning *nazariy* yondashuvlarga asoslanishi ham pedagogik tajribadan ma’lum. Nazariy yondashuv – bu muayyan jarayonning asoslarga va tajribadan o‘tgan omillarga tayanishidir. Nazariy yondashuv tarbiyaviy tadbirlarning uzviy qismi hisoblanadi va bunda har bir tadbirning asosli ekanligi birlamchi hisoblanadi. Misol uchun, ko‘p hollarda bayramlarni nishonlash vositasida tarbiyaviy tadbirlar o‘tkaziladi va ular asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga muayyan ko‘nikmalar berish nazarda tutiladi. Masalan, “Mustaqillik kuni” bayrami munosabati bilan o‘tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarda o‘quvchilarda vatanparvarlik, erkinlik, ozodlik kabi ko‘nikmalarни shakllantirishga yo‘naltirilgan nazariy asoslar mo‘ljallanadi. Shu sababli ko‘pchilik, hatto tajribali pedagog mutaxassislar ham bayramlar vositasida o‘tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarni samarali hisoblashadi. Bundan kelib chiqib ta’kidlash lozimki, har bir tarbiyaviy tadbir o‘zining nazariy asoslariga ega bo‘ladi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning nazariy asoslarida quyidagilar muhim o‘rin tutadi:

- 1) tarbiyaviy tadbirlarning individual xarakterda ekanligi va bunda har bir tashkilotchida o‘ziga xos yondashuvning mavjudligi;
- 2) tarbiyaviy tadbirlarda umumiy jamoaviylikning mavjud bo‘lishi va bunda mакtab jamoasining hamkorligi namoyon bo‘lishi;
- 3) keyingi paytlarda Chirchiq davlat pedagogika universitetida tarbiyaviy tadbirlarning klaster usuliga asoslanish tajribasi tarkib topdi, shu jihatdan boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarning nazariy asoslaridan biri sifatida mutaxassis, o‘qituvchilar va mакtab jamoasi hamkorligiga assoslangan klasterga tayanish kutilgan samarani berishini eslatib o‘tish joiz;
- 4) tarbiyaviy tadbirlarning nazariy asoslaridan yana biri tadbirlar tashkilotchilarining avvaldan rejalahtirilgan va ssenariylashtirilgan holda faoliyat yuritishidir, aynan reja va ssenariy tarbiyaviy tadbirlarning nazariy qatlamini belgilaydi.

Boshlang‘ich ta’lim tarbiyaviy ishlarida nazariy yondashuvlarga

asoslanish bu jarayonning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Shu jihatdan tarbiyaviy tadbirlarning individual xarakterda bo‘lishi va unda har bir taskilotchining yondashuvlari mavjud bo‘lishi muhim nazariy omillardan biridir. Bu bilan tarbiyaviy tadbirlarning xilma-xilligiga erishiladi. Boshlang‘ich ta’lim tarbiyaviy ishlarda umumiy jamoaviylikning mavjudligi va maktab jamoasining hamkorligi yana bir nazariy asoslardan hisoblanadi. Negaki, umumiy jamoaviylik har bir o‘quvchining tarbiyaviy ishlarda faol ishtirok etishini hamda maktab jamoasining hamkorligi esa tarbiyaviy ishlarning maqsadli amalga oshirishi uchun asos hisoblanadi. Shuningdek, boshlang‘ich ta’lim tarbiyaviy ishlarning nazariy asoslardan biri sifatida klaster usuli idrok etiladi. Chirchiq davlat pedagogika universitetida ta’sis etilgan pedagogik ta’lim innovatsion klaster usulida ta’lim oluvchilar, ta’lim beruvchilar va ta’limdan manfaatdorlarning hamkorligi muhim o‘rin tutadi. Bu hol tarbiyaviy ishlarni ana shunday hamkorlikda amalga oshirish bilan muhim nazariy tayanchga tayanishni keltirib chiqaradi. Negaki klaster usulida tarbiya ishlarning manfaatdorlik va hamkorlik tamoyiliga qat’iy amal qilishi birlamchi hisoblanadi. Bundan tashqari, tarbiyaviy tadbirlarning aniq reja va ssenariylarga asoslanishi ularning nazariy asoslardan birini tashkil etadi. Shu sababli bunday tadbirlar jarayonida mazkur omillardan oqilona foydalanish kutilgan samarani beradi.

Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning nazariy asoslarga ega bo‘lishi pedagogik talabalardan biri hisoblanadi. Nazariy asoslarga ega bo‘lmagan tarbiyaviy tadbirlar kutilgan samarani bermasligini ta’kidlab o‘tish joiz.

E’tibor beriladigan bo‘lsa, tarbiyaviy ishlarning bunday nazariy yondashuvlari amalga oshiradigan har bir tadbirning yo‘nalishlarini belgilab beradi. Shu sababli mazkur masalalar oliy pedagogik ta’lim jarayonida chuqr o‘zlashtirilishi tavsiya etiladi.

Oliy pedagogik ta’lim muassasalarida o‘qitilayotgan “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o‘quv fanining mazmuni, metodlari va texnologiyalari tarbiyaviy tadbirlarning ilmiy va nazariy asoslari bo‘yicha muntazam takomillashtirilib borilishi taqozo etiladi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, oliy pedagogik ta’lim jarayonida o‘qitiladigan pedagogik va mutaxassislik o‘quv fanlarining mavzulari, mazmuni va o‘quv

materiallari har bir o‘quv yilining boshida takomillashtirilishi hamda yangilanishi kutilgan samarani beradi. Chunki innovatsion rivojlanish jarayonida ehtiyojlar, zaruriyatlar va talablar ko‘payib borishi ma’lum. Shu sababli muayyan o‘quv fanini takomillashtirish masalasi tabiiy qabul qilinishi kerak.

Tarbiyaviy ishlar metodikasida individual yondashuvlarning o‘rni. Kuzatishlar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda nisbatan umumiylig ko‘zga tashlanadi. Unga ko‘ra, tarbiyaviy tadbirlarning rejasi, ssenariysi va amalga oshirish jarayonida bir xillik kuzatiladi. Masalan, bayram munosabati bilan amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarda bu hol yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu sababli har bir tarbiyaviy tadbirning *individual yondashuvlarga* asoslanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Individual yondashuv bu – tarbiyaviy tadbirlarning rang-barangligini va kutilmagan samaradorligini ta’milovchi o‘ziga xos xususiyat bo‘lib, unda tadbir tashkilotchilarining metodikasi o‘z aksini topadi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan har bir tarbiyaviy tadbirlar individual yondashuvlarga asoslanishi taqozo etiladi. Bu masalada quyidagilarga amal qilish kutilgan samarani beradi:

- 1) tarbiyaviy tadbirlarni boshlang‘ich ta’limda amalga oshirishda ta’lim muassasasining bor imkoniyatlardan oqilona foydalanish;
- 2) tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda maktab jamoasining tashkilotchiligidan muntazam foydalanish;
- 3) tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda hududdagi tajribali o‘qituvchilar va murabbiylarning tajribalaridan foydalanish;
- 4) tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha to‘plangan individual tajribalarni muntazam ommalashtirib borish.

Bunday yondashuv tarbiyaviy ishlarda individual metodlarning amaliy ahamiyatini belgilaydi. Tarbiyaviy tadbirlarda individual metodlarga tayanish mazkur tadbirlarning bir xilligi va umumiyligiga barham beradi. Shu sababli tajribali o‘qituvchilar va murabbiylar har bir tadbirning o‘ziga xos tarzda tayyorlanishi va o‘tkazilishini xohlaydi. Shuni ta’kidlash lozimki, tarbiyaviy ishlarda individual metodlarga asoslanmaslik bunday tadbirlarning zerikarli, umumiyligi va shunchaki tadbir sifatidagi xususiyatlarni keltirib chiqaradi.

Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar metodikasida individual yondashuvlarning muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta’kidlash

lozim. Chunki tarbiyaviy tadbirlarni boshlang‘ich ta’limda amalga oshirishda har bir ta’lim muassasasining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi. Bugungi kunda umumiy o‘rtta ta’lim mакtablarimizning sharoitlari yagona bo‘lsa-da, ayni paytda, muayyan makatblarda tajribalarning ustuvorligi mavjud. Shu sababli tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda maktabning shart-sharoitlaridan unumli va oqilona foydalanish bilan ularning samaradorligiga erishish mumkin. Boshlang‘ich ta’lim tarbiyaviy ishlarda maktab jamoasining tashkilotchiligi bu boradagi individual yondashuvni kuchaytiradi. Negaki, har bir umumiy o‘rtta ta’lim maktabida maktab jamoasining o‘ziga xos tashkilotchilik tajribalari mavjud va bunday tajribalar tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazishda individual tayanch vazifasini o‘taydi. Bundan tashqari, hududlardagi umumiy o‘rtta ta’lim mакtablarida o‘ziga xos tajribagi ega o‘qituvchilar va murabbiylar faoliyat yuritmoqda. Ularning tajribalaridan foydalanish tarbiyaviy ishlarning individualligini kuchaytiradi va kutilgan samaraga erishish imkoniyatlarini beradi. Shuningdek, boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda mavjud va amal qilinayotgan individual tajribalarni ommalashtirib borish taqozo etiladi.

Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning individual xususiyatlarga ega bo‘lishi ularning originalligi va o‘ziga xosligini ta’minkaydi. Ayni paytda, individual xususiyatga egalik tarbiyaviy tadbirlarning hududlar va Respublika kesimida rang-barang va xilma-xil bo‘lishiga asos bo‘ladi. Chunki rang-barang va xilma-xil xususiyatlarga ega bo‘lmagan tarbiyaviy tadbirlar kutilgan samarani bermaydi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarda individuallik masalasi bu boradagi eng muhim tayanchlardan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning nazariy asosları ilmiylikka asoslanishi, nazariy yondashuvlarga tayanishi va individual yondashuvlarning ustuvorligi masalalaridan iborat. Mazkur masala oliv pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan nazariy va amaliy jihatdan chuqurlashtirilishi taqozo etiladi.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning ilmiy asoslarini o‘rganining.
2. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga doir nazariy yondashuvlarni

o‘zlashtiring.

3. Tarbiyaviy ishlar metodikasida individual yondashuvlarning o‘rni masalalarini konspekt qiling.

Modul bo‘yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezzgulik va buniyodkorlik – milliy g‘oyamizning asosiy poydevoridir. – T., 2021.
2. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – T., 2010.
3. Jabborova O.M., Umarova Z.A. Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi. – T., 2022.
4. Usmonov N.U. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini milliy g‘oya targ‘ibotiga tayyorlash texnologiyasi. –T., 2018.

Eslatib o‘tish joizki, mazkur o‘quv qo‘llanmaning 1-modulida Siz boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar metodikasining nazariy masalalarini o‘zlashtirdingiz. Har bir mavzu bo‘yicha mustaqil ta’lim vositasida bilimingiz, ko‘nikmangiz va malakangizni chuqurlashtirish tavsiya etiladi.

2-MODUL. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TARBIYAVIY ISHLAR METODOLOGIYASI

5-MAVZU: TARBIYAVIY ISHLAR METODLARI

Reja:

1. Tarbiyaviy ishlarning an'anaviy metodlari.
2. Tarbiyaviy ishlarning noan'anaviy metodlari.
3. Tarbiyaviy ishlarda individual metodlarning ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: tarbiya, metodologiya, an'anaviylik, noan'anaviylik, metodlar, individuallik, bilim, ko'nikma, malaka.

Tarbiyaviy ishlarning an'anaviy metodlari. Boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar metodologiyasi bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi muhim masalalardan biridir. Chunki *metodologiya* bu – muayyan pedagogik jarayonning yo‘l-yo‘riqlari, yo‘nalishlari va samaradorlikka erishish asoslarining majmuidir.¹ Shu jihatdan tarbiyaviy ishlar metodologiyasini bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘zlashtirishi tavsiya etiladi.

Pedagogik olimlar tomonidan tarbiya ishi metodlari izchil tadqiq etib kelinmoqda va bu borada aniq tavsiyalarni berish ishlari amalga oshirilganligini qayd etish joiz. Shu jihatdan “Tarbiya metodlari insonga nafaqat ta’sir ko‘rsatuvchi, balki uni hamkorlikka yo‘naltiruvchi vosita ekanligi” to‘g‘risida yakdil fikrga kelungan.² Shu sababli tarbiyaviy ishlar metodlari quyidagi *mazmunga* ega bo‘lishini ta’kidlash joiz:

a) murabbiyning bevosita tarbiyalanuvchiga ta’siri (ishonch, nasihat, talab, buyruq, tahdid, jazolash, rag‘batlantirish, namuna, ibrat, iltimos va maslahatlar);

b) tarbiyalanuvchining o‘z munosabatlari, mavqeい, xatta-harakati va xarakterini o‘zgartirishga yo‘naltirilgan maxsus sharoitlar, vaziyatlar va holatlar ko‘lami;

¹ Qarang: Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – Toshkent, 2009.

² Бордовская Н., Реан А. Педагогика. – Санкт-Петербург, 2001. – С 41.

v) tarbiyalanuvchi jamoaning (o‘quvchilar, talabalar va h.k.) o‘zgalardan ibrat olish jarayoni (ota-onadan, olimdan, rassomdan, davlat arbobidan, san’atkorlardan va h.k.);

g) tarbiya oluvchilarga axborot-kommunikatsion vositalar orqali ta’sir ko‘rsatish (televidenie, matbuot vositalari, Internet, radio va h.k.);

d) murabbiy va tarbiyalanuvchining o‘zaro hamkorligi, muloqoti va h.k.

E’tibor berilsa, tarbiya metodlarining bunday keng mazmunga ega bo‘lishi ularni *tanlashda* mahorat bilan yondashishni talab etadi. Shu sababli tarbiya ishlarida metodlarni tanlaganda ularni guruhlarga bo‘lib foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Jumladan, e’tibor bering:

G.I. Shukina yondashuvi bo‘yicha metodlarning uch guruhi:

- tarbiyalanuvchilarda ijobiy tajribalar, muloqot va faoliyatni tarkib toptiruvchi metodlar;

- tarbiyalanuvchilarning ongi va xatti-harakati uyg‘unligini shakllantiruvchi metodlar;

- rag‘batlantirish va jazolash ko‘lamini kengaytiruvchi metodlar.

Tarbiya ishlarida metodlarning bu guruhlaridan foydalanish uchun ko‘nikmaga ega bo‘lish lozim. Misol uchun, tarbiyaviy ishlarda rag‘batlantirish va jazolash metodlaridan foydalanishni bilish bu boradagi faoliyatning negizlaridan biri ekanligini eslatib o‘tish joiz.

P.I. Pidkasisti yondashuvi bo‘yicha metodlarning uch guruhi:

- tarbiyalanuvchining dunyoqarashini shakllantiruvchi va uning ma’lumot almashinuvini amalga oshirish ko‘nikmasini shakllantiruvchi metodlar;

- tarbiyalanuvchining faoliyatini tartibga solish va uni yo‘naltiruvchi metodlar;

- tarbiyalanuvchilarga yordam beruvchi va o‘z xatti-harakatlarini baholashga ko‘maklashuvchi metodlar.

Tarbiya ishlarining bu guruh metodlaridan foydalanish ko‘p hollarda individual tarzda amalga oshiriladi. Ya’ni, bir yoki uch kishidan ortiq bo‘limgan talabalar bilan tarbiyaviy ishlar jarayonida ushbu guruh metodlaridan foydalanish kutilgan samaranani beradi.

Ayni paytda, tarbiya metodlari bir necha o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’kidlab o‘tish joiz. Shu jihatdan, misol uchun tarbiya metodlariga quyidagi pedagogik talablar qo‘yiladi:

a) metodlarning shaxs xatti-harakati va tajribalarini namoyon qilishi;

- b) metodlarning aniq vazifalarga ega bo‘lishi;
- v) metodlarning yo‘naltiruvchanlik va samaradorlikni ta’minlash asoslariga ega bo‘lishi;
- g) tarbiyalanuvchining o‘zini baholashga yordam berish xususiyatlariga ega bo‘lishi.

Bularning barchasi tarbiyaviy ishlar jarayonida metodlarni to‘g‘ri tanlash va ulardan oqilona foydalanish masalaksiga jiddiy e’tibor berishni taqozo etadi.

Tarbiyaviy ishlarning *an’anaviy metodlari* mazkur tadbirlarning amaliy asoslariga tayanch hisoblanadi. Bunday metodlarning asosiyları quyidagilardan iborat:

- 1) tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish metodi, bunda tadbirlar rejalashtiriladi, loyihalashtiriladi, o‘tkazish vaqtı belgilanadi va uning e’loni ma’lum qilinadi;
- 2) tarbiyaviy tadbirlarning ommaviy metodi, bunda tadbirlar maktab jamoasi, taklif etiladigan jamoatchilik vakillari va mutaxassislar ishtirokida amalga oshiriladi, shu jihatdan uning ommaviyligi ta’minlanadi;
- 3) tarbiyaviy tadbirlarning monitoring metodi, bunda tadbirlar muntazam ravishda bayonnomha va hisobot asosida rasmiylashtiriladi, uning amaliy natijalari jamoatchilik tomonidan baholanadi.

Mazkur an’anaviy metodlarning ma’no-mazmunini chuqur o‘zlashtirish natijasida ularni tarbiyaviy ishlar jarayonida qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘linadi. Shu jihatdan tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish metodini o‘zlashtirish, tarbiyaviy tadbirlarning ommaviy metodlarini amalda qo‘llash va tarbiyaviy tadbirlarning monitoring metodlaridan oqilona foydalanishni bilish kerak. Chunki tarbiyaviy ishlarning an’anaviy metodlarida aynan tashkil etish, ommaviylik va monitoring metodlari muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bularning barchasi oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan kutilgan darajada o‘zlashtirilishi kerak.

Tarbiyaviy ishlarning an’anaviy metodlari ommaviyligi, qulayligi va osonligi bilan o‘qituvchilarga ma’qul tushishini ta’kidlab o‘tish lozim. Ayni paytda, tarbiyaviy ishlarning an’anaviy metodlariga muntazam asoslanish tadbirlarning bir xilligiga, ularning rang-barang bo‘lmashligiga va kutilgan samaraning past bo‘lishiga olib kelishini eslatib o‘tish joiz. Shu sababli tarbiyaviy ishlarning an’anaviy metodlariga asoslanish

muddatli va ehtiyoj paydo bo‘lganida kutilgan samarani beradi.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, yangi faoliyat boshlagan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazishda ko‘p hollarda an’anaviy metodlarga tayanadi. Shu sababli ta’kidlash lozimki, faoliyatning dastlabki bosqichida an’anaviy metodlar kutilgan samarani beradi va muayyan tajriba to‘plangach, rang-barang metodlarga asoslanish tavsiya etiladi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining xususiyatlari shuni taqozo etadi. Bu toifa o‘quvchilar har lahzada yangilik kutishini unutib bo‘lmaydi.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida tarbiyaviy ishlarning an’anaviy metodlari pedagogik turkumdagi o‘quv fanlari, “Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” va “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o‘quv fanlari asosida o‘zlashtiriladi. Misol uchun, pedagogik turkumdagi o‘quv fanlaridan “Pedagogik mahorat” fani vositasida tarbiyaviy ishlarning an’anaviy metodlarini o‘zlashtirish imkoniyatlari mavjudligini ta’kidlab o‘tish lozim.¹ Mazkur masalalar bo‘yicha o‘zlashtirilgan nazariy metodlar talabalarning malaka amaliyoti davrida mustahkamlanishi samarali hisoblanadi. Shu sababli malaka amaliyoti rahbarlari bu kabi masalalarga e’tibor berishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, oliy ta’lim jarayoniga haftalik malakaviy amaliyotlarning kiritilishi bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini amaliy jihatdan shakllantirishda muhim imkoniyatlarni beradi. Shu sababli bu imkoniyatdan oqilona foydalanish tavsiya etiladi.

Ayni paytda, boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishning an’anaviy metodlari va ularni qo‘llash ko‘nikmalarini oliy pedagogik ta’lim jarayonida “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fani vositasida o‘zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki bu fan aynan tarbiyaviy ishlar va tarbiyaviy tadbirlarning mazmuni, maqsadi hamda vazifalari to‘g‘risida aniq kasbiy kompetensiyalar beradi. Bu jarayonda o‘qitiladigan “Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” va “Pedagogik mahorat” fanlari bevosita ta’lim oluvchilarni tarbiyalashning nazariy asoslari, didaktik omillari va amaliyoti bilan tanishtiradi. Shu jihatdan “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fani bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini aynan tarbiyaviy ishlarni amalga

¹ Jumanova F. va boshq. Umumiy pedagogika. – Toshkent, 2020. 273-332 betlar.

oshirish metodlari va texnologiyalari bilan qurollantirishini eslatib o‘tish joiz.

Tarbiyaviy ishlarning noan'anaviy metodlari. COVID-19 pandemiyasi kabi murakkab ijtimoiy sharoitlar barcha sohalar qatorida tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda yangicha yondashuvlar va *noan'anaviy metodlarni* ishlab chiqish, ularga amal qilish zaruriyatini kun tartibiga qo‘ydi. Shu jihatdan, tarbiyaviy ishlarni boshlang‘ich ta’limda amalga oshirishda har qanday sharoit va muhitga mos tushuvchi noan'anaviy metodlarni belgilash hamda oliv pedagogik ta’lim jarayonida ularni o‘zlashtirish taqozo etiladi. Mazkur masalada noan'anaviy metodlarning asosiyлари sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1) boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishning masofaviy ta’lim metodi. Bu metodga ko‘ra, kompyuter o‘quv texnik vositasiga tayangan holda masofadan turib tarbiyaviy tadbirlar o‘tkaziladi va bu metodning qulayligi shundaki, tadbirlar jarayoni turli multimediya mahsulotlari bilan ta’milanishi mumkin, shu jihatdan, mazkur metod boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qiziqish uyg‘otishini ta’kidlash lozim. Ayni paytda, mazkur metod vositasida bir maktabdan ikkinchi maktabga tarbiyaviy tadbirlarni ssenariysi va uning tasvirlarini uzatish imkoniyatlari mavjud;

2) boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishning elektron-modulli metodi.¹ Bu metodga ko‘ra, tarbiyaviy tadbirlar kompyuter texnik vositasi asosida tayyorlanadi va unda tadbirlarning ssenariysi batafsil yoritiladi. Mazkur metodning qulayligi shundaki, tarbiyaviy tadbirlarning rang-barangligini ta’minlaydi va ssenariylarda o‘ziga xoslik xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Chunki bir tarbiyaviy tadbirning ssenariysi tuzilayotganida undan avvalgi ssenariyni takrorlamaslik imkoniyatiga ega bo‘linadi. Bundan tashqari, bu metodda tarbiyaviy tadbirlar uchun yangi axborotlar, ma’lumotlar va ssenariylar olish imkoniyatlari mavjud bo‘lib, ularni elektron tarzda rasmiylashtirib borish imkoniyatiga ega bo‘linadi. Shu jihatdan tarbiyaviy tadbirlarning elektron-modulli metodi pedagogik jarayonda raqamlashtirish texnologiyasining asosi hisoblanadi;

¹ Qarang: Mardonov Sh. Pedagogika fanidan o‘qitishning elektron-modulli didaktik ta’motini ishlab chiqish texnologiyasi. – Toshkent, 2021.

3) tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishning onlayn metodi. Bu metodga ko‘ra, onlayn dasturi vositasida tarbiyaviy tadbirlar tay-yorlanadi, amalga oshiriladi va ularning amaliy samaradorligiga erishiladi. Chunki onlayn metodi tasvirlarga boyligi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini qiziqtirishi va o‘zgalar tomonidan ham tadbirlarni kuzatib borish imkoniyatlariga egaligi bilan muhim metodlardan hisoblanadi. Shu sababli umumiy o‘rta ta’lim maktablarining mavjud texnik imkoniyatlaridan foydalangan holda tarbiyaviy tadbirlarda vaqtiga vaqt bilan onlayn metodidan foydalanish amaliy samara berishini eslatib o‘tish joiz;

4) tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishning texnologik metodi. Ushbu metodga ko‘ra, tarbiyaviy tadbirlar mavjud sharoit, muhit va vaqtdan qat’iy nazar o‘quv texnik jihozlarga va axborot-kommunikatsion vositalarga tayangan holda amalga oshiriladi. Misol uchun, televidenie (TV) orqali amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlar ssenariylarining mukammalligi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qiziqishini oshirishi, tadbirlarni keng hududda tarqatish va bevosita o‘quvchilar bilan virtual muloqotga kirishish imkoniyatlariga egaligi bilan amaliy jihatdan muhim o‘rin tutadi. Shu sababli tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishning texnologik metodlari oliy pedagogik ta’lim jarayonida amaliy o‘zlashtirilishi tavsiya etiladi.

Tarbiyaviy ishlarning noan’anaviy metodlarida aynan masofaviy ta’lim, elektron-modulli va onlayn metodlari hozirgi kunda o‘zining samaradorligi bilan e’tiborni tortmoqda. Ayni paytda, bu metodlar tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish vositalarining yangilanib borishiga asos bo‘lmoqda. Misol uchun, pandemiya kabi murakkab sharoitlarga qadar ta’lim oluvchilarining tarbiyasida bevosita an’anaviy metodlarga asoslanish ustuvor hisoblanar edi va bu hol tarbiyalanuvchilarga bo‘lgan ishonchning nisbatan susayishiga olib kelganligi ma’lum. Shu sababli tarbiyaviy ishlarning noan’anaviy metodlari murabbiy va tarbiyalanuvchilarining, avvalo, bir-birlariga bo‘lgan ishonchini orttirdi, shuningdek, tarbiyalanuvchilarining erkinlik asosida o‘z ongi, dunyoqarashi va axloqiy munosabatlarini tartibga solib borish imkoniyatlari yuzaga keldi. Bularning barchasi boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarda noan’anaviy tarbiya metodlariga nisbatan kengroq tayanish samarali ekanligini ko‘rsatadi.

Pedagogik adabiyotlarda metodlarni qo‘llashda usullar va tarbiya

metodlarining vositalari masalalariga asosiy e'tibor berish tavsiya etilgan. Shu jihatdan, metodlarning quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi noan'anaviy metodlarda to'liq o'z aksini topadi:

- tarbiya ramzlaridan foydalanish;
- tarbiya materiallari vositalardan foydalanish;
- eng qulay va maqbul imkoniyatlardan foydalanish;
- tarbiyalanuvchilarining hayoti faoliyatini hisobga olish;
- tarbiyalanuvchilarining guruh va jamoaviy tarkiblariga e'tibor berish;
- tarbiyaning texnik vositalarini qo'llay olish;
- tarbiyada madaniy qadriyatlar (kino, san'at, muzey, asarlar, kitoblar va h.k.)dan oqilona foydalanishni bilish.

E'tibor berilsa, tarbiya ishlarining noan'anaviy metodlaridan foydalanish nihoyatda o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Bu masalalar oliy pedagogik ta'lim jarayonida chuqur o'zlashtirilishi taqozo etiladi. Boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishning noan'anaviy metodlari qiziqarliligi va keng imkoniyatlarga ega ekanligi bilan muhim o'rinn tutadi.

Tarbiyaviy ishlarda individual metodlarning ahamiyati. O'zbek tarbiyaviy ishlar metodikasi tajribasida boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishning o'ziga xos *individual metodlari* mayjud. Unga ko'ra, mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim muktablarida tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish bo'yicha muayyan o'qituvchilar yoki murabbiylarning o'ziga xos metodlari shakllangan. Pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, bunday metodlardan oqilona foydalanish tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligiga erishishda muhim o'rinn tutadi. Shu jihatdan, boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishning individual metodlariga quyidagi xususiyatlar xos bo'lishini eslatib o'tish joiz:

1) boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishning individual metodlariga xususiy xususiyat xos bo'ladi. Unga ko'ra, bunday metoddan muayyan shaxsning yondashuvlari va tajribalari o'z ifodasini topadi;

2) boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishning individual metodlariga umumiy xususiyatlar xos bo'ladi. Bunda muayyan shaxsning metodidan o'zga shaxsning foydalanishi va tarbiyaviy tadbirlarda samaradorlikka erishishi mumkin bo'ladi;

3) boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazishning individual metodlariga pedagogik xususiyatlar xos bo‘ladi. Unda har bir individual metoddan pedagogik qonuniyatlar bo‘rtib turadi va shu sababli ulardan foydalanish foydali hisoblanadi;

4) boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazishning individual metodlariga texnologik xususiyatlar xos bo‘ladi. Unga ko‘ra, muayyan tajribali o‘qituvchi yoki murabbiy o‘qitishning axborot-kommunikatsion vositalaridan foydalangan holda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishning individual metodini yaratgan bo‘ladi va bunday metod qiziqarliligi bilan ahamiyatga ega.

Tarbiyaviy ishlarda individual metodlar tarbiya ishlarini amalga oshiruvchilar tomonidan tajriba asosida tarkib toptirib boriladi. Bunda har bir murabbiyning o‘ziga xos tarbiya metodlariga ega bo‘lishi muhim xususiyat hisoblanadi. Chunki o‘zining individual metodlariga ega bo‘lmasdan biror murabbiyning tarbiya ishlarida samaraga erishishi murakkab kechadi. Bu borada pedagogik manbalarda o‘ziga xos muhim tavsiyalar majmui mavjud. Misol uchun, birinchi o‘zbek professori, jadid pedagogi Abdurauf Fitrat (1884-1938) “Oila” pedagogik risolasida o‘tgan asrning boshlarida jamiyatimizda individual tarbiya metodlarining yo‘qolib borayotganligi va buning natijasida tarbiyaviy ishlarda samarasizlik rivojlanib borayotganligini qat’iy tahlil qilib o‘tgan. U yozadi: “Bola edim, maktabdan qaytishda yo‘lda bir guruh odamlarga duch keldim. Ular o‘rtasida bir kishi zo‘rg‘a o‘zini tutib turar edi. Men uning kimligini so‘radim. Odamlardan biri dediki, “u sharob ichgan, mast bo‘lib jamoa tartibini buzgan va shu sababli uni mirshab olib ketmoqda”. Uyga keldim. Bu voqeani dadamga aytib berdim. Dadam nega o‘qimay, mast-alastlarni tomosha qilib yuribsan, – deb meni rosa koyidi. Ertasi kuni dadam nimalarni o‘rganganligimizni so‘rab qoldi. Men dadamga maktabda o‘rgangan Fuzuliyning “Yor ishqi hijroni haqida”gi g‘azalini o‘qib berdim. Bu gal dadam meni rosa maqtadi... Vaholanki, birinchi voqeada men real voqeilikka duch kelgan edim va dadam uni sharhlab berish bilan meni tarbiyaga yo‘naltirishi kerak edi; ikkinchi voqeada mening yoshimga to‘g‘ri kelmaydigan ish hijroni to‘g‘risidagi g‘azal dadamga yoqganligidan hozirgacha hayronman...”¹. Bu bilan Fitrat o‘tgan asrning boshlaridayoq tarbiyaviy ish-

¹ Qarang: Fitrat A. Oila. – Toshkent, 2001.

larda vositalarni noto‘g‘ri tanlash va buning natijasida samarasizlikka erishish avj olganligini eslatib o‘tgan. Shu sababli tarbiyaviy ishlarning noan’anaviy metodlarini tanlashda, ularning an’anaviy metodlaridan foydalanishda murabbiylarning o‘ziga xos individual metodga ega bo‘lishi taqozo etiladi. Buning uchun tarbiyaviy ishlar samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan metodlarning mazmunida aniq voqeilik, hodisa va vaziyatlardan kelib chiqib yechim taqdim etadigan xususiyat bo‘lishi kerak. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tarbiyaviy ishlarda qo‘llay olishi mumkin bo‘lgan individual metodlarni o‘zlashtirishi taqozo etiladi.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishning individual metodlari tayyor andoza, amaliyotga yo‘naltilganligi va undan ommaviy foydalanish mumkinligi xususiyatlariga ega. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga haftalik malakaviy amaliyot davrida umumiyo‘rta ta’lim mакtablarida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchi yoki murabbiynitng tarbiyaviy tadbirlar bo‘yicha individual metodini o‘rganish tavsiya etiladi.

Shunday qilib, boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarning o‘ziga xos metodlar majmui mayjud. Bunda tarbiyaviy ishlarning an’anaviy, noan’anaviy va individual metodlarini nazariy hamda amaliy jihatdan o‘zlashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Tarbiyaviy ishlarning an’anaviy metodlarini o‘rganing.
2. Tarbiyaviy ishlarning an’anaviy va noan’anaviy metodlarini o‘zlashtiring va ularning asoslarini konspekt qiling.
3. Tarbiyaviy ishlarda individual metodlardan foydalanish ko‘nikmasini egallang.

6-MAVZU: TARBIYAVIY ISHLAR SHAKLLARI

Reja:

1. Tarbiyaviy ishlarning amaliy shakllari.
2. Tarbiyaviy ishlarning ijtimoiy, pedagogik va san'at shakllari.
3. Tarbiyaviy ishlarning tajribaviy shakllari.

Tayanch tushunchalar: tarbiya, shakl, ijtimoiy, pedagogik, san'at, tajribaviy, bilim, ko'nikma, malaka.

Tarbiyaviy ishlarning amaliy shakllari. Boshlang'ich ta'lilda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish uchun eng maqbul shakllarga asoslanish kutilgan samarani beradi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lilda tarbiyaviy ishlarning amaliy shakllari to'g'risida ko'nikmaga ega bo'lish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lilda tarbiyaviy ishlarning amaliy shakllari sifatida quyidagilarni ta'kidlash joiz:

- 1) tadbirlar;
- 2) suhbat;
- 3) ota-onalar majlisi.

Mazkur amaliy shakllarning eng ommaviysi tadbirlar hisoblanadi. Unga ko'ra, bayramlar, tug'ilgan kunlar va boshqa sanalar munosabati bilan o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy faollashtirish, ularda jamoaparvarlik ko'nikmasini shakllantirish va o'quvchilarning layoqatlarini rivojlantirish nazarda tutiladi. Misol uchun, ko'p hollarda bayramlar tadbirlari an'anaviy qabul qilinadi. Aslida esa bunday tadbirlarning tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor berish muhimdir. Chunki bayramlar tadbirlarida xalqning milliy qadriyatları yoritiladi va uning vositasida tarbiyaviy ishlar amalga oshiriladi.

Boshlang'ich ta'lilda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishning muhim amaliy shakllaridan biri suhbatdir. Unga ko'ra, o'qituvchilar yoki sinf rahbarlari tomonidan har bir o'quvchi bilan muayyan muammo bo'yicha suhbatlashish va o'quvchilarning muammolarini hal etish tarbiyaviy tadbirlarning muhim asosi hisoblanadi. Mazkur tarbiyaviy tadbirlarning amaliy shaklidan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki o'quvchilar suhbat jarayonida o'zlarining

muammolarini oshkora bayon qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishning amaliy shakllaridan biri ota-onalar majlisidir. Bugungi kunda ota-onalar majlisi sinf muammolarini muhokama qilish va hal etishga yo‘naltirilganligi bilan diqqatni tortadi. Ayni paytda, boshlang‘ich ta’limda ota-onalar bilan tarbiya ishlari masalasida kundalik muloqotda bo‘lish taqozo etiladi. Shu sababli mazkur masalada “Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda ota-onalarning ishtiroki” o‘quv yillik rejasiga ega bo‘lish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tarbiya ishlaringning amaliy shakllari aniq muammolarni hal qilishga qaratilganligi bilan muhim ahamiyatga ega. Bunday shakllardan foydalanish uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tarbiyaning bir necha tiplariga amal qilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Unga ko‘ra, pedagogik ta’lim-tarbiya ishlarida tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash uchun pedagogik tajribadan o‘tgan bir necha asoslarga tayaniladi. Bunda Pedagogika fanida Tarbiyaviy ishlar metodikasida tarbiyaviy ishlarning Sharq va G‘arb tiplari farqlanishi tavsiya etilgan. Bunday farqlanish asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

A. *Sharq tarbiya tipi* xususiyatlari:

- tarbiyalanuvchilarni jamoaga moslashtirish;
- tarbiyalanuvchilarda oila va jamiyat qadriyatlarini tarkib toptirish;
- tarbiyalanuvchilarning xalqparvarlik, millatparvarlik va vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish;
- tarbiyalanuvchilarning nisbatan erta yoshda (15-16 yoshda) voyaga yetishini ta’minalash;

B. *G‘arb tarbiya tipi* xususiyatlari:

- tarbiyalanuvchilarning aniq aqliy va mustaqil xarakterini shakllantirish;
- tarbiyalanuvchilarning iroda va xohish-istiklarining to‘liq tarkib topishini ta’minalash;
- tarbiyalanuvchilarning individual va ijodiy xususiyatlarini rivojlantirish;
- tarbiyalanuvchilarda shaxsiy manfaatdorlikni tarkib toptirish.

E’tibor berilsa, tarbiya ishlaringning Sharq va G‘arb tiplarida muayyan darajada farqlar mavjud. Bu farqlarning asosini Sharqda shaxsnii jamoaparvar sifatida va G‘arbda esa shaxsnii individual kishi sifatida voyaga yetkazish tashkil etadi. Ayni paytda, mamlakatimizning hozirgi

taraqqiyoti va tarbiya ishlarining bugungi talablari mazkur jarayonga yangi yondashishni taqozo etadi. Shu ma'noda bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich ta'linda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning amaliy shakllaridan foydalanishda tarbiyaning Sharq va G'arb tiplaridan uyg'un foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda Sharq tarbiya ishining amaliy shakllari tarbiyalanuvchilarni insoniylik qoidalari va G'arb tarbiya ishining amaliy shakllari esa texnologik imkoniyatlari bilan qurollantirishini unutib bo'lmaydi.

Albatta, tarbiyaviy ishlarning amaliy shakllaridan oqilona foydalanish tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligiga erishish imkonini beradi.

Tarbiyaviy ishlarning ijtimoiy, pedagogik va san'at shakllari. Boshlang'ich ta'linda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda eng asosiy shakkarga tayanish kutilgan samarani beradi. Bunday shakllarning muhimlari quyidagilardir:

- 1) ijtimoiy;
- 2) pedagogik;
- 3) san'at.

Boshlang'ich ta'linda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishning ijtimoiy shakli bu – ommaviy anjumanlardan iborat. Anjuman – bu o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalar va maktab jamoasi birgalikda ishtirok etadigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlardan biridir. Ko'pchilik "anjuman" deganda ma'ruza eshitishni tushunadi, aslida anjuman ko'pchilikning birgalikda muammolarni muhokama qilish tadbiridir. Shu ma'noda boshlang'ich ta'linda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarda anjuman ijtimoiy shaklidan foydalanish kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich ta'linda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishning muhim shakllaridan biri pedagogik tadbirlardir. Pedagogik tadbir – bu boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan maxsus shug'ullanish, to'garaklar va klublar tashkil etishdan iborat. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, keyingi paytlarda to'garaklar va klublar imkoniyatlaridan tarbiyaviy tadbirlar vositasida foydalanish susaygan. Shu ma'noda umumiy o'rtalama ta'lim mакtablarida ko'p yo'nalishlar bo'yicha to'garaklar va klublarning faoliyat yuritishi tarbiyaviy ishlarning samaradorligini ta'minlaydi. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun "Ijodkorlik" to'garagi vositasida ularning tasviriy san'at, musiqa san'ati va so'z san'ati orqali tarbiyalashning imkoniyatlari cheksiz ekanligini eslatib

o‘tish joiz.

Boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarning muhim shakllaridan biri san’atdir. Bunda kinolardan lavhalar ko‘rsatish, teatrлarga tashrif buyurish va muzeylarga sayohat qilish muhim tarbiyaviy tadbirlardan hisoblanadi. Bugungi kunda eng olis hududlardagi maktablarning o‘quvchilari ham muayyan reja asosida qadimiy shaharlar va muzeylarga sayohat qilish imkoniyatlari mavjud. Bunday sayohatlarning tarbiyaviy ahamiyatini barcha e’tirof etadi. Shu jihatdan, boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarning nisbatan ko‘philagini san’at shaklidan foydalanish tashkil etishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’limda tarbiya ishlarining ijtimoiy, pedagogik va san’at shakllari bu borada qulay imkoniyatlarni berishini eslatib o‘tish joiz. Chunki ijtimoiy shakl tarbiyalanuvchilarni jamiyat hayotiga olib kirsa, pedagogik shakllar ularni jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun asos bo‘ladi va tarbiya ishlarining san’at shakllari esa tarbiyalanuvchilarning ideal maqsad-muddaolariga intilishiga asos bo‘ladi. Misol uchun, keyingi paytlarda tarbiyaviy ishlarning san’at shakllaridan oqilona foydalanish susayganligini ta’kidlab o‘tish lozim. Mustaqillik yillariga qadar tarbiya ishlarida kino, adabiyot, tasviriy san’at va teatr san’ati imkoniyatlaridan keng foydalanilar edi. Masalan, tarbiyaviy tadbirlarda muayyan kinolardan lavhalar qo‘yilib ularni tahlil qilish vositasida o‘quvchilarni yaxshilik va yomonlikni farqlash, ezgulik va yovuzlikni anglash ko‘nikmalari shakllantirilganligi amaliy ahamiyatga egaligi bilan diqqatni tortadi. Shu jihatdan, hozirgi texnologik rivojlanish jarayonida tarbiyaviy ishlarda ijtimoiy, pedagogik va san’at shakllaridan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarning ijtimoiy, pedagogik va san’at shakllari keng imkoniyatlarga ega. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonida mazkur shakllarni bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘zlashtirishi taqozo etiladi.

Tarbiyaviy ishlarning tajribaviy shakllari. Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishning *turli shakllaridan* foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu jihatdan tarbiyaviy shakllarning quyidagilari ommaviy ekanligini eslatib o‘tish joiz:

- 1) uchrashuvlar;
- 2) onlayn tadbirlar;

3) maslahat tadbirlari.

Boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarning muhim tajribaviy shakllaridan biri uchrashuvlardir. Keyingi paytlarda mashhur shaxslar bilan uchrashuvlar o‘tkazish va bunday uchrashuvlar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalash ishlari susayganligini ta’kidlash lozim. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan va el-yurt e’tirofiga sazovor bo‘lgan O‘zbekiston Qahramonlari, san’at va madaniyat arboblari, xalq artistlari hamda sport ustalari bilan uchrashuvlar o‘tkazish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalash ishida muhim amaliy ta’sir kuchiga ega bo‘ladi. Agar reja asosida tarbiyaviy tadbirlar tashkil etilsa, mazkur mashhur shaxslar mamlakatimizning eng chekka hududlaridagi maktablarga ham tashrif buyurishadi.

Boshlang‘ich ta’limda tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirlarning tajribaviy shakllaridan biri onlaysin tadbirlardir. Unga ko‘ra, kompyuter yoki televidenie (TV) texnik o‘quv vositalari asosida tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazish kutilgan samarani beradi. Bunday tadbirlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun qiziqarli hisoblanadi. Shu sababli keyingi paytlarda mazkur tarbiyaviy tadbir shakli bo‘yicha tajribalar to‘plana boshlanganini eslatib o‘tish joiz. Ayni paytda, tarbiyaviy tadbirlarning onlaysin shakli qiziqarliligi bilan bir qatorda, masofadan turib amalga oshirilishi uchun murakkab hisoblanadi. Uning tarbiyaviy samaradorligi o‘qituvchi tomonidan qat’iy nazorat qilib borilsa, kutilgan samarani beradi.

Boshlang‘ich ta’limda tashkil etiladigan tarbiyaviy ishlari shakllaridan biri bu – maslahat tadbirlaridir. Unga ko‘ra, o‘qituvchi yoki sinf rahbari tomonidan muayyan tadbirlarni o‘tkazish, sinflarda tarbiyaviy ishlarni o‘ziga xos xususiyatlar asosida tashkil etish kabi masalalar bo‘yicha ilmiy xodimlar, mutaxassislar va tajribali o‘qituvchilar bilan maslahatlashishi taqozo etiladi. Bunday maslahatlar, ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlari va tarbiyaviy tadbirlarning asoslarini belgilab olishda muhim o‘rin tutadi. Umuman, boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarda individual yondashuvdan ko‘ra, jamoaviy yondashuvning ustuvor bo‘lishi metodologik jihatdan maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tarbiyaviy ishlarning murabbiylar tomonidan amalga oshirilgan va pedagogik sinovlardan o‘tgan tajribaviy shakllari o‘zining samaradorlik xususiyatlarini saqlab kelayotganligini eslatib o‘tish joiz. Shu sababli

bugungi kunda ham ko‘pchilik murabbiylar tomonidan tarbiyaviy ishlarda murabbiylar, o‘qituvchilar va maktab jamoasining tarbiyaga oid tajribaviy shakllaridan oqilona foydalanishi amalda bajarilib kelinmoqda.

Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, tarbiyaviy ishlarning amaliy, ijtimoiy, pedagogik, san’at va tajribaviy shakllaridan uyg‘un foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu sababli bu o‘rinda boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarda pedagogik tajriba-sinovlardan o‘tgan shakllardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday amaliy shakllarning eng muhimlarini quyidagilar tashkil etishini eslatib o‘tish joiz:

- 1) sinfdan tashqari mashg‘ulotlar shakli;
- 2) mактабдан ташқари мاشғулотлар шакли;
- 3) amaliy to‘garaklar shakli.

Boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning sinfdan tashqari mashg‘ulotlar shakli bevosita murabbiy va tarbiyachi hamkorligi asosida amalga oshiriladi hamda unda asosiy e’tibor tarbiyalanuvchining tarbiyaviy faollashuviga qaratiladi. Maktabdan tashqari mashg‘ulotlar shaklida esa tarbiyalanuvchilarning ijtimoiylashuvi, ijtimoiy faollashuvi va ijtimoiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishini tarkib toptirishga asoslanadi. Boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning amaliy to‘garaklar shakli turli mashhur kishilar, san’atkorlik, atoqli arboblar va faol jamoatchilik vakillarining ishtirokida o‘quvchilarning tarbiyaviy ko‘nikmalarini amaliy jihatdan takomillashtirishga asoslanadi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarning sinfdan tashqari, mактабдан ташқари ва амалий то‘гараклар шакллари тарбиавиий исхлarning samaradorligini oshirishga muhim amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Jamiyatimizning hozirgi rivojlanish jarayonida boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar shakllarini oqilona tanlash va ulardan samarali foydalanishni bilishni taqozo etadi. Shu sbabli oliv pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” kabi o‘quv fanlari vositasida tarbiyaviy ishlarning shakllari bo‘yicha muhim kasbiy kompetensiyalarni o‘zlashtirishi zaruriyat bo‘lib turibdi.

Shunday qilib, tarbiyaviy ishlar shakllari o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, ulardan foydalanish uchun muayyan tayyorgarlik taqozo

etiladi. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonida tarbiyaviy ishlar shakllarining an’anaviy, noan’anaviy va onlayn kabi asoslarini chuqur o‘zlashtirish tavsija etiladi.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar

1. Tarbiyaviy ishlarning amaliy shakllarini o‘rganing.
2. Tarbiyaviy ishlarning ijtimoiy, pedagogik va san’at shakllarini konspekt qiling.
3. Tarbiyaviy ishlarning tajribaviy shakllarini o‘zlashtiring.

7-MAVZU: TARBIYAVIY ISHLAR VOSITALARI

Reja:

1. Tarbiyaviy ishlarda oila bilan hamkorlik.
2. Tarbiyaviy ishlarda maktabdan tashqari muassasalar bilan hamkorlik.
3. Tarbiyaviy ishlarda klaster hamkorligi.

Tayanch tushunchalar: tarbiya, vosita, hamkorlik, oila, maktab, muassasa, klaster, bilim, ko‘nikma, malaka.

Tarbiyaviy ishlarda oila bilan hamkorlik. Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar vositalari majmui muhim xarakterga ega. Bunday vositalardan o‘qituvchi yoki sinf rahbari o‘zi yaxshi biladigan, samaradorligi ayon bo‘lgan va tajribadan o‘tgan vositalarni tanlashi tavsija etiladi. Ana shunday vositalardan biri *oila* bilan hamkorlik qilishdir.

O‘zbekistonda oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi.¹ Shu sababli jamiyatimiz sharoitida oilaning quyidagi turlari idrok etiladi:

- 1) to‘liq oila (er va xotin hamda farzandlarning mavjudligi);
- 2) noto‘liq oila (er yoki xotinning farzandlar bilan yolg‘iz yashashi);
- 3) oila o‘rnini bosadigan xonodon (bolalarni saqlab olib, voyaga yetkazadigan oila).²

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 15-bob. – Toshkent, 2021.

² Qarang: Musurmonova O. Oila ma’naviyati – milliy g‘urur. – Toshkent, 1999.

Oilaning bunday turlari boshlang‘ich ta’limda oila bilan hamkorlik qilish xususiyatini belgilaydi. Shu sababli oilaning quyidagi muhitiga e’tibor bering:

- 1) ideal muhit mavjud oilalar (er, xotin va farzandlar totuv yashaydigan oilalar);
- 2) ijobiy muhit mavjud oilalar (noto‘liq oilalar);
- 3) salbiy muhitga ega oilalar (er, xotin va farzandlar o‘rtasida tez-tez kelishmovchilik bo‘lib turadigan oilalar).

Shu sababli boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda oila bilan hamkorlik qilish uchun oilaning mazkur turlari va muhitlarini hisobga olish taqozo etiladi. Bundan tashqari, ota-onalarning o‘rnini bosuvchi shaxslar, oiladagi katta yoshlilar, oilada tar’lim-tarbiyani nazoratga oluvchi ta’sir kuchiga ega shaxslar, o‘quvchilarning vasiylari, homiyları bilan ham hamkorlik qilishga to‘g‘ri keladi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarda oila bilan hamkorlik qilish uchun quyidagilarga e’tibor berish tavsiya etiladi:

- 1) murojaat qilinayotgan oilaning turi va muhitini hisobga olish;
- 2) oilalardagi ta’sir kuchiga ega ota, ona, aka, opa kabilardan biri bilan hamkorlik qilish;
- 3) o‘quvchilarning ota-onalari o‘rnini bosuvchi shaxslar bilan muntaзам hamkorlik qilish.

Bunday yondashuv boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va amalga oshirishda oila bilan hamkorlikning amaliy asoslarini beradi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, oila bilan hamkorlikda oiladagi ta’sir kuchiga ega a’zo yoki o‘quvchilarning ota-onalari o‘rnini bosuvchi shaxslar bilan hamkorlik qilish nisbatan ko‘proq amaliy samaralarni berishi bilan e’tiborga loyiq. Shu sababli tarbiyaviy tadbirlar jarayonida o‘quvchilarning oila a’zolaridan muayyan shaxslar bilan ishslash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bugungi kunga qadar oila bilan hamkorlikda oila a’zolarining barchasini tarbiyaviy ishlarga jalb etish tendensiyasi amalda bo‘lib keldi. Bundan keyin oila bilan hamkorlikda eng maqbul oila a’zolari bilan ishslash va ular bilan birgalikda boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydag‘i Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dastur”da ota-onalarning ta’lim va tarbiya

jarayonidagi faoliyatini faollashtirish vazifasi qo‘yildi.¹ Jumladan, mazkur Milliy dasturda deyiladi: “Umumuyl o‘rta ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, mazkur yo‘nalishda uzluksiz monitoring, baholash va prognozlash mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish, *bola ta’lim-tarbiyasida oila, ayniqsa, ota-onaning o‘rnini oshirish*”. Mazkur vazifalarning ijrosini ta’minlashda boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarda oilaning (katta yoshli oila a’zolarining, oila imkoniyatlarining) va ota-onalarning o‘rni hamda mavqeidan oqilona foydalanish taqozo etiladi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlardan jarayonida oila imkoniyatlari va ayniqsa, ota-onalarning faol ishtirokidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu masala O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyaning Maqsadli ko‘rsatkichlariga ham kiritilgan.

Bularning barchasi boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarda oila bilan hamkorlik vositasining mazmunini belgilaydi. Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, bunda oilalarning turlari va ularning imkoniyatlaridan kelib chiqib hamkorlik qilish kutilgan samarani beradi. Masalan, muayyan oilalarda ota yoki onaning bolaga nisbatan ta’siri yuqori bo‘ladi. Shu sababli tarbiyaviy ishlarda bolaga ijobjiy ta’siri bo‘lgan ota yoki ona bilan hamkorlik qilish kutilgan samarani beradi. Bu hol tarbiyaviy ishlarda oila bilan hamkorlikning ana shunday yangi mexanizmlariga asoslanishni taqozo etadi. Buning uchun O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash qo‘mitasining hududlardagi tashkilotlaridan har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisining oilaviy hayoti, holati, vaziyati va imkoniyatlari to‘g‘risida ma’lumot olish hamda shu ma’lumotlar asosida tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish kutilgan samarani berishini eslatib o‘tish joiz.

Tarbiyaviy ishlarda maktabdan tashqari muassasalar bilan hamkorlik. Boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlerda *maktabdan tashqari muassasalar* bilan hamkorlik qilish kutilgan samarani berishini bilamiz. Bu borada quyidagilarga *ahamiyat* bering:

- 1) mahalla yoshlar bilan ishslash yetakchilari bilan hamkorlik qilish;
- 2) mahalla profilaktika inspektorlari bilan hamkorlik qilish;

¹ www.Ziyonet.uz

3) mahalladagi homiy korxonalar, tashkilotlar va muassasalar vakillari bilan hamkorlik qilish.

Maktabdan tashqari bu muassasalar o‘zining funksiyasidan kelib chiqib tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda ishtirok etadi. Misol uchun, mahalla yoshlar bilan ishslash yetakchilari bevosita boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyaviy tadbiriga tayyorlash ishlarini, mahalla profilaktika inspektorlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tarbiyaviy tadbirlar vositasida yo‘l qoidalari, tartib-intizom ishlarini va mahalladagi homiy muassasalarning vakillari tarbiyaviy tadbirlarni moliyalashtirishda yordam berish ishlarini bajaradi.

Aslida, boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarda maktabdan tashqari muassasalar bilan hamkorlik aniq yo‘nalishlarga egaligi bilan diqqatni tortadi. Shu sababli har o‘quv yilining boshida sinf rahbari tomonidan maktabdan tashqari muassasalar bilan hamkorlik qilish uchun quyidagilarni amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

1) maktabdan tashqari muassasalar bilan “Boshlang‘ich sinflarda tarbiyaviy ishlar bo‘yicha Dastur”ni ishlab chiqish va o‘zaro kelishuv asosida o‘quv yili davomida mazkur dastur asosida tarbiyaviy tadbirlarni hamkorlikda o‘tkazish;

2) bunday Dasturda hamkorlik ishtirokchilarining vazifalari va yo‘nalishlarini aniq belgilab berish;

3) Dasturning ijrosi har chorakda sinf rahbari tomonidan monitoring qilib borilishi.

E’tibor berilsa, maktabdan tashqari muassasalar bilan boshlang‘ich ta’limda tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirlar bo‘yicha hamkorlik har o‘quv yili boshida yangidan yo‘lga qo‘yiladi. Aks holda, amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlar Dasturi kutilgan samarani bermaydi.

Keyingi paytlarda ta’limga oid bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari, Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining Qarorlarida maktabdan tashqari muassasalarning ham ta’lim-tarbiya jarayonidagi ishtiroki bo‘yicha vazifalar belgilab borilmoqda. Misol uchun, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari bilan belgilangan mahalla faollari o‘z hududlaridagi ta’lim muassasalarining ta’lim-tarbiya sifati bo‘yicha mas’ul ekanligi amaliyoti mavjud. Bunday imkoniyatlardan maktabdan tashqari ta’lim muassasalari tarbiyaviy ishlarda hamkorlik qilish jarayonida foydalanishi tavsiya etiladi.

Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda maktabdan tashqari muassasalar bilan hamkorlik amaliy xususiyatlarga egaligi bilan e’tiborga loyiq. Shu sababli bu masalalar oliv pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan chuqur o‘zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Umuman bu jarayonda ijodiylik, tashabbuskorlik va faollik tamoyillariga amal qilish kutilgan samarani beradi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan har bir tarbiyaviy tadbirning ijodiy xususiyatga ega bo‘lishi va imkon qadar tadbirlarning yangi bo‘lishiga intilishi zaruriyat hisoblanadi. Bu borada amaliy tajribalar o‘rganilib borilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tarbiyaviy ishlarda maktabdan tashqari muassasa bilan hamkorlik qilish mahalla, mahalla profilaktika inspektorlari va mahalladagi ishlab chiqarish tashkilotlari bilan muayyan tadbirlarni amalga oshirish kutilgan samarani beradi. Misol uchun, boshlang‘ich sinf o‘quvchisining mahalla vakillari ishtirokida faollashtirish, unga mahalla inspektorlari vositasida huquqiy tushunchalar berish hamda mahalladagi ishlab chiqarish muassasalarining ko‘magida boshlang‘ich sinflarda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga egadir. Shu sababli bu borada O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va nuroniyarlari qo‘llab-quvvatlash vazirligining joylardagi tashkilotlari bilan hamkorlikda harakat qilish kutilgan samarani beradi. Bunda boshlang‘ich sinflarda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarda mazkur tuzilmaning tashkiliy, ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan tarbiyaviy ishlardan tarbiyaviy ishlarda muhim imkoniyatlarga ega bo‘linadi.

Boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarda oila va maktabdan tashqari ta’lim muassasalari bilan hamkorlik tizimi muhim tashkiliy xarakterga ega. Shu sababli bu borada mavjud imkoniyatlardan olqilona foydalanish bilan jamiyatning tarbiya ishiga bo‘lgan manfaatlari amalga oshiriladi. Chunki Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash qo‘mitasi hamda Mahalla va nuroniyarlari qo‘llab quvvatlash vazirligining joylardagi tashkilotlari bilan hamkorlikda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish davlat manfaatlari nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tarbiyaviy ishlarda klaster hamkorligi. Boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarda *klaster hamkorligi* muhim

amaliy xususiyatlarga egaligi bilan ahamiyatga ega.

Klaster bu – hududlardagi ta’lim muassasalari, korxonalar, tashkilotlar va ilmiy markazlarning ta’lim hamda tarbiya ishlarida muntazam hamkorlik qilish shaklidir.¹ Hamkorlikning klaster shaklida uning ishtirokchilari o‘z vazifalariga ega bo‘ladi va hamkorlik muntazam amalgaga oshiriladi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limda amalgaga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarda klaster hamkorligi imkoniyatlaridan foydalanish uchun quyidagilarga ahamiyat berish tavsiya etiladi:

1) klaster hamkorlikdagi oliy ta’lim muassasasining vakili tarbiyaviy tadbirlarning ilmiy va amaliy asoslarini ishlab chiqadi, klaster hamkorlik jarayonini muvofiqlashtirib boradi;

2) klaster hamkorlikdagi umumiy o‘rta ta’lim maktabining vakili tarbiyaviy tadbirlarning turlari bo‘yicha Dastur tuzadi, unda tadbirlarni o‘tkazish vaqtini, sanasi va joyini belgilaydi, tarbiyaviy tadbirlarning samarali bo‘lishi uchun mакtab jamoasini jalb etadi;

3) klaster hamkorlikdagi korxona, tashkilot yoki muassasaning vakili tarbiyaviy tadbirlarning tashkiliy, iqtisodiy, ommaviy va unda ishtirok etadiganlarning faolligi bo‘yicha asoslarni belgilaydi, amalgaga oshiradi va hamkorlikning samaralarini tahlil etadi;

4) klaster hamkorlikdagi umumiy o‘rta ta’lim muassasasi sinf rahbari bu hamkorlikni tashkil qiladi, uning faoliyatda bo‘lishini ta’minlaydi va hamkorlik vositasida amalgaga oshirilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini kuzatib boradi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni amalgaga oshirishda klaster shaklidagi hamkorlik ko‘pchilikning ishtirokiga tayanadi. Shu sababli keyingi paytlarda hamkorlikning bu turi bo‘yicha Chirchiq davlat pedagogika universitetida o‘ziga xos tajriba to‘planganini eslatib o‘tish joiz. Unga ko‘ra, universitetda “Kelajak o‘qituvchisi” ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi, maktablar bilan hamkorlik qilish markazlari va haftalik amaliyat tizimi faoliyat yuritmoqda. Buning natijasida, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nazariy-

1 Qarang: Muxamedov G., Xodjamkulov U. Pedagogik ta’limning innovatsion klasteri: ta’rif, tavsiya, tasnif. –Toshkent, 2020. Toshtemirova S. Ta’lim klasteri. – Toshkent, 2021. Botirova Sh. Adabiy ta’lim klasteri. – Toshkent, 2021. va h.k.

amaliy hamda kasbiy kompetensiyalarini uyg‘un shakllantirishga erishilayotgani muhim samarani bermoqda.

Boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarda klaster hamkorligining imkoniyatlaridan foydalanish muhim amaliy ahamiyatga ega. Bu borada Chirchiq davlat pedagogika universitetining “Kelajak o‘qituvchisi” va “Bo‘lajak pedagog” ilmiy-tadqiqot markazlari tajribalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Mazkur tajribada asosiy e’tibor boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyalanish jarayonini kuchaytirish va ularni manzilli ta’lim bosqichlariga yo‘naltirish bo‘yicha o‘ziga xos amaliy ishlar majmui mavjud. Bunda, ayniqsa, klaster ishtirokchilarining faolligi, ularning hamkorligi hamda yanada samaraga intilishi kutilgan samarani beradi. Shu jihatdan tarbiyaviy ishlarda klaster tizimi imkoniyatlaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shunday qilib boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishning o‘ziga xos vositalari mavjudligi mazkur masala bo‘yicha amaliy samaradorlikka erishish imkonini beradi. Bunday vositalarning oila, maktabdan tashqari muassasalar va klaster hamkorliklari ayniqsa, amaliy samarani berishi bilan e’tiborga molik.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Tarbiyaviy ishlarda oila bilan hamkorlik asoslarni o‘rganing.
2. Tarbiyaviy ishlarda maktabdan tashqari muassasalar bilan hamkorlik tizimini konspekt qiling.
3. Tarbiyaviy ishlarda klaster hamkorligi omillarini o‘zlashtiring.

8-MAVZU: TARBIYAVIY ISHLAR TEXNOLOGIYALARI

Reja:

1. Tarbiyaviy ishlarning an'anaviy texnologiyalari.
2. Tarbiyaviy ishlarning noan'anaviy texnologiyalari.
3. Tarbiyaviy ishlarning axborot-kommunikatsion texnologiyalari.

Tayanch tushunchalar: tarbiya, texnologiya, an'anaviylik, noan'anaviylik, axborot-kommunikatsion, bilim, ko'nikma, malaka.

Tarbiyaviy ishlarning an'anaviy texnologiyalari. Boshlang'ich ta'lilda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda muayyan texnologiyalarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Texnologiya – turli vositalar, imkoniyatlardan o'quv-texnik jihozlariga tayangan holda muayyan ta'lim yoki tarbiya jarayonini mahorat bilan amalga oshirish vositasidir.¹ Shu jihatdan boshlang'ich ta'lilda tarbiyaviy ishlarning *an'anaviy texnologiyalari* bo'yicha kasbiy kompetensiyaga ega bo'lish taqozo etiladi.

An'anaviy texnologiya tajribadan o'tib kelayotgan o'quv-tarbiyaviy vosita sifatida ommaviy xususiyatga ega bo'ladi. Shu jihatdan bugungi kunda mamlakatimiz boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nisbatan ko'pchiligi an'anaviy texnologiyalarning quyidagi turlariga amal qilishi kuzatiladi:

1) bayramlar, tug'ilgan kunlar, mashhur mutafakkirlarning yubileyllari yoki muayyan sinfning tashabbusi bilan o'tkaziladigan tadbirlar vositasida tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish texnologiyasi;

2) muzeylar, shaharning diqqatga sazovor joylari va tabiatga sayohat, keyingi paytlarda amalga kiritilgan qadimiy shaharlarga sayohatlarga asoslangan tarbiyaviy tadbirlar texnologiyasi;

3) muayyan o'qituvchilarining tajribalari asosida tarkib topgan o'quvchilar bilan individual, guruhli hamda jamoatchilik vakillari bilan birgalikda ishlashga asoslangan tarbiyaviy tadbirlar texnologiyasi.

Diqqat qilinsa, bu an'anaviy texnologiyalar yillar davomida amaliyotda bo'lib kelmoqda. Shu jihatdan ularning asoslarini o'zlashtirish va ular vositasida kelgusida boshlang'ich ta'lilda tarbiyaviy tadbirlarni

¹ Qarang: Бордовская Н., Реан А. Педагогика. – Санкт-Петербург, 2001.

amalga oshirish bo'yicha kasbiy kompetensiyalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi tavsiya etiladi.

Boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlarning an'anaviy texnologiyalari har qanday sharoit va muhitga mos tushishi bilan yashovchan hisoblanadi. Shu sababli mazkur texnologiyalar oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'rganilishi, haftalik malakaviy amaliyat davrida tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarbiyaviy ishlar bo'yicha individual texnologiyalarini o'zlashtirishi tavsiya etilishi. Bunday yondashuv boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda an'anaviy texnologiyalardan tajribaviy foydalanish imkoniyatlarini beradi.

Boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning an'anaviy texnologiyalari tajribadan o'tganligi bilan ahamiyatga molik. Bunday texnologiyalarning negizida quydagilar mavjud bo'ladi:

- 1) murabbiylarning yillar davomida shakllangan individual tarbiyaviy tajribalari;
- 2) sinf rahbarlarining tarkib topgan individual tarbiyaviy tajribalari;
- 3) mакtab jamoasining an'ana shaklida sinovdan o'tgan jamoaviy tarbiyaviy tajribalari.

Aynan mana shu asoslar tarbiyaviy ishlarning an'anaviy texnologiyalarini yashovchan bo'lib qolishiga asos bo'lib kelmoqda. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oliy pedagogik ta'lim jarayonida boshlang'ich ta'lim murabbiylari hamda o'qituvchilarining individual tarbiyaviy tajribalaridan foydalanish, bu borada sinf rahbarlari bilan hamkorlik qilish ko'nikmasini egallash va maktab jamoasining tarbiyaga oid tajribalaridan foydalana olishni bilishni o'zlashtirishi taqozo etiladi. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim jarayonida mutaxassislik (pedagogik) majburiy fanlar, "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" kabi o'quv fanlari va haftalik pedagogik amaliyat imkoniyatlaridan kutilgan darajada foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, har bir bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi tarbiyaviy ishlarning an'anaviy texnologiyalarini ta'lim va amaliy faoliyat vositasida individual tarzda o'zlashtirishi amaliy ahamiyatga ega.

Tarbiyaviy ishlarning noan'anaviy texnologiyalari. Insoniyatning hozirgi rivojlanish jarayonida innovatsion texnologiyalarga asoslangan farovon hayot qurish jarayoni kechmoqda. Bu borada mamlakatimizning faol ishtiropi va yoshlar tarbiyasiga oid xalqaro dasturlarga a'zo

bo‘lganligi muhim o‘rin tutadi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarda *noan’anaviy texnologiyalarga* asoslanish zaruriyat bo‘lib turibdi.

Noan’anaviy texnologiyalar bu – odad bo‘lмаган va yangicha asoslarga tayangan holda amalga oshiriladigan metodlar, vositalar va yondashuvlar majmuidir. Noan’anaviy metodlarga quyidagi xususiyatlar xos:

- 1) muntazam ravishda yangilab va takomillashib borish imkoniyatlarining mavjudligi;
- 2) vaqt, makon va muddat tanlamasligi;
- 3) ko‘p hollarda amaliy samaralar berish asoslariga egaligi.

Shu sababli boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda noan’anaviy texnologiyalarga asoslanish samaradorligi bilan ko‘zga tashlanib turadi. Bunday texnologiyalarning asosiyлari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- 1) tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda muassasalarning imkoniyatlariga tayanish va an’anaviy tarzdagi bayram o’tkazish yoki ssenariyli tadbirlardan kamroq foydalanish;
- 2) eng zaruriyat fanlarda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish texnologiyasi, bunda muayyan sinflarda yuzaga kelgan tarbiyaviy muammolarni hal etishga qaratilgan tadbirlar amalga oshiriladi;
- 3) o‘quvchilar yoki muayyan o‘qituvchilarning tashabbusi asosida amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlar texnologiyasi, bunda asosan tashabbus asosida tarbiyaviy tadbirlar o’tkaziladi.

E’tibor berilsa, tarbiyaviy ishlarning noan’anaviy texnologiyalari muayyan dastursiz va zaruriyatga qarab tadbirlarni tashkil etishga asoslanadi. Mazkur texnologiyalarning amaliy samaradorligi shundaki, vaziyat, muhim va sharoit hisobga olinib muayyan tarbiyaviy muammoni hal etishga qaratilgan tadbirlar amalga oshiriladi. Shu sababli keyingi paytlarda pedagog olimlar tomonidan noan’anaviy texnologiyalarning shakllarini ishlab chiqishga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Misol uchun, bu borada keyingi vaqtarda ta’lim tizimimizda BBB, Keys stadi, trening kabi noan’anaviy texnologiyalardan keng foydalanish ana’ana tusini olgan. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonida

bunday texnologiyalarni chuqur o‘rganish tavsiya etiladi.¹ Tavsiya etilgan adabiyotlar vositasida tarbiyaviy tadbirlarning noan’anaviy texnologiyalarini o‘zlashtirish imkoniyatlari mavjud.

Bundan tashqari, oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilayotgan pedagogik va mutaxassislik turkumidagi o‘quv fanlari mavzularini “Tarbiyaviy ishlarda noan’anaviy texnologiyalar” mavzusi bilan boyitish yoki “Tarbiyaviy ishlarning zamonaviy texnologiyalari” nomli maxsus kurs tashkil etilish kutilgan samarani beradi. Chunki kelgusida ta’lim tizimimiz to‘liq ravishda o‘qitishning kredit-modul tizimi asosida faoliyat yuritishi kutilmoqda. O‘qitishning kredit-modul tizimida asosiy e’tibor bilim berishga qaratilishi ma’lum. Shu sababli o‘qitishning bunday tizimi sharoitida boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish uchun yangi texnologiyalarga ehtiyoj sezildi. Shu jihatdan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tarbiyaviy ishlarning zamonaviy texnologiyalari bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi taqozo etiladi.

Tarbiyaviy ishlarning noan’anaviy texnologiyalari yangiliklarga intilish, yangi ma’lumotlarga tayanish va taqdim etilayotgan butunlay yangicha yondashuvlarga asoslanishi bilan ahamiyatga ega ekanligini eslatib o‘tish joiz. Shu jihatdan tarbiyaviy ishlarning noan’anaviy texnologiyalari bu – tarbiyaga oid muammolarni nostandard shakllarda va vaziyatlarda hal etishga asoslanadi. Misol uchun, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan individual tarzda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarda murabbiy yoki o‘qituvchilar individual tarzda noan’anaviy texnologiyalarni tanlaydi va ular asosida muammolarni hal etadi. Shu sababli bu borada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari oliy pedagogik ta’lim jarayonida tarbiyaviy ishlarning noan’anaviy texnologiyalari asoslarini chuqur o‘zlashtirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, bugungi kunda ko‘pgina yosh mutaxassislarning yangi ma’lumotlar asosida tarbiyaviy muammolarni hal etishga bo‘lgan intilishlari tarkib topganligi muhim amaliy ahamiyatga ega. Mana shunday ko‘nikmalarni tadrijiy rivojlantirib borish kutilgan samarani beradi.

Tarbiyaviy ishlarning axborot-kommunikatsion texnologiyalari.

¹ Qarang: Jabborova O., Umarova Z., Boboxodjayeva L. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. – T., 2021. 191-196 betlar. Jumanova F. va boshq. Umumiy pedagogika asoslari. – T., 560-574 betlar va h.k.

Bugungi kunda ta’lim tizimi vositasida amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlarning eng muhim va innovatsion texnologiyalaridan biri bu *axborot-kommunikatsion* texnologiyalardir.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalarga quyidagi xususiyatlar xos:

- 1) tarbiyaviy tadbirlarda televidenie, radio, kompyuter, onlayn kabi axborot-kommunikatsion vositalarga tayanish;
- 2) axborot-kommunikatsion vositalarning tasviriylik, tezkorlik va qiziqarlilik imkoniyatlari asosida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish;
- 3) axborot-kommunikatsion vositalarga tayangan holda suhbat, tushuntirish, trening, o’rganish, amaliy anjuman kabi tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirish.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalarning imkoniyatlari keng bo‘lib, ular oliy ta’lim jarayonida chuqur o’zlashtirilishi kerak.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, pandemiya kabi murakkab ijtimoiy sharoitlarda axborot-kommunikatsion texnologiyalarga asoslangan tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirish zaruriyat hisoblanadi. Shu jihatdan bu o‘rinda professor Sh.Q.Mardonov tomonidan mazkur texnologiyalarning didaktik ta’minotini ishlab chiqish asoslari belgilab berilganligi va uning amaliyotda qo‘llanishi yaxshi samara berishini eslatib o‘tish joiz.¹ Mazkur texnologiya asosida o‘quv fanlarini o‘qitish jarayonida yoki maxsus tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazishda foydalanish imkoniyatlari mayjud. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilayotgan pedagogik va mutaxassislik turkumlaridagi o‘quv fanlarini axborot-kommunikatsion texnologiyalar bilan boyitish zaruriyat bo‘lib turibdi.

Jamiyatimizning hozirgi rivojlanish jarayonida barcha sohalarda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish taqozo etilmoida. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tarbiyaviy ishlarda axborot-kommunikatsion texnologiya imkoniyatlardan foydalanish ko‘nikmasini tarkib toptirish dolzarb hisoblanadi. Buning uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tyutorlar bilan izchil hamkorlik asosida tarbiyaviy ishlarni mazkur texnologiyalar asoslarini o‘zlashtirishi kutilgan samarani beradi. Chunki tyutorlik

¹ Qarang: Mardonov Sh.Q. Pedagogika fanidan o‘qitishning elektron-modulli didaktik ta’minotini ishlab chiqish texnologiyasi. – Toshkent, 2021.

instituti talabalar bilan ishlash jarayonida mutlaqo yangi shakllar va vositalarga asoslanayotganligi bilan diqqatni tortadi. Masalan, ular tomonidan amalga oshirilayotgan Axborot soatlarida tarbiyaviy ishlar bo‘yicha muhim bo‘lgan eng yangi ma’lumotlar taqdim etilayotganligini eslatib o‘tish joiz.

Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kompyuter kabi axborot-kommunikatsion vositalarga asoslangan tarbiyaviy ishlarga oid texnologik ishlanmalar yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb bo‘lib turibdi. Buning uchun talabalar kompyuter texnik vositasi imkoniyatlardan foydalangan holda murakkab ijtimoiy, muhim vaziyat va holatlar sharoitida boshlang‘ich sinflarda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish bo‘yicha o‘ziga xos ishlanmalarni yarata olish hamda ulardan oqilona foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi taqozo etiladi. Masalan, kompyuter texnik vositasi imkoniyatlardan foydalangan holda har bir talabaning tarbiyaviy muammolarni hal etish bo‘yicha ishlanmalar yaratish imkoniyatlari mavjud. Ana shunday imkoniyatlar va layoqatlarni rivojlantirish bilan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida tarbiyaviy ishlarni axborot-kommunikatsion texnologiyalar vositasida amalga oshirish ko‘nikmasini shakllantirish mumkin bo‘ladi. Bu bilan ular boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishning nazariy, amaliy va texnologik ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Shunday qilib, tarbiyaviy ishlar texnologiyalari an’anaviy, noana’anaviy va axborot-kommunikatsion turlarga bo‘linib, ularning har biri o‘ziga xos xususiyat, imkoniyat va amaliy samaradorlikka ega. Mazkur texnologiyalardan boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish jarayonida uyg‘un foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu sababli bunday texnologiyalar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi tomonidan o‘zlashtirilishi tavsiya etiladi.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Tarbiyaviy ishlarning an’anaviy texnologiyalarini o‘rganing.
2. Tarbiyaviy ishlarning noan’anaviy texnologiyalarini o‘zlashtiring.
3. Tarbiyaviy ishlarning axborot-kommunikatsion texnologiyalari xususiyatlarini konsept qiling.

9-MAVZU: TARBIYAVIY ISHLARNING XORIJIV TAJRIBALARI

Reja:

1. Yevropa mamlakatlari ta'lif muassasalarida tarbiyaviy ishlar.
2. Osiyo mamlakatlari ta'lif muassasalarida tarbiyaviy ishlar.
3. Tarbiyaviy ishlarning xorijiy tajribalaridan foydalanish mexanizmlari.

Tayanch tushunchalar: tarbiya, xorij, tajriba, Yevropa, Osiyo, mamlakatlar, muassasalar, bilim, ko'nikma, malaka.

Yevropa mamlakatlari ta'lif muassasalarida tarbiyaviy ishlar.

Jahon xalqlari tomonidan o'z tajribalari asosida va milliy xususiyatlarga tayangan tarbiyaviy ishlar amalga oshirilishi tajribali pedagoglarga ma'lum. Shu jihatdan Yevropa mamlakatlarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar tajribalarini o'rganish, kuzatish va o'rni kelganda ulardan foydalanish samarali hisoblanadi. Mazkur mamlakatlarning tarbiyaviy ishlariga quyidagi xususiyatlar xos:

- 1) tarbiyaviy tadbirlar faqat ta'lif vositasida o'quv jarayonida amalga oshiriladi;
- 2) sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar nisbatan kam amalga oshiriladi, chunki mazkur mamlakatlar tarbiya asoslarida individuallik ilk rejada turadi;
- 3) tarbiyaviy tadbirlar pedagog va psixologlar tomonidan amalga oshiriladi, bunda jamoatchilikning tarbiyaviy tadbirlarda kam ishtirok etishi kuzatiladi.

Bu umumiy xususiyatlar barcha Yevropa mamlakatlari tarbiyaviy ishlariga xosdir. Ayni paytda, tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirishda xalqlarning o'ziga xos yondashuvlari mavjud. Mazkur masalada quyidagilarni ta'kidlab o'tish joiz:

Buyuk Britaniya mamlakatida tarbiyaviy ishlar, asosan, ta'lif vositasida inglizlarning an'analariga tayangan holda amalga oshiriladi. Bunda ta'lif oluvchilarining individual xususiyatlarini shakllantirishga asosiy e'tibor qaratiladi.

Germaniya Federativ Respublikasida tarbiyaviy tadbirlar olmon millatining madaniyati asosida tashkil etilib, unda shaxsda oliyanoblik,

haqqoniylig va hallolik xususiyatlarining shakllanishiga ustuvor darajada qaraladi.

Italiya Respublikasida ta'lim jarayonining 20 foizi tarbiyaviy tadbirlarga yo'naltirilgan va unda shaxsda bilimdonlik, ajdodlarga vorislik va tinchlikparvarlik sifatlarining shakllantirilishi birlamchi hisoblanadi.

Fransiya Respublikasida tarbiyaviy ishlar olivjanoblik, nazokatlilik va jo'mardlik ruhida shaxsni shakllantirishga asoslangan bo'lib, mazkur mamlakatda ham tarbiyaviy tadbirlar ta'lim vositasida amalga oshiriladi.

E'tibor berilsa, Yevropa mamlakatlarida har bir mamlakatning tarbiyaga nisbatan o'z yondashuvi mavjud. Ayni paytda bunday yondashuvda demokratik qonuniyatlar ustuvor bo'lib turishini eslatib o'tish joiz. Mazkur mamlakatlardagi tarbiya an'analari Amerika qit'asidagi mamlakatlar tomonidan qabul qilinganligini eslatib o'tish joiz.

Yevropa mamlakatlarining tarbiyaviy ishlar bo'yicha tajribasidan quyidagi asoslarda foydalanish mumkin:

- 1) shaxsni erkin ruhli va demokratik qiyofada shakllantirish;
- 2) voyaga yetmaganlarga nisbatan sabr-toqatli va bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lish;
- 3) shaxsning manfaatlarini ustuvor qo'yish;
- 4) kamchilik yoki xato uchun tarbiya jarayonida shaxsni jazolamaslik.

Bunday tajribalar boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligiga asos bo'lishini ta'kidlash lozim.

Yevropa mamlakatlari ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar tajribasiga quyidagi xususiyatlar xosligi yaqqol ko'zga tashlanib turadi:

- har bir o'quvchi bilan imkon qadar individual ishslash va tarbiyaviy guruuhlar sonidagi o'quvchilarining miqdorini nisbatan kam sonli belgilash;
- har bir o'quvchining individual xususiyatlari, imkoniyatlari va intilishlarini hisobga olish;
- har bir o'quvchini jamoatchilik vakillari bilan hamkorligida shaxsiy manfaatini ro'yobga chiqarishga tayyorlash;
- imkon qadar mavjud texnologiyalar, yangiliklar va nostandart yondashuvlardan foydalanish;

- tarbiyalanuvchilarning rivojlanib borish jarayonida yuzaga kela-digan murakkabliklar va qiyinchiliklarni tabiiy qabul qilish;

- tarbiyalanuvchilarni o‘z xatti-harakatlarini baholashga o‘rgatish.

Yevropa mamlakatlari ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan tarbiyaviv ishlar vositasida shaxsning individualligini ta’minlash birlamchi vazifa hisoblanadi. Bir qarashda, shaxsning individualligitor manfaatni ifodalayotgandek ko‘rinadi. Aslida shaxsda individuallik guruhining mavjud bo‘lishi tarbiyaviv ishlar nazariyasi va metodikasida e’tirof etilgan. Chunki shaxs individual tarbiyaviv xususiyatlarga ega bo‘lmasa, o‘zining tabiiy layoqatini ro‘yobga chiqara olmaydi va uning jamoadagi faoliyati talab darajasida bo‘lmaydi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviv ishlarda tarbiyalanuvchilarning individual qiyofasini shakllantirishga e’tibor berish ham kutilgan samarani beradi. Pedagogik tajribalardan ma’lumki, individual qiyofaga ega bo‘lman shaxslar to‘plami olomon va individual xususiyatlarga ega bo‘lgan shaxslar majmui esa jamoa deb baholanadi. Shu jihatdan olomon guruhidan ko‘ra jamoa guruhining jamiyatda tutgan mavqeiyuqori hisoblanadi. Bularning barchasi boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviv ishlarda tarbiyalanuvchilarning individuallik fazilatini tarkib toptirish ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Osiyo mamlakatlari ta’lim muassasalarida tarbiyaviv ishlar. Tarbiyaviv ishlar masalasida Osiyo mamlakatlari juda qadimiy va katta tajribaga ega. Chunki bugungi kunda barcha kishilar tomonidan e’tirof etiladigan Yahudiylilik, Nasroniylik va Islom jahon dinlari Osiyo mamlakatlarida nozil bo‘lib, ularda insonni tarbiyalashning muqaddas asoslari bayon qilingan. Shu jihatdan, Yahudiylilik dinida yoshlarning aqliy tarbiyasi, Nasroniylik dinida ularning ruhiy tarbiyasi va Islom dinida esa yoshlarning aqliy, ruhiy va axloqiy tarbiyasini uyg‘un amalga oshirish ustuvor darajada targ‘ibot qilib kelinmoqda. Shu sababli Osiyo mamlakatlari tarbiyaviv ishlarida quyidagi umuminsoniy xususiyatlar kuzatiladi:

1) yoshlarni go‘daklik, bolalik, o‘smirlilik va yoshlik davrlariga bo‘lib tarbiyalash;

2) yoshlarda axloqiylikning ustuvor bo‘lishiga asoslanish;

3) yoshlarni kattaga hurmat, kichikka izzat, oila, jamoatchilik, ona Vatanga sadoqat ruhida voyaga yetkazish;

4) yoshlarning ongini, dunyoqarashini va o‘zgalarga munosabatini to‘g‘ri shakllantirish.

E’tibor berilsa, bu umuiny xususiyatlar aniqlik asosida yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatga ega. Ayni paytda, Osiyo mamlakatlarining tarbiyaviy ishlarga individual yondashish xususiyatlari mavjudligini ham eslatib o‘tish joiz. Shu jihatdan, quyidagilarni ta’kidlab o‘tish mumkin:

Yaponiya mamlakatida tarbiyaviy ishlar asosan 15 yoshga qadar qat’iyatlik bilan ta’lim vositasida va jamoatchilikning keng ishtiroki asosida amalga oshiriladi. Shuningdek, mazkur mamlakatda xalq an’analari tarbiyaviy jarayonda ustuvor darajada ahamiyat beriladi va bugungi kunda pedagogika tajribasida “Yapon ruhi” atamasi ana shu an’analarga sodiqlikni anglatishi ma’nosida ishlatiladi.

Janubiy Koreya Respublikasida koreys xalqining an’analari vositasida tarbiyaviy ishlar amalga oshiriladi. Misol uchun, har bir kareys yoshlari avval milliy an’analarni o‘rganib, keyin zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirishi an’ana tusini olgan. Ayni paytda, koreys xalqi tarbiyasida yoshlarni sabr-toqatlilik ruhida voyaga yetkazish ustuvor ekanligini eslatib o‘tish joiz.

Xitoy Xalq Respublikasi tarbiyaviy ishlarida milliy ruh ustuvor qo‘yiladi. Unga ko‘ra, har bir shaxs xitoy xalqining eng qadimiy va zamonaviy an’analarini bilishi, tinchliksevarlik hamda bag‘rikenglik qoidalariga qat’iy amal qilishi shart. Ayni paytda, xitoy xalqi tarbiyaviy ishlarida shunday xususiyat mavjudki, unga ko‘ra har bir shaxs o‘z nafsi tiya olishi kerak.

Saudiya Arabistonida tarbiyaviy ishlar asosan islom dini asoslariga tayanadi. Bunda shaxsning iymonli bo‘lishi, ya’ni Allohgga e’tiqod, Vatanga muhabbat va ajdoddarga sadoqat ruhida voyaga yetishi ustuvor sanaladi. Har bir yosh mazkur asoslarga ko‘ra voyaga yetkaziladi.

Indoneziya Respublikasida tarbiyaviy ishlar raggi xalqi an’analari asosida amalga oshiriladi. Unga ko‘ra, har bir yosh shaxs murakkab sharoitlarda yashab keta olish, eng og‘ir damlarda sabr-toqatlilik bo‘lish hamda o‘zgalarga beminnat yordam ko‘rsatish ruhida voyaga yetkaziladi. Ta’lim jarayonida ham ana shu real qonuniyatlarga asosiy e’tibor qaratiladi.

Diqqat qilinsa, Osiyo mamlakatlarida tarbiyaviy ishlar real sharoit, mavjud vaziyat va amaliy an’analarga asosan amalga oshiriladi.

Osiyo mamlakatlari ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlarda shaxsda jamoaviy ruhni tarkib toptirish asosiy masala hisoblanadi. Unga ko'ra, tarbiyalanuvchi shaxsda jamoa bilan hamkorlik qilish, jamoa bilan birgalikda faoliyatda bo'lish va jamoa ishlarida faollik ko'rsatish ko'nigmalarini shakllantirish masalasiga ustuvor darajada ahamiyat beriladi. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, shaxsda jamoaparvarlik ruhining mavjud bo'lishi uning individuallik xususiyatlarini kuchaytiradi. O'zgacha aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarbiyaviy ishlar vositasida jamoaviylik ruhini tarkib toptirish bilan ularning individual qayofasini shakllantirishga erishish mumkin bo'ladi.

E'tibor berilsa, Yevropa va Osiyo mamlakatlari ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlarning individuallik va jamoaviylik tajribalarini uyg'un o'zlashtirish taqozo etiladi. Chunki jamiyatimizning hozirgi rivojlanish jarayonida shaxsning individual va jamoaviy xususiyatlarga ega bo'lishi muhim ehtiyojlardan biridir. Bunda individual xususiyatlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zligini anglash ko'nikmasini tarkib toptirishda va jamoaviy xususiyatlari esa ularning ijtimoiy faol shaxs sifatida rivojlanib borishida asos bo'ladi.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarda Yevropa va Osiyo mamlakatlari ta'lim muassasalarining tajribalarini izchil o'rganib borish hamda amaliy faoliyatda ulardan foydalana olishga ko'nikish muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mazkur ikki tajribadan foydalanish bo'yicha umumiy malakaga ega bo'lishi va ayni paytda, Yevropa yoki Osiyo ta'lim muassasalari tajribalaridan biri bo'yicha mutaxassislashishi muhim ahamiyatga ega. Chunki hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarda noan'anaviy metodlar, shakllar, vositalar va texnologiyalarga asoslanishni taqozo etishi bilan e'tiborni tortadi. Shu sababli bu jarayonda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining Yevropa va Osiyo mamlakatlari ta'lim muassasalarida amal qilinadigan tarbiyaviy ishlar bo'yicha tajribalarni chuqr bilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tarbiyaviy ishlarning xorij tajribalaridan foydalanish mexanizmlari. Boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarda xorijiy tajribalardan foydalanish vaqtini tejash, tezkorlik va tadbirlarning qisqaligi qoidalariga asoslanishini eslatib o'tish joiz.

Ayni paytda, boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarda quyidagilar asosida xorijiy tadbirlardan foydalanish tavsiya etiladi:

- 1) o‘zga xalqlarning tili, an’analari va qadriyatlariga hurmat ruhini o‘quvchilarda shakllantirish;
- 2) boshlang‘ich ta’lim tadbirlarida xorijiy mamlakatlarda kashf etilgan pedagogik texnologiyalardan foydalanish;
- 3) tarbiyaviy tadbirlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xorijiy mamlakatlarning o‘ziga xos an’analari bilan tanishtirish;
- 4) imkon qadar tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda xorijiy mamlakatlar tarbiyaviy ishlari bo‘yicha tajribaga ega bo‘lgan mutaxassislar bilan hamkorlik qilish.

Bunday yondashuv boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, bugungi kunda boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarda o‘zga xalqlarning an’analari bilan o‘quvchilarni kengroq tanishtirish dolzarb ekanligini ta’kidlab o‘tish joiz. Chunki bugungi o‘quvchi kelgusida xorijiy mamlakatlarda o‘qishi yoki faoliyat yuritishi mumkin. Shu sababli “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o‘quv fani “Xorijiy xalqlar an’analari” mavzusi bilan boyitilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini xorijiy xalqlarning an’analari va tarbiyaviy ishlari asoslari bilan tanishish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning xorij tajribalaridan foydalanish mexanizmlari murabbiy yoki o‘qituvchilarning faoliyati davomida tarkib topib boradi. Bunday mexanizmlarning yuzaga kelishida quyidagilar muhim o‘rin tutishini eslatib o‘tish joiz:

- 1) umumiy o‘rta ta’lim maktablari joylashgan hududlardagi ijtimoiy muhit;
- 2) umumiy o‘rta ta’lim maktablarining tarbiyaviy imkoniyatlari va tajribalari;
- 3) tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradigan pedagoglarning individual tajribalari va yondashuvlari.

Aynan mana shu asoslarga ko‘ra tarbiyaviy ishlarning xorijiy tajribalardan foydalanish mexanizmlari shakllari tarkib topib boradi.

Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, yaqin yillargacha tarbiyaviy

ishlar metodikamizda Yevropa yoki Osiyo hududlaridagi muayyan mamlakatlarning ta’lim muassasalari tajribalarini ustuvor qo‘yish an’anasi mavjud edi. Masalan, yoshlar orasida G‘arb hayotiga qiziqishning yuqori bo‘lganligi buning yorqin misolidir. Ayni paytda keyingi yillarda tarbiyaviy ishlarda muayyan mamlakatlarning tajribalarini ustuvor qo‘yish xususiyatlari susaya boshlaganligini eslatib o‘tish joiz. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlardan jarayonida muayyan mamlakat ta’lim muassasasining tajribasi ustuvor qo‘yilmaydi, aksincha, bunday tajribalar uyg‘unlik tamoyili asosida o‘zlashtiriladi va amaliyotga tadbiq etiladi.

Boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning samaradorligi mavjud metodlar, texnologiyalar va tajribalardan oqilona foydalanishga bog‘liq. Shu sababli bu masalalar oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari tomonidan chuqr o‘zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shunday qilib, boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish maqsadga muvofiqliр.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Yevropa mamlakatlari ta’lim muassasalarining tarbiyaviy ishlari tajribasini o‘rganening.
2. Osiyo mamlakatlari ta’lim muassasalarining tarbiyaviy ishlari tajribasini o‘zlashtiring.
3. Tarbiyaviy ishlarning xorij tajribalaridan foydalanish mexanizmlarini konspekt qiling.

Modul bo‘yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Hasanboev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – Toshkent, 2009.
2. Musurmonova O. Oila ma’naviyati – milliy g‘urur. – Toshkent, 1999.
3. Jabborova O., Umarova Z., Boboxodjayeva L. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. – Toshkent, 2021.

3-MODUL. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TARBIYAVIY ISHLAR AMALIYOTI

10-MAVZU: TARBIYAVIY ISHLAR MONITORINGI

Reja:

1. Tarbiyaviy ishlar monitoringining tuzilishi.
2. Tarbiyaviy ishlarni monitoring qilib borish mexanizmi.
3. Tarbiyaviy ishlar monitoringining amaliy ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: Tarbiya, monitoring, tuzilma, mexanizm, ahamiyat, amaliyot, bilim, ko‘nikma, malaka.

Tarbiyaviy ishlar monitoringining tuzilishi. Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish jarayonida tarbiyaviy tadbirlarning monitoringi muhim o‘rin tutadi.

“Monitoring” atamasi lotincha bo‘lib, “kuzatish, o‘rganish va nazorat qilish” ma’nolarini anglatadi.¹ Shu jihatdan monitoring bu – muayyan jarayonni o‘rganish va uning yo‘nalishlarini belgilab olishdir. Muayyan faoliyatni tartibga solishda monitoring tizimi muhim o‘rin tutadi. Bu masala, ayniqsa, tarbiyaviy ishlarda katta ahamiyatga ega bo‘lib, uning vositasida tarbiyaviy jarayonning borishi kuzatiladi, tarbiyaviy tadbirlarning ta’siri o‘rganiladi va erishilayotgan samaradorlik asosida tarbiyaviy ishlarning amaliyoti nazorat qilinadi. Shu sababli kuzatish, o‘rganish va nazorat masalalariga tayangan holda tarbiyaviy ishlar monitoringi amalga oshiriladi.

Tarbiyaviy ishlar monitoringi sinf rahbarlari, o‘quv fanlari o‘qituvchilari va maktab Pedagogik kengashi maxsus belgilagan guruh tomonidan amalga oshiriladi. Bu ish choraklik va o‘quv yili davomida amalga oshiriladigan maxsus Rejaga asosan yo‘lga qo‘yiladi. Shu jihatdan monitoring bu tekshirish emas, aksincha, jarayonni kuzatish, o‘rganish va samaradorlikni nazorat qilishdir. Monitoring natijasida amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlarga baho beriladi, uning yutuq va kamchiliklari aniqlanadi. Shu sababli rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida monitoring masalasiga alohida e’tibor beriladi. Kezi kelganda

¹ Qarang: Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – Toshkent, 2009.

ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda monitoring tushunchasi va uni amalga oshirish mexanizmlari mustaqillik yillarda tarkib topdi. Shu sababli mustaqillik yillarda yaratilgan pedagogik ilmiy-tadqiqotlarda monitoring va uning asoslari bo'yicha o'ziga xos qarashlar, tavsiyalar va yo'nalishlar berib o'tilgan. Eng asosiysi, monitoring ishlari rejali, maqsadli va aniq vazifalarni qo'yan holda amalga oshirilsa, kutilgan samarani beradi. Tarbiyaviy ishlar monitoringi deganda tarbiyaviy tadbirlarning amaliy samaradorligini o'rganish tushuniladi. Bu borada quyidagi tuzilmaga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Namunaviy shakl

T/r	O'r ganiladigan jarayonning yo'nalishlari	Mavjud muammolar	Muammolarning sabablari

Mazkur tuzilma asosida boshlang'ich ta'limda amalga oshirilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini o'rganib borish maqsadga muvofiqdir. Bunday monitoring quyidagi muddatlarda o'tkazilishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) har chorak yakunida;
- 2) o'quvchilarning katta ta'tili yakunida;
- 3) o'quv yili yakunida.

Bunday yondashuv o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini muntazam o'rgaib borish imkoniyatlarini beradi. Shu sababli xorijiy mamlakatlarda monitoringning imkoniyatlaridan keng foydalilanildi.

Boshlang'ich sinflarda amalga oshiriladigan har chorak yakunidagi monitoringda tarbiyaviy ishlarning samaradorligi va o'tkazilgan tarbiyaviy tadbirlarning ta'sirchanligi masalalari aniqlanib, kamchilik va xatolarni tuzatish bo'yicha tavsiyalar shakllantiriladi. Bunday tavsiyalar asosida sinf rahbarlari va fan o'qituvchilari tarbiyaviy tadbirlar jarayonida tarbiyaviy ishlarning amaliy jihatlarini kuchaytirish bo'yicha faoliyat olib boradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qishki ta'tili davrida, ya'ni katta ta'til yakunida sinf rahbari tomonidan maxsus tuzilgan kichik testlar asosida tarbiyaviy ishlar monitoringi amalga oshiriladi. Bundan maqsad ta'til davrida o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasiga bo'lgan ta'sirlarini, omillarini va amaliy jihatlarni aniqlashdan iborat. Agar bunda monitoring natijalari

ijobiy natija bersa, o‘quvchilar bilan maxsus tarbiyaviy treninglar o‘tkazilmaydi, agar monitoring natijalari salbiy ko‘rsatkichlarni bersa, o‘quvchilarning axloqi, xatti-harakati hamda munosabatlarida paydo bo‘lgan salbiy xususiyatlar korreksiya qilinadi va bu ishlar sinf rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quv yili yakunida amalga oshiriladigan monitoringning asosiy vazifasi o‘quv yili davomida o‘tkazilgan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligi va o‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini baholashdan iborat. Mazkur yakuniy monitoring asosida sinf rahbarlari yangi o‘quv yilda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar rejalarini ishlab chiqadi va ularni amalga oshirish bo‘yicha eng qulay hamda samarali tarbiyaviy tadbirlar ko‘lamini belgilaydi. Buning natijasida boshlang‘ich sinflarda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar monitoringi faoliyatning amaliy samarador bo‘lishiga asos bo‘ladi.

Maktab jamoasi va Pedagogik kengash monitoring mavzularini belgilab berishi, monitoringni o‘tkazish guruhini tuzishi va monitoring o‘tkazilgach, belgilangan guruh tomonidan uning natijalari tahlil qilinishi zaruriyat hisoblanadi. Monitoring yakunlari asosida amalga oshirilgan tarbiya jarayonining samaradorligi aniqlanadi va xato yoki kamchiliklarning ko‘lamni to‘g‘risida ma‘lumotga ega bo‘linadi.

Yunon faylasufi Aristotel “Siyosat” asarida yozadi: “Demokratiya sharoitida har bir jarayon monitoring qilinishi natijasida boshqariladi, shu jihatdan ta’lim jarayonini monitoring qilish davlatning asosiy siyosatidan biri bo‘lishi kerak”.¹ Shu sababli hozirgi Yevropa mamlakatlarda mazkur faylasuf davridan boshlab ta’lim jarayoni izchil monitoring qilib kelinmoqda. Biroq, mazkur mamlakatlarda tarbiyaviy ishlar jarayoni ko‘p hollarda monitoring qilinmaydi. Chunki yuqorida ta’kidlanganidek, mazkur mamlakatlarda individual shaxsni voyaga yetkazish asosiy maqsad hisoblanadi. Bularni ta’kidlashdan maqsad ta’lim va tarbiya jarayonini uyg‘un monitoring qilib borish kutilgan samarani beradi.

Eslatib o‘tish joizki, mamlakatimiz ta’lim tizimida birinchi monitoring 1961-yil Toshkent shahri umumiy o‘rtacha ta’lim maktablarida o‘tkazilgan. Shu ma’noda pedagogikamiz jarayoni ta’lim va tarbiyaning samaradorligini monitoring qilish bo‘yicha muayyan tajribaga ega.

¹ Аристотел. Политика. – Москва, 2006. – С 61.

Bundan ma'lum bo'ladiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oliv pedagogik ta'lim jarayonida ta'lim va tarbiya jarayonini uyg'un monitoring qilish asoslarini o'zlashtirishi taqozo etiladi.

Tarbiyaviy ishlarni monitoring qilib borish mexanizmi.

Mexanizm bu – muayyan jarayonni o'rganish vositalari, metodlari va asosiy yo'naliшlaridir. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarni monitoring qilib borish mexanizmini quyidagilar tashkil etadi:

1) kuzatish, bunda muayyan o'quvchi shaxsi yoki sinf o'quvchilarining tarbiyalanganlik darajasi muntazam ravishda sinf rahbari tomonidan o'rganib boriladi;

2) o'rganish, bunda maktab Pedagogik kengashi qarori bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarining muayyan fazilatlarni o'zlashtirishi va ularning ijtimoiy faolligi maxsus Guruh tomonidan o'rganiladi;

3) tahlil, bunda monitoring natijalari muammolar va ularning yechimlari qismlarga bo'linib, tadqiq etiladi.

Bunday mexanizmlarga amal qilish tarbiyaaviy ishlarning samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiyaviy ishlarni monitoring qilib borish mexanizmlarida quyidagilarga e'tibor berish muhim o'rinn tutadi:

1) boshlang'ich sinf o'quvchilarini ko'proq bo'ladigan muhitga e'tibor berish;

2) boshlang'ich sinf o'quvchilarining jamoatchilik va guruhlari toifalariga e'tibor berish;

3) boshlang'ich sinf o'quvchilarining do'stlari, o'rtoqlari va ular ko'p muloqotda bo'ladigan guruhlar toifasiga e'tibor berish.

Bundan asosiy maqsad tarbiyaviy ishlarni monitoringini o'quvchilarining faoliyati asosida amalga oshirishdan iborat. Chunki monitoring vositasida o'quvchilar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ijtimoiy guruhlar, toifalar yoki shaxslarni aniqlash imkoniyatlariga ega bo'linadi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda amalga oshiriladigan monitoring olib borish mexanizmlari, eng avvalo, o'quvchilar muhiti va ular faol munosabatda bo'ladigan guruhlar, toifalar hamda shaxslar bilan ishlashdan iborat. Bu bilan sinf rahbarlari fan o'qituvchilariga har bir o'quvchining tarbiyaviy ko'nikmalari to'g'risida aniq ma'lumotlar berish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kuzatishlar va o'rganishlar shuni ko'rsatadiki, keyingi 10 yil

davomida mamlakatimiz ta’lim tizimida maxsus monitoring muntazam ravishda amalga oshirilmagan. Shu sababli 2022-yil aprel-may oylarida mamlakatimiz umumiy o‘rtta ta’lim maktablari 7-sinf o‘quvchilarining ta’lim olishi, fikrlash darajasi va tarbiyalanganlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha PISA xalqaro baholash dasturi asosida monitoring qilindi. Uning natijasida umumiy o‘rtta ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarning yo‘nalishlari belgilab olindi.

Kezi kelganda eslatib o‘tish joizki, bunday xalqaro ta’lim dasturlari asosida tarbiya jarayonini monitoring qilib borish muhim mexanizm hisoblanadi. Misol uchun, TIMSS xalqaro ta’lim dasturi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim va tarbiyalanganlik darajasini monitoring qilish imkoniyatlari yuqoridir. PIRLS xalqaro ta’lim dasturi asosida o‘quvchilarning matematik savodxonligi va axloqiyligini monitoring qilish keng imkoniyatlarni beradi. STEAM xalqaro ta’lim dasturi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining san’at fanlarini o‘zlashtirishi va bunday fanlar vositasida estetik tarbiyalanishi jarayonini monitoring qilish kutilgan samarani beradi. Chunki mazkur dasturlar ta’lim va tarbiya jarayonini baholashga yo‘naltirilgan. Shu jihatdan mazkur dasturlar asosida boshlang‘ich ta’limda amalga oshirilgan tarbiyaviy ishlarni monitoring qilish bilan quyidagilarga erishiladi:

birinchidan, boshlang‘ich ta’limda amalga oshirilgan tarbiyaviy ishlarning amaliy jihatlari to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lishda va bunday tadbirlarning yo‘nalishini belgilab olishga erishiladi;

ikkinchidan, mamlakatimiz ta’lim tizimining yutuqlarini xalqaro miqyosda targ‘ibot qilish imkoniyatlariga ega bo‘linadi;

uchinchidan, ushbu xalqaro ta’lim dasturlari asosida tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish mexanizmiga ega bo‘linadi.

Shu sababi oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga TIMSS, PISA, PIRLS va STEAM xalqaro dasturlarining maxsus kurs vositasida o‘qitilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tarbiyaviy ishlar monitoringining amaliy ahamiyati. Boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarni monitoring qilishning amaliy ahamiyati idrok etilishi kerak. Bunda quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1) tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini aniqlash va ularning

qiziqarlilik darajasini o'rganib borish;

2) boshlang'ich sinf o'quvchilari axloqida qaysi fazilatlarning shakllanganligini bilish va shunga asosan tarbiyaviy tadbirlar ko'lамини belgilash;

3) boshlang'ich sinflar kesimida o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini qiyoslash va unda faol sinf rahbarlarining faoliyatini baholash.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'qituvchilari va sinf rahbarlarining tarbiya jarayoni bo'yicha faoliyatini baholash imkonini beradi. Shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda umumiy o'rta ta'limga muktablarida o'qituvchilar kategoriya asosida faoliyat yuritmoqda va ularning maoshlari kategoriyasiga binoan egallanadi. Shu jihatdan tarbiyaviy ishlarda samaradorlikka erishish uchun quyidagilarga e'tibor berish amaliy ahamiyatga ega:

1) boshlang'ich ta'limga amalga oshirilgan tarbiyaviy tadbirlarning mutaxassislar ishtirokida o'tkazilishini monitoring qilib borish;

2) boshlang'ich ta'limga tarbiyaviy tadbirlar samaradorligini oshirishda hududdagi o'zga ta'limga muassasalarini ishtirokida monitoring o'tkazish;

3) ilmiy asoslangan metodlar asosida monitoring o'tkazish.

Bunday yondashuv tarbiyaviy ishlar monitoringining amaliy ahamiyatini kuchaytiradi. Shu sababli oliy ta'limga jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini monitoring o'tkazish asoslari bilan tanishtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tarbiyaviy ishlar monitoringining amaliy ahamiyatini anglashda o'quv yili davomida amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarning turlari, ularning ta'sirchanligi va amaliy samaradorligi masalalariga e'tibor berish kerak. Aynan tarbiyaviy tadbirlar monitoring vositasida muhim amaliy ma'lumotlarni berishi bilan ahamiyatga ega. Shu sababli tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish jarayonida qo'llaniladigan tarbiyaviy tadbirlarning zamonaviy xususiyatlarga ega bo'lishiga alohida e'tibor berish kerak. Bunda har bir tarbiyaviy tadbirning original, o'ziga xos va qiziqarli bo'lishi muhim o'rinni tutadi hamda tarbiyaviy tadbirlarning o'zaro o'xshashligi yoki bir-birini takrorlashi yondashuvlaridan voz kechish lozim. Shu sababli oliy pedagogik ta'limga jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zamonaviy tarbiyaviy tadbirlarini kashf etish, bu borada amaliy izlanish va zamonaviylik talablari asosida tarbiyaviy tadbirlarni ishlab chiqish

ko‘nikmasini shakllantirish taqozo etiladi. Buning uchun “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o‘quv fani doirasida tarbiyaviy tadbirlar bo‘yicha talabalar orasida amaliy treninglarni, tashabbusli ko‘rgazmalar va kechalarni o‘tkazib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ayni paytda, tyutorlar o‘z guruhidagi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tarbiyaviy tadbirlar bo‘yicha amaliy ko‘nikmasini shakllantirishda muhim vazifalarni bajarish kerakligi ma’lum bo‘ladi. Shu jihatdan tyutorlarning tarbiyaviy tadbirlari talabalar tomonidan o‘zlashtirib borilishi maqsadga muvofiqligini ta’kidlash lozim.

Shunday qilib, boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning monitoringiga va u asosda tegishli ma’lumotlarga ega bo‘lish tarbiyaviy tadbirlar samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Tarbiyaviy ishlar monitoringining tuzilishini o‘rganing.
2. Tarbiyaviy ishlarni monitoring qilib borish mexanizmlarini konsept qiling.
3. Tarbiyaviy ishlar monitoringining amaliy ahamiyatini o‘zlashtiring.

11-MAVZU: TARBIYAVIY ISHLAR AMALIYOTINI O‘RGANIB BORISH XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Tarbiyaviy ishlar amaliyotini o‘rganib borish tizimi.
2. Tarbiyaviy ishlar amaliyotini o‘rganib borish tajribalari.
3. Tarbiyaviy ishlar amaliyotini o‘rganib borishning ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: tarbiya, amaliyot, tizim, tajriba, o‘rganish, tashkil etish, bilim, ko‘nikma, malaka.

Tarbiyaviy ishlar amaliyotini o‘rganib borish tizimi. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida 2022-yil yanvar oyidan boshlab, haftasiga ikki kun malakaviy amavliyot joriy etildi. Shu sababli “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o‘quv fani bo‘yicha haftalik malakaviy amaliyotni tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Haftalik malakaviy amaliyot quyidagi imkoniyatlarni berishi bilan muhim hisoblanadi:

- 1) talabalar auditoriyada o‘rgangan nazariy bilimlarini bevosita o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida sinovdan o‘tkazishadi;
- 2) talabalar amaliy faoliyatdagi o‘qituvchilarining tarbiya ishlari bo‘yicha tajribalarini o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishadi;
- 3) talabalar tarbiyaviy ishlar asoslarini bevosita maktabda tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazish bilan o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

E’tibor berilsa, bunday imkoniyatlardan foydalangan holda tarbiyaviy ishlar metodikasi bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini egallash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu sababli quyidagilarga amal qilish kutilgan samaranı beradi:

- 1) talabalarning amaliyot rejasiga bevosita tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazishni ham kiritish;
- 2) talabalarning tarbiyaviy tadbirlar bo‘yicha amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lishlari uchun ularning shaxsiy tashabbusi asosida tadbirlar o‘tkazish;
- 3) talabalarning tarbiyaviy tadbirlarga doir yondashuvlari asosida amaliyot va nazariya uyg‘unligiga erishish.

Diqqat qilinsa, tarbiyaviy ishlar amaliyotida haftalik malakaviy amaliyotning muhim ahamiyati bor. Shu sababli amaliyot rahbari mazkur yo‘nalish bo‘yicha talabalar bilan ishlashi taqozo etiladi. Ayni paytda tarbiyaviy ishlar amaliyotini o‘rganib borish tizimi bilan tанишish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur tizimning asosiylari quyidagilardan iborat:

- 1) boshlang‘ich sinflarda o‘tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlar tizimini o‘rganish;
- 2) boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tarbiyaviy ishlar bo‘yicha tajribalarini o‘rganish;
- 3) mакtab jamoasining tarbiyaviy ishlar bo‘yicha faoliyatini kuzatish.

Bu tizimga amal qilish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tarbiyaviy ishlar amaliyotida tizimdan foydalanish ko‘nikmasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar amaliyotini o‘rganib borish tizimi muhim xususiyatlarga ega. Bunday tizim vositasida o‘quv yili davomida amalga oshirilgan tarbiyaviy

ishlarning yakunlari bo'yicha muhim ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Shu sababli tarbiyaviy ishlar amaliyotini aniqlashda quyidagi tizimga asoslanish kutilgan samarani beradi:

- a) boshlang'ich sinflar kesimida tarbiyaviy ishlar amaliyotini o'rganish;
- b) har bir sinfdagi o'quvchilar guruhi kesimida tarbiyaviy ishlar amaliyotini o'rganish;
- v) maxsus tarbiyaviy jarayon amalga oshirilgan o'quvchilar bo'yicha tarbiyaviy ishlar amaliyotini o'rganish;
- g) boshlang'ich sinflarda amalga oshirilgan tarbiyaviy ishlar amaliyotini hududlardagi umumiyligi o'rta ta'lim mакtablari boshlang'ich sinflari bilan qiyosiy ravishda o'rganish.

Bunday tizimga amal qilish tarbiyaviy ishlarning amaliy samaradorligini kutilgan darajada aniqlab olish imkonini beradi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" hamda "Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi" kabi o'quv fanlari vositasida tarbiyaviy ishlar amaliyotini o'rganish ko'nikmasini chiqur egallashi taqozo etiladi. Buning uchun fanlar bo'yicha o'zlashtirganlarini haftalik amaliyot davrida pedagogik tajriba-sinovdan o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu borada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining va tyutorlarining faolligi taqozo etiladi.

Tarbiyaviy ishlar amaliyotini o'rganib borish tajribalari. Boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar amaliyotini o'rganib borishda turli tajribalar mayjud bo'lib, ular yillar davomida mazkur yo'nalishda to'plangan asoslarga tayanadi. Shu jihatdan mazkur tajribalarning asosiyлari sifatida quyidagilarni ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) milliy pedagogikamiz tarixidagi kichik maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash tajribalarini o'rganish va o'zlashtirish;
- 2) o'tgan asrdan boshlab bugungi kungacha boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashning amaliy va ilmiy tajribalariga tayanish;
- 3) xorijiy mamlakatlarning boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashdagi an'analarini o'rganish va amaliy faoliyatda ulardan foy-dalanish.

Bularning barchasi boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar amaliyoti darajasini nazorat qilib borish imkonini beradi.

Kezi kelganda shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning bevosita amaliy samaradorligiga ustuvor darajada ahamiyat berish tarkib topgan. Chunki bugungi kunga qadar tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda nazariy yondashuvning ustuvorligi, tadbirlar ko‘laming kengayib ketganligi va ularning amaliy samaradorligini o‘rganib borish susayganligini ta’kidlash lozim. Ayni paytda, o‘quv-texnik vositalarga tayangan zamonaviy texnologiyalarning rivojlanib borayotganligi boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning amaliy jihatlariga qat’iy tayanishini taqozo etadi. Shu sababli mazkur masalada ilmiy va amaliy ishlanmalar yaratish zaruriyat bo‘lib turibdi.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida tarbiyaviy ishlar amaliyoti bo‘yicha o‘ziga xos ko‘nikmani shakllantirish taqozo etiladi. Buning uchun pedagogik turkumdagi fanlar, “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi” hamda “Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” o‘quv fanlarining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir. Misol uchun, mazkur ikki fanning Mustaqil ta’lim qismida berilgan topshiriq va vazifalar asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tarbiyaviy ishlar amaliyoti bo‘yicha ko‘nikmasini kutilgan darajada shakllantirish imkoniyati mavjud. Shu sababli mazkur o‘quv fanlari bo‘yicha ta’lim beruvchilar tarbiyaviy ishlar metodikasi masalasida hamkorlik qilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich ta’lim tarbiyaviy ishlari amaliyotida ularning samaradorligini o‘rganib borish tajribalari mazkur ish bilan shug‘ullanuvchilarining choraklik va o‘quv yili yakunlari asosida takomillashib boradi. Shu sababli muayyan o‘quv yili davomida o‘zlashtirilgan tajribalarni yangi o‘quv yili jarayonida takomillashtirish va rivojlantirish yo‘lidan borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun quyidagilarga e’tibor berish kutilgan samarani beradi:

- a) fan o‘qituvchilarining tarbiyaviy ishlarda erishgan amaliy samaralarini bo‘yicha individual tajribalarini o‘rganish;
- b) sinf rahbarlarining tarbiyaviy ishlar bo‘yicha erishgan amaliy samaralarini qiyosiy tarzda o‘rganish;
- v) kutilgan samaraga erishgan o‘qituvchilarining tarbiyaviy ishlar tajribalarini ommalashtirish.

Bunday yondashuv asosida boshlang‘ich sinflarda amalga oshirilgan tarbiyaviy ishlar amaliyotining tajribalarini ta’lim muassasasi doirasida va hududlar kesimida ommalashtirib borish imkoniyatiga ega bo‘linadi. Chunki hozirgi texnologik rivojlanish jarayonida deyarli har kuni biror yangilik amaliyotga tadbiq etilmoqda. Shu sababli tarbiyaviy ishlar amaliyotida tajribalarni o‘rganib borish ishlarida butunlay yangicha yondashuvlarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda an’anaviylik va noan’anaviylikni uyg‘unlashtirish tamoyiliga tayanish kutilgan samarani berishini ta’kidlash lozim. Chunki an’anaviylik vositasida o‘zlashtirilgan tajribalarning bardavomligi ta’milanadi va noan’anaviylik vositasida mavjud tajribalarning amaliy jihatlari yangicha yondashuvlar asosida baholanadi. Shu jihatdan oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tarbiyaviy ishlar amaliyoti tajribalarini o‘rganib borish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirish taqozo etiladi.

Tarbiyaviy ishlar amaliyotini o‘rganib borishning ahamiyati. Boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar amaliyotini o‘rnaib borish bu borada muhim ahamiyatga ega. Chunki boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar o‘quvchilarning dinamik rivojlanishiga mos ravishda takomillashib boradi. Shu jihatdan mazkur masalaning ahamiyati sifatida quyidagilarni idrok etish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- 1) boshlang‘ich ta’limda amalga oshirilgan tarbiyaviy tadbirlarning qanday amaliy natijalar berayotganligini o‘rganib borish;
- 2) mazkur jarayonda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarni takomillashtirib borish;
- 3) bu jarayonda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning amaliy samaradorligini muntazam ravishda o‘rganib borish.

Bunday yondashuv boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning amaliy ahamiyatini anglash imkonini beradi.

Umuman, boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar muntazam ravishda uni amalga oshiruvchilar tomonidan kuzatilib borilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tarbiyaviy ishlar amaliyotini o‘rganib borishning ahamiyati shundaki, uning vositasida muhim ma‘lumotlar va o‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘linadi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, mazkur o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning

tarbiyalanganlik darajasini aniqlashda quyidagi indikatorlarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

- 1) o‘quvchilarning axloqiy shakllanganlik darajasi;
- 2) o‘quvchilararo tarbiyalanganlik darajasining ko‘lami;
- 3) o‘quvchilarda axloqiy munosabatlarning shakllanganlik darajasi.

Mazkur indikatorlar asosida tarbiyaviy ishlarning ahamiyatini baholash kutilgan samarani beradi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bunday indikatorlar tizimini o‘zlashtirishi maqsadga muvofiqdir. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘p talabalar o‘z faoliyati davomida o‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi va uning ahamiyatini o‘rganishda murakkabliklarga duch keladi. Shu sababli bu borada tyutorlar har bir tarbiyaviy tadbirlar vositasida talabalar bilan individual ishslashga harakat qilishi maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarning amaliyotini muntazam kuzatish, o‘rganib borish va nazorat qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday malakalar bilan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari oliv pedagogik ta’lim jayronida qurollantirilishi kutilgan samarani beradi.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Tarbiyaviy ishlar amaliyotini o‘rganib borish tizimini o‘rganing.
2. Tarbiyaviy ishlar amaliyotini o‘rganib borish tajribalarini o‘zlashtiring.
3. Tarbiyaviy ishlar amaliyotini o‘rganib borishning ahamiyatini konspekt qiling.

12-MAVZU: TARBIYAVIY ISHLAR AMALIYOTIDA JAMOATCHILIKNING ISHTIROKI

Reja:

1. Tarbiyaviy ishlar amaliyotida yoshlar yetakchilari faoliyati.
2. Tarbiyaviy ishlar amaliyotida mahallaning ishtiroki.
3. Tarbiyaviy ishlar amaliyotida muassasalar hamkorligi.

Tayanch tushunchalar: tarbiya, ish, amaliyot, jamoatchilik, ishtirok, yetakchilik, faoliyat, mahalla, muassasa, hamkorlik.

Tarbiyaviy ishlar amaliyotida yoshlar yetakchilari faoliyati.

Boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar amaliyotida jamoatchilikning ishtiroki muhim o‘rin tutadi. Bu o‘rinda eslatib o‘tish joizki, jamoatchilik ishtiroki – yordamchi, maslahat va qo‘llab-quvvatlash xususiyatiga ega bo‘lib, bunday ishtirok tarbiyaviy ishlar qonuniyatlari va asoslariga daxl qilmasligi lozim. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar amaliyoti jarayonida *Yoshlar yetakchilarining faoliyati* muhim ahamiyatga ega.

“Umumiy o‘rtta ta’lim maktablarida yoshlar yetakchilari Nizomi”ga asosan ta’lim muassasalarida Yoshlar yetakchilari faoliyat yuritmoqda. Ularning asosiy vazifalari o‘quvchilar bilan ishslash, ularning layoqatlarini rivojlantirishga yordam berish va ularni faollashtirishdan iborat. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar amaliyotida Yoshlar yetakchilari quyidagi vazifalarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- 1) har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisi bilan individual ishslash;
- 2) sinflar kesimida ishslash;
- 3) maktablar kesimida qiyosiy shaklda ishslash.

Yoshlar yetakchilarining har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisi bilan individual ishslashida quyidagilarga amal qilishi kutilgan samarani beradi:

- o‘quvchilarining o‘zlashtirish jarayonini aniqlash bo‘yicha o‘rganishlar olib borish;

- o‘quvchilarining o‘qishga doir muammolarini o‘rganish, ularning qiziqishlarini aniqlash va muammolarni hal etish bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari hamda sinf rahbarlari bilan hamkorlik qilish;

- o‘quvchilarning layoqat va iqtidorlarini aniqlab, ularni rivojlantrishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.

Bunday yondashuv Yoshlar yetakchilarining boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlardagi ishtirokini aniq namoyon qiladi.

Mazkur yetakchilarning sinflar kesimida tarbiyaviy ishlar amaliyotida ishtirok etishi uchun quyidagilarga amal qilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirganlik, tarbiyalanganlik va faollik yo‘nalishlari bo‘yicha muvaffaqiyatlarini o‘rganib borish;

- muvaffaqiyatga erishayotgan boshlang‘ich sinflarning yutuqlarini o‘zga sinflarga taqdim qilish;

- boshlang‘ich sinflarda amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlarga doir yuzaga keladigan muammolarning sabablarini aniqlab borish va bu boradagi ma’lumotlarni sinf rahbarlariga taqdim etish.

E’tibor berilsa, bularning barchasi Yoshlar yetakchilarining sinflar kesimida ishslash faoliyatni imkoniyatlarini kengaytiradi.

Yoshlar yetakchilarining maktablar kesimida boshlang‘ich ta’limda amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlar amaliyoti bo‘yicha qiyosiy shaklda ishtirok etishi uchun quyidagilarga ahamiyat berish taqozo etiladi:

- muayyan maktabning boshlang‘ich ta’limda amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlar bo‘yicha tajribalarini o‘rganib, ularni hududiy yaqin maktablarda amalga oshirilayotgan mazkur jarayonlarga qiyoslab borish;

- boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar bo‘yicha muvaffaqiyatga erishayotgan maktablarning tajribalarini ommalashtirish;

- boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish bo‘yicha hududiy maktablarning boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari hamkorligini tashkil etish.

Diqqat qilinsa, bunday yondashuv Yoshlar yetakchilarining boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish amaliyotida maktablarning tajribalarini o‘zaro ayriboshlash jarayonida muhim faoliyatga ega bo‘lishini ta’minlaydi.

Yoshlar yetakchilari mazmun va mohiyat jihatidan yangi tuzilma. Shu sababli ularning boshlang‘ich ta’lim tarbiyaviy ishlari amaliyotida

ishtiroki yangicha asoslarga tayanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ta’kidlash lozimki, Yoshlar yetakchilarining faoliyatidan tarbiyaviy ishlar amaliyotida oqilona foydalanish ko‘nikmasi oliv pedagogik ta’lim jarayonida egallanadi. Buning uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ta’lim vositasida quyidagilarni o‘zlashtirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- 1) davlatning yoshlari siyosatiga oid qonunlari, me’yoriy hujjatlari va yoshlarga oid xalqaro hujjatlardan xabardor bo‘lish;
- 2) yoshlarning huquqlari, majburiyatlari va burchlari bo‘yicha ko‘nikmaga ega bo‘lish;
- 3) yoshlar bilan ishslash metodlari, vositalari va texnologiyalarini bilish;
- 4) yoshlar bilan amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlar to‘g‘risida malakaga ega bo‘lish.

Bunday yondashuv bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kelgusida tarbiyaviy ishlar amaliyotida Yoshlar yetakchilari faoliyatidan oqilona foydalanish ko‘nikmasini tarkib toptirishga olib keladi. Buning natijasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda Yoshlar yetakchilari bilan hamkorlik qilish va ular vositasida belgilangan tarbiyaviy tadbirlar samarasiga erishish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Tarbiyaviy ishlar amaliyotida mahallaning ishtiroki. Mamlakatimiz jamiyati rivojida dunyo mamlakatlarda qiyosi yo‘q *mahalla* tuzilmasi muhim o‘rin tutmoqda. Chunki mahalla tuzilmasi jamoat-chilikning fikri va tajribasi asosida faoliyat yuritadi. Shu jihatdan mahalla faollarining boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar amaliyoti jarayonida ishtiroki quyidagilarga asoslanadi:

- 1) ota-onalar bilan ishslash;
- 2) sinf rahbarlari bilan ishslash;
- 3) o‘qituvchilar bilan ishslash.

Bunday yondashuv mahalla faollarining funksiyasidan kelib chiqadi. Shu jihatdan mahalla faollarining ota-onalar bilan ishlashi quyidagilarga asoslanadi:

- boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ota-onasi bilan ularning tarbiyasi bo‘yicha muntazam suhbatlar olib borish va istalmagan muammo yuzaga kelganda ularni jamoatchilik asosida hal etish;

- ota-onalarning o‘quvchilar tarbiyasi bo‘yicha takliflari va

tashabbuslarini umumlashtirib, ular asosida ommaviy tadbirlar tashkil etish hamda bunda boshlang‘ich ta’lim ishtirokchilari bilan keng hamkorlik qilish;

- farzandi muvaffaqiyatga erishayotgan ota-onalarini mahalla tuzilmasi imkoniyatlari asosida targ‘ibot etish va ularning tajribalarini ommalashtirish.

Bunday yondashuv mahalla faollarining ota-onalar bilan aniq yo‘nalishlar bo‘yicha tarbiyaviy ishlar amaliyotida ishtirokini ta’minlaydi.

Mahalla faollarining boshlang‘ich sinf rahbarlari bilan ishlashida quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- sinf rahbarlarining tarbiyaviy ishlar Rejalarida belgilangan tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishida yordamlashish;

- sinflar kesimida yuzaga keladigan tarbiyaviy ishlar bo‘yicha muammolarni hal etishda sinf rahbarlariga tajribali kishilarning maslahatlari va yordamlarini uyushtirish;

- tarbiyaviy ishlar amaliyotida muvaffaqiyatga erishayotgan sinf rahbarlarining tajribalarini ommalashtirish.

E’tibor berilsa, bular asosida mahalla faollari sinf rahbarlari bilan tarbiyaviy ishlar amaliyotida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Mahalla faollarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini bilan ishlashida quyidagilar muhim o‘rin tutadi:

- o‘qituvchilarning tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish Rejalarini amalga oshirish bo‘yicha hamkorlik qilish;

- boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tarbiyaviy tadbirlar bo‘yicha tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va amalga oshirishda ko‘maklashish;

- boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga yordam tariqasida mahallaning tajribali va faol faollarini biriktirish.

Diqqat qilinsa, bularning barchasi mahalla faollarining har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bilan tarbiyaviy ishlarda amaliy hamkorlik qilish imkoniyatlarini beradi.

Umuman, boshlang‘ich ta’lim tarbiyaviy ishlar amaliyotida mahalla faollari tashkiliy, ommalashtirish va yordam ko‘rsatish shakllarida ishtirok etadi. Bu bilan mahalla hududidagi umumiyl o‘rtta ta’lim matablarining boshlang‘ich sinflarida amalga oshirilayotgan tarbiyaviy tadbirlarni jamoatchilik asosida muvofiqlashtirish va ularning ham-

korligini yo‘lga qo‘yish imkoniyatlariga ega bo‘linadi.

Ta’kidlash lozimki, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va nuroniyarni qo‘llab-quvvatlash vazirligining vakillari mahallalarda faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu vakillar mahalla muammolarini hal etish, jumladan, mahalladagi tarbiyaviy muhit uchun mas’ul hisoblanadi. Shu sababli boshlang‘ich sinflarda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar jarayonida mazkur vakillar bilan hamkorlik qilish kutilgan samarani beradi. Bunda mahalla vakillarining ota-onalar bilan ishslashlari tajribalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va sinf rahbarlari mahalla vakillari bilan hamkorlikda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyaviy ishlarini amalga oshirishi bilan kutilgan samaraga erishadi.

Tarbiyaviy ishlar amaliyotida muassasalar hamkorligi. Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar amaliyotida maktablar joylashgan hududlardagi muassasalarining ishtiroki ham muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda maktablar joylashgan hududlarda tadbirkorlik sub’ektlari, ishlab chiqarish korxonalari va o‘rtalik maxsus hamda oliy ta’lim muassasalarini faoliyat yuritmoqda. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim tarbiyaviy ishlari amaliyotida bu *muassasalar* ishtiroki quyidagilarga asoslanadi:

- 1) ta’lim muassasalarini bilan hamkorlik;
- 2) ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorlik;
- 3) tadbirkorlik sub’ektlari bilan hamkorlik.

Boshlang‘ich ta’lim tarbiyaviy ishlar amaliyotida maktablar tomonidan hududlardagi ta’lim muassasalarini bilan hamkorligida quyidagilar muhim o‘rin tutadi:

- tarbiyaviy ishlar metodologiyasi, nazariyasi va texnologiyalaridan foydalanish asoslari bo‘yicha hamkorlik;
- boshlang‘ich ta’lim tarbiyaviy ishlarining samaradorligiga erishish bo‘yicha hamkorlik;
- boshlang‘ich ta’lim tarbiyaviy ishlarida yuzaga keladigan muammolarni pedagogik jihatdan hal etib borish bo‘yicha hamkorlik.

Hududlardagi ta’lim muassasalarining bunday ishtiroki maktablarning boshlang‘ich ta’lim bosqichida amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlarning amaliy samaradorligiga erishish imkoniyatlarini kuchaytiradi.

Maktablarning hududlardagi ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorligida quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlarni

korxonalarining texnik yordamlari asosida amalga oshirish;

- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini muzeylar, qadimiy shaharlar va tabiatning diqqatga sazovor joylariga sayohatlarini uyuştirishda hamkorlik qilish;

- iqtidorli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining turli tanlovlari, musobaqalar va tadbirlarda ishtirok etishini ta’minlash bo‘yicha hamkorlik qilish.

E’tibor berilsa, ishlab chiqarish korxonalarining boshlang‘ich ta’lim tarbiyaviy ishlari amaliyotidaga ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Chunki bunday hamkorlik tarbiyaviy ishlarning kutilgan darajadagi amaliy natijalariga erishish imkonini beradi.

Maktablarning boshlang‘ich ta’lim tarbiyaviy ishlari bo‘yicha tadbirkorlik sub’ektlari bilan hamkorlik qilishi quyidagilarga asoslanishini ta’kidlab o‘tish joiz:

- boshlang‘ich sinf xonalarini tarbiyaviy vositalar va jihozlar bilan ta’minlash bo‘yicha hamkorlik;

- iqtidorli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy ishlanmalarini mahsulot shakliga aylantirish bo‘yicha hamkorlik;

- tarbiyaviy ishlar bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga texnik yordam ko‘rsatish shaklida hamkorlik.

Diqqat qilinsa, maktablar joylashgan hududlardagi tadbirkorlik sub’ektlarining tarbiyaviy ishlardagi ishtiroki aniq yo‘nalishlarga ega.

Umuman olganda, boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar amaliyotida Reyting tizimidan foydalanish kutilgan samarani beradi. Buning uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

1) boshlang‘ich sinflarda amalga oshirilgan tarbiyaviy ishlar Reytingi;

2) boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar bo‘yicha sinf rahbarlari faoliyati Reytingi;

3) oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tarbiyaviy ishlar metodikasi bo‘yicha ko‘nikmasining shakllanishi Reytingi.

Bunday yondashuv reytinglar vositasida boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni zamonaviy talablar darajasida amalga oshirish va uning samaradorligini baholab borish imkonini beradi.

Shunday qilib, boshlang‘ich ta’lim tarbiyaviy ishlari amaliyotida

jamoatchilikning ishtiroki amaliy shakllarga egaligi bilan muhim ahamiyatga ega. Shu sababli bunday ishtirokchilarning o‘zaro manfaatlil hamkorlik qilishini ta’minlash maktab jamoasi zimmasiga tushadi. Chunki boshlang‘ich ta’lim tarbiyaviy ishlarida jamoatchilikning amaliy ishtirok etishi bu jarayonda muvaffaqiyatga erishish davridir.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Tarbiyaviy ishlar amaliyotida yoshlar yetakchilari faoliyatini asoslarini o‘rganing.
2. Tarbiyaviy ishlar amaliyotida mahallaning ishtiroki shakllarini o‘zlashtiring.
3. Tarbiyaviy ishlar amaliyotida muassasalar hamkorligi omillarini konspekt qiling.

13-MAVZU: TARBIYAVIY ISHLAR AMALIYOTI SAMARADORLIGI

Reja:

1. Tarbiyaviy ishlar amaliyoti samaradorligini baholash mexanizmlari.
2. Tarbiyaviy ishlar amaliyoti samaradorligini yuritish vositalari.
3. Tarbiyaviy ishlar amaliyotida samaradorlikni tahlil qilish shakllari.

Tayanch tushunchalar: tarbiya, tadbir, amaliyot, samara, baholash, mexanizm, vosita, bilim, ko‘nikma, malaka.

Tarbiyaviy ishlar amaliyoti samaradorligini baholash mexanizmlari. Boshlang‘ich ta’lim tarbiyaviy ishlari amaliyotida uning samaradorligini *baholab borish* muhim ahamiyatga ega. Buning uchun muayyan mexanizmlarga asoslanish kutilgan samarani beradi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim tarbiyaviy ishlari amaliyoti samaradorligini baholashda quyidagi mexanizmlarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- 1) test vositasi bilan baholash mexanizmi;
- 2) mutaxassis ishtiroki bilan baholash mexnazimi;
- 3) Pedagogik kengash vositasi bilan baholash mexanizmi.

Boshlang‘ich ta’limda amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlarning samaradorligini baholab borishda test mexanizmi amaliy xususiyatga egaligi bilan e’tiborni tortadi. Bu mexanizmdan foydalanish uchun quyidagilarga asoslanish tavsiya etiladi:

- har chorakda sinf rahbarlari tomonidan maxsus tuzilgan test savolnomalari asosida o‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnama o‘tkazib borish va uning natijalarini tahlil qilish;

- so‘rovnama natijalari asosida har bir o‘quvchining tarbiyalanganlik darajasini aniqlash va muayyan mayjud muammolar to‘g‘risida ma‘lumotga ega bo‘lish, bunday muammolarni hal etish tadbirlarini amalga oshirish;

- so‘rovnomalar natijalari bo‘yicha muntazam ravishda maktab jamoasiga ma‘lumot berib borish.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich ta’limda amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlari amaliyotining samaradorligini baholash bo‘yicha test mexanizmi aniq ma‘lumotlar, axborotlar va yo‘nalishlar berish xususiyatiga egaligi bilan kutilgan samaranı beradi.

Mutaxassis ishtirokida boshlang‘ich ta’lim ishlari amaliyoti samaradorligini baholash mexanizmlari quyidagilarga asoslanadi:

- mutaxassisning boshlang‘ich ta’limda amalga oshirilgan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini o‘rganishi;

- o‘rganish natijalari bo‘yicha metodik tavsiyalar mutaxassis tomonidan ishlab chiqilishi va boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini hamda sinf rahbarlariga taqdim etib borilishi;

- tarbiyaviy tadbirlarning shakllarini tanlashda mutaxassis bilan hamkorlik qilish.

Bu o‘rinda mutaxassis deganda maktablar joylashgan hududlarda faoliyat yuritayotgan ta’lim muassasalarining tajribali pedagoglari, olimlar va o‘qituvchilar nazarda tutilayotganligini eslatib o‘tish joiz. Shu jihatdan kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, hududlarda bunday toifali mutaxassislar ko‘p va ularning yordamidan yuqoridaqgi ta’kidlangan mexanizmlar asosida foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini va sinf rahbarlari boshlang‘ich ta’lim tarbiyaviy ishlari amaliyoti samaradorligini baholashda maktab Pedagogik kengashi bilan quyidagi shakllarda hamkorlik qilishi kutilgan samaranı beradi:

- amalga oshirilgan tarbiyaviy tadbirlarning natijasi bo‘yicha

ma'lumot berish va u haqda Pedagogik kengash a'zolarining xulosalarini olish;

- kutilgan natijani bermagan tarbiyaviy tadbirlarning yangi shakllariga ega bo'lish uchun Pedagogik kengash tavsiyalariga tayanish;

- Pedagogik kengashning tavsiyalarini va xulosalari asosida muntazam ravishda boshlang'ich ta'lim tarbiyaviy ishlari samaradorligini "qoniqarli", "yaxshi" va "a'lo" indikatorlar asosida baholab borish.

Bunday yondashuv boshlang'ich ta'limda amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlar samaradorligini aniq baholab borish amaliyoti bilan ta'minlaydi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'lim tarbiyaviy ishlar amaliyoti samaradorligini baholash mexanizmlari keng imkoniyatlarni berish xususiyatlariga ega.

Tarbiyaviy ishlar amaliyoti samaradorligini baholash mexanizmlari har bir tarbiya ishi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar tomonidan shakllantirilib boriladi. Buning uchun tarbiyaviy ishni amalga oshiruv-chilarning muntazam izlanishlari, tarbiya ishi bo'yicha tajribalarni o'zlashtirib borishlari va o'zlarining faoliyatni bo'yicha ommalashtirish tadbirlarini amalga oshirishi taqozo etiladi. Chunki tarbiya ishi bilan shug'ullanuvchilar faoliyatidan jamoatchilikning keng xabardor bo'lishi boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning to'g'ri va aniq olib borilishiga asos bo'ladi. Negaki boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar ta'limning keyingi bosqichida amalga oshiriladigan tarbiya jarayoni uchun poydevor bo'lishini unutmaslik lozim.

Tarbiyaviy ishlar amaliyoti samaradorligini yuritish vositalari. Boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlar qanday darajada amalga oshirilsa, ta'limning keyingi bosqichlarida ham bunday jarayon shunday ruhda davom etadi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim tarbiyaviy ishlari amaliyoti samaradorligini yuritish vositalari to'g'risida aniq tushunchalarga ega bo'lish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tajribadan o'tgan quyidagi vositalarni ta'kidlab o'tish joiz:

1) boshlang'ich ta'lim tarbiyaviy ishlarini choraklik o'rganish vositasi;

2) boshlang'ich ta'lim tarbiyaviy ishlarini yillik o'rganish vositasi;

3) boshlang'ich ta'limda tarbiya ishlarini muddatli o'rganish vositasi.

Boshlang‘ich ta’lim tarbiyaviy ishlarini *choraklik* o‘rganish vositasi quyidagi amaliy samaralarni berishga ahamiyat berish lozim:

- tarbiyaviy tadbirlar shakllarini takomillashtirib borish va ularning yangilarini tadbiq etish;

- boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy tadbirlarning mazmunini va uning samaradorligini muntazam kuzatib borish;

- boshlang‘ich ta’lim tarbiyaviy tadbirlari Rejalariga o‘zgartirishlar kiritib borish.

E’tibor berilsa, choraklik o‘rganish vositasi mayjud sharoit va zaruriyatlardan kelib chiqib, boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni yuritishning *yillik* o‘rganish vositasi quyidagi natijalarni berishini eslatib o‘tish joiz:

- o‘quv yili davomida amalga oshirilgan tarbiyaviy tadbirlarning aniq natijalari bo‘yicha ma’lumotga ega bo‘lish;

- tarbiyaviy tadbirlarning yangi shakllarini aniqlash bo‘yicha yo‘nalishlarga ega bo‘lish;

- kelgusi o‘quv yili uchun belgilanadigan tarbiyaviy tadbirlar bo‘yicha asoslangan yo‘nalishlarga ega bo‘lish.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich ta’limda amalga oshirilgan tarbiyaviy ishlarni yillik o‘rganish vositasi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va sinf rahbarlarining faoliyat samaradorligini belgilaydi.

Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni yuritishning *muddatli* o‘rganish vositasi quyidagilarga asoslanadi:

- boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, sinf rahbari yoki maktab Pedagogik kengashining taklifi bilan muayyan sinfda amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlar amaliyotini o‘rganish;

- tarbiyaviy ishlar bo‘yicha tajribaga ega bo‘lgan sinflarni aniqlash bo‘yicha o‘rganish;

- boshlang‘ich ta’limda amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlar bo‘yicha birlamchi muammolarni o‘rganish.

Bunday yondashuv boshlang‘ich ta’lim tarbiyaviy ishlari amaliyotini aniq yo‘naltirib olish imkoniyatini beradi. Shu sababli mazkur vosita imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich ta’lim tarbiyaviy ishlari amaliyoti samaradorligini yuritish vositalari o‘ziga xos mexanizmlarga egaligi bilan muhim o‘rin tutadi. Shu sababli mazkur vositalar oliy pedagogik

ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan chuqur o‘zlashtirilishi taqozo etiladi.

Tarbiyaviy ishlar amaliyotida samaradorlikni tahlil qilish shakllari. Boshlang‘ich ta’limda amalga oshirilgan tarbiyaviy ishlarning samaradorligini *tahlil qilish* va ular asosida xulosalarga kelish tarbiyaviy ishlar metodikasining asoslaridan biridir. Shu sababli bunday tahlillar shakllaridan quyidagilar muhim o‘rin tutishini nazarda tutish maqsadiga muvofiq bo‘ladi:

- 1) boshlang‘ich ta’lim tarbiyaviy ishlari samaradorligini ilmiy tahlil qilish;
- 2) boshlang‘ich ta’lim tarbiyaviy ishlari samaradorligini amaliy tahlil qilish;
- 3) boshlang‘ich ta’lim tarbiyaviy ishlari samaradorligini targ‘ibot orqali tahlil qilish.

Mazkur tahlil shakllari o‘zining imkoniyatlariga egaligi bilan diqqatni tortadi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim tarbiyaviy ishlari samaradorligini *ilmiy tahlil qilish* quyidagilarga asoslanadi:

- mutaxassislar ishtirokida amalga oshirilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning metodologik asoslarini muntazam kuzatib borish;
- tarbiyaviy tadbirlarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari xususiyatlariga mosligini nazorat qilib borish;
- tarbiyaviy tadbirlarning qulay, oson va qiziqarli asoslarga tayanishini monitoring qilib borish.

Bunday tahlil boshlang‘ich sinf rahbarlari tomonidan maslahatchi mutaxassislar ishtirokida muntazam o‘tkazib boriladi.

Boshlang‘ich ta’lim tarbiyaviy ishlarini *amaliy tahlil qilish* asoslari quyidagilardan iborat:

- har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisining tarbiyalanganlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha elektron jadval yuritib borish;
- sinflar kesimida tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligi bo‘yicha ko‘rsatkichlar tahlili ma’lumotnomasini yuritib borish;
- boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va sinf rahbarlarining tarbiyaviy tadbirlardagi faol ishtirokini aniq ma’lumotlar bo‘yicha yuritib borish.

Diqqat qilinsa, boshlang‘ich ta’limda tarbiviyl ishlarni amaliy tahlil qilish asoslari mazkur jarayonni pedagogik jihatdan kuzatib borishga yo‘naltirilganligi bilan xarakterlanadi.

Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar samaradorligini *targ‘ibot*

orgali tahlil qilish mexanizmlari quyidagilardan iborat:

- namunali o‘quvchilarning ro‘yxatlarini muntazam e’lon qilib borish va pedagogik vositalar asosida ularni rag‘batlantirish;
- tarbiyaviy ishlar bo‘yicha muvaffaqiyatga erishgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va sinf rahbarlarining tajribalarini maktab miqyosida ommalashtirish;
- eng namunali boshlang‘ich sinflarni maktab miqyosida pedagogik rag‘batlantirib borish.

Diqqat qilinsa, bunday targ‘ibot orgali tahlil qilish boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, o‘qituvchilari, sinf rahbarlari va muayyan boshlang‘ich sinflarning tarbiyaviy ishlar bo‘yicha faoliyatini yaqqol namoyon qiladi, ular asosida o‘ziga xos samaradorlikni baholash mumkin bo‘ladi.

Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar samaradorligi qanday usullarga asoslanishga bog‘liq. Pedagogik adabiyotlarda bunday usullarning eng muhimlari sifatida quyidagilar ta’kidlanishini eslatib o‘tish joiz:

1) boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni avtoritar usulda amalga oshirish, bunda tarbiyaviy ishlarni amalga oshiruvchilarning yuqori faolligiga asoslaniladi;

2) boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni demokratik usulda amalga oshirish, bunda tarbiyaviy ishlarni amalga oshiruvchilar o‘quvchilarning faolligiga asoslanadi;

3) boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishning liberal usuli, bunda tarbiyaviy ishlarni amalga oshiruvchilar o‘quvchilar, ota-onalar, maktab jamoasi va mutaxassislar bilan keng hamkorlik qiladi.

Mazkur tarbiyaviy ishlar usullaridan kezi bilan uyg‘un foydalanish, eng zaruriy hollarda ularning bittasidan foydalanish kutilgan samarani beradi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar ko‘p hollarda demokratik va liberal usullarga asoslansa, kutilgan samarani beradi. Bu usullar tarbiyaluvchilar va tarbiya ishini amalga oshiruvchilarning faol hamkorligiga asoslanishi bilan amaliy jihatdan samarador hisoblanadi.

Shunday qilib, boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar amaliyoti samaradorligini baholash mexanizmlari, mazkur jarayonni yuritish vositalari va uning samaradorligini tahlil qilib borish shakllari o‘ziga xususiyatlarga egaligi bilan diqqatni tortadi. Mazkur masalalarning

barchasi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan oliv pedagogik ta’lim jarayonida va jumladan, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o‘quv fani vositasida o‘zlashtirilishi kutilgan amaliy samarani beradi.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Tarbiyaviy ishlar amaliyoti samaradorligini baholash mexanizmlarini o‘rganing.
2. Tarbiyaviy ishlar amaliyoti samaradorligini yuritish vositalarini o‘zlashtiring.
3. Tarbiyaviy ishlar amaliyotida samaradorlikni tahlil qilish shakllarini konspekt qiling.

Modul bo‘yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Mavlonova R., Raxmonqulova N., Normurodova B., Matnazarova K. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. – Toshkent, 2014.
2. Jabborova O., Umarova Z., Boboxodjayeva L. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. Darslik. – Toshkent, 2021.
3. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. – Toshkent, 2009.

MUSTAQIL TA’LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar metodikasining nazariy masalalarini konspekt qiling.
2. Tarbiyaviy ishlarning milliy negizlarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Insonparvarlik, ezzulik va buniyodkorlik – milliy g‘oyamizning asosiy poydevoridir” kitobi asosida o‘zlashtiring.
3. Tarbiyaviy ishlarning umuminsoniy omillari bo‘yicha O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida tegishli ma’lumotlarni aniqlang va yozib oling.
4. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning nazariy asoslari bo‘yicha “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” hamda “Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” fani darsliklaridan ma’lumotlarni o‘rganing.
5. Tarbiyaviy ishlarning eng asosiy metodlarini o‘zlashtiring va haftalik pedagogik amaliyot vaqtida ularni tajriba-sinovdan o‘tkazing.
6. Tarbiyaviy ishlar shakllarini o‘rganing va ularni konspekt qiling.
7. Tarbiyaviy ishlar vositalari bo‘yicha test tuzib, u asosida mazkur vositalarni o‘zlashtiring.
8. Tarbiyaviy ishlar texnologiyalarini konspekt qiling va tegishli adabiyotlardan eng samarali texnologiyalarni o‘rganing.
9. Tarbiyaviy ishlarning xorijiy tajribalari bo‘yicha Internet ta’lim portallari asosida ma’lumotlarni o‘rganing va ularning eng muhimlarini daftaringizga qayd eting.
10. Tarbiyaviy ishlar monitoringini o‘zlashtiring.
11. Tarbiyaviy ishlar amaliyotini o‘rganib borish asoslarini o‘zlashtiring.
12. Tarbiyaviy ishlar jarayonida jamoatchilik bilan ishlashni o‘rganing va ularni haftalik pedagogik amaliyot davrida tajribadan o‘tkazing.
13. Tarbiyaviy ishlar samaradorligi bo‘yicha choraklik va o‘quv yili yakunlari asosida o‘rganiladigan mexanizmlarni o‘zlashtiring.
14. Tarbiyaviy ishlar bo‘yicha tegishli badiiy va ilmiy adabiyotlar bilan tanishing.
15. Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish bo‘yicha professor-o‘qituvchilar va murabbiylarga muntazam murojaat qilib boring.
16. Boshlang‘ich ta’limda har bir o‘quvchi bilan tarbiyaviy ishlarni

amalga oshirish mexanizmlarini o‘rganing.

17. Eng maqbul, samarali va qulay tarbiyaviy tadbirlarni tanlashni o‘zlashtiring.

18. Tarbiyaviy ishlar bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim mакtablarida amalga oshirilayotgan ishlarni kuzatib boring.

19. Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishga mo‘ljallangan ko‘rgazmali jihozlar tayyorlashni o‘rganing.

20. Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar bo‘yicha o‘zlashtir-ganlaringizni o‘rtoqlaringiz bilan o‘rtoqlashing.

GLOSSARIY

Axloq – boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning asosiy tayanchlaridan biri. Unda tarbiyaviy ishlar vositasida o‘quvchilarning axloqiy fazilatlari, axloqiy ongi va axloqiy munosabatlari shakllantiriladi.

Amaliyot – boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar samaradorligini baholovchi ko‘rsatkich. Unda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyalanganlik darajasi aniqlanadi va u asosida tarbiyaviy ishlarning tadbirlari belgilanadi.

Axborot resurslari – boshlang‘ich ta’limning tarbiyaviy ishlarida foydalaniladigan va ommaviy axborot-kommunikatsion vositalardan olinadigan ma’lumotlar, xabarlar, usullar va yondashuvlar majmui.

Axloqiy madaniyat – tarbiyaviy ishlar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantiriladigan axloqiy ong, axloqiy munosabatlar va axloqiy tushunchalar majmui.

Bilim – boshlang‘ich sinflarda tarbiyaviy ishlar jarayonida amal qilinadigan qarashlar, tayanchlar va usullar majmui. Tarbiya ishini amalga oshiruvchi har bir mutaxassis tarbiya asoslari bo‘yicha bilimlarni ta’lim jarayonida va mustaqil ta’lim vositasida o‘zlashtiradi.

Vizual tarbiyaviy tadbirlar – murakkab ijtimoiy sharoitlarda televidenie (TV), radio, kompyuter kabi axborot-kommunikatsion vositalar asosida tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish jarayoni. Bunda tarbiyaviy ishlarning samaradorligi o‘quvchilarining faolligi va tarbiya ishini amalga oshiruvchilar bilan hamkorligi asosida baholanadi.

Global tarbiya – zamonaviy sharoitda bir necha mamlakatlarning yoshlar, jumladan, o‘quvchilar tarbiyasi bo‘yicha hamkorlik qilish jarayoni. Global tarbiya faoliyati BMT va YuNESKOning xalqaro ta’lim dasturlari asosida tartibga solib boriladi.

Darslik – boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning nazariyasi, metodologiyasi va texnologiyasi bo‘yicha kasbiy ko‘nikma beruvchi eng asosiy o‘quv adabiyoti. Misol uchun, oliy pedagogik ta’lim jaaryonida bunday kasbiy ko‘nikmalar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida “Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” hamda “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o‘quv fanlari asosida tarkib toptiriladi.

Ijtimoiylik – boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan

tarbiyaviy ishlarning asosiy maqsadi va uning vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ijtimoiylashtiriladi hamda ularning ijtimoiy ongi shakllantiriladi.

Innovatsiya – boshlang‘ich sinflarda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar jarayonida amal qilinadigan yangicha tushunchalar, yangicha qarashlar va yangicha yondashuvlar majmui. Tarbiya ishini amalga oshiruvchi har bir mutaxassis innovatsiya talablariga amal qilishi bilan o‘zining faoliyat samaradorligiga erishadi.

Kasbiy madaniyatatlilik – bo‘lajak boshlang‘ich sinfo‘qituvchilarining tarbiya ishlari asoslari, shakllari, vositalari va texnologiyalarini o‘zlashtirganlik darajasi. Kasbiy madaniyatatlilik boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar va tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirish asoslaridan biri hisoblanadi.

Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kino, teatr, muzey va sayohatlar vositasida tarbiyalash tizimi.

Milliy g‘oya – O‘zbekistonda amal qilinadigan g‘oyalar tizimining asosi. Milliy g‘oyaning assosiy tamoyillarini Insonparvarlik, Ezgulik va Bunyodkorlik tashkil etadi. Boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan barcha tarbiyaviy ishlar jarayoni ana shu tamoyillarga asoslaniladi.

Paradigma – boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan eng maqbul va samarali tarbiyaviy tadbirlar namunasi. Bunday namunalar faol o‘qituvchilar tomonidan shakllantiriladi va maktab Pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Tajriba – boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarning eng samarali ko‘rsatkichlari va darajalari majmui. Tajriba eng maqbul vositalar asosida ommalashtiriladi va ularning boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tomonidan o‘zlashtirilishi taqozo etiladi.

Tarbiya – bu boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy ongi, axloqiy fazilatlari va amaliy faoliyatlarini shakllantirish jarayoni. Boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiya jarayoni ta’limning keyingi bosqichlarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning poydevori hisoblanadi. O‘zbekistonda tarbiya mamlakat ta’lim tizimining eng asosiy vazifalaridan biridir. Ta’lim tizimida amalga oshiriladigan tarbiya ta’lim va amaliyot ko‘rsatkichlari bilan uyg‘un asosda baholanadi.

G‘oya – boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy

ishlarning tayanch asoslaridan biri. Bugungi kunda mamlakatimizda boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar milliy g‘oya asosida tashkil etiladi va uning samaradorligi baholanadi.

Hujjat – boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar bo‘yicha bayonnomalar, dalolatnomalar va standartlar majmui. Hujjat boshlang‘ich ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning uzviyligi, uzlusizligi va tadrijiy rivojlanib borishini ta’minlovchi vositalardan biridir.

TAVSIYA ETILADIGAN UMUMIY ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dasturi. // www.ziyonet.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi. // www.ziyonet.uz
3. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi. // www.ziyonet.uz
4. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari va malaka talablari. // www.ziyonet.uz
5. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Yoshlar – 2030: yoshlar manfaatlari va yoshlar uchun” strategiyasi. // www.ziyonet.uz
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022.
7. Muxamedov G., Xodjamqulov U. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri. – Toshkent, 2021.
8. Mardonov Sh., Zokirova U. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent, 2021.
9. Karimjonov A., Ochilov F. Boshlang‘ich sinflarda ta’lim-tarbiya muammolari. – Toshkent, 2021.
10. Kamoliddinov M., Vahobjonov B. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari: savollar va javoblar. – Toshkent, 2019.
11. Jabborova O., Umarova Z., Boboxodjayeva L. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. – Toshkent, 2021.
12. Jabborova O. Boshlang‘ich ta’lim metodikasining yangi nazariy masalalari. – Toshkent, 2022.
13. Umarova Z. Boshlang‘ich sinflarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish. – Toshkent, 2021.
14. O‘zbekiston Respublikasi Milliy ensiklopediyasi. 12 jildli. – Toshkent, 2005-2007.

JABBOROVA ONAXON MANNAPOVNA

TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun

O‘quv qo‘llanma

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliquziyeva

Musahhih: M. Yunusova

Sahifalovchi: A. Muhammad

Nashr. lits № 1961. 07.04.2022.

Bosishga ruxsat etildi 11.11.2022.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘ozи. “Times New Roman”

garniturasi. Hisob-nashr tabog‘i. 6,5.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 127.

«BOOK TRADE 2022» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent v., Chirchiq sh., Madaniyat MFY,

Saodat ko‘chasi, 17-1.